- muayyan huquqdan mahrum qilish tarzidagi jazodan ozod qilish jamoat birlashmasi, jamoaning iltimosiga binoan sudya tomonidan amalga oshiriladi (536-moddada).

Boshqa turdagi nazoratda davlat organi mansabdor shaxsi nazoratchi bo'lib, maxsus bilimga ega bo'lgan shaxslar muayyan tartiblarga muvofiq nazoratni amalga oshiradilar va bu nazorat majburiy hisoblanadi. Jamoatchilik nazoratida fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari ishtirok etishi mumkin. Ular ixtiyoriy, ochiq va shaffof jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar. Ba'zilar "Fuqaro sifatida har qanday davlat organini borib nazorat qilishimga qonun ruxsat berdi" deb o'ylamasligini unutmashimiz kerak. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida qonunning 5-moddasida belgilangan asosiy prinsiplar nazorat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga ochiq va xolis amalga oshirilishi belgilandi.

Jamoatchilik nazorati sohasidagi asosiy qonun O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni hisoblanadi. Qonun faqat jamoatchilik nazorati shakllarining asosiy tushunchalarini qamrab oladi, lekin uni amalga oshirish mexanizmini nazarda tutmaydi. Binobarin, jamoatchilik nazoratining har bir shakli ularning amalga oshirilishi va jamoatchilik nazorati sohasidagi huquqiy normalarning qo'llanishi nuqtayi nazaridan yoritilib, jamoatchilik fikrini o'rganishning o'z-o'zini tekshirish, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik monitoringi kabi shakllari ularning mazmuniga kiritilgan [6]. Ular hali jamoatchilik nazorati subyektlarining kundalik amaliyotiga o'rganmagani uchun ularni amaliyotga samarali qo'llash borasida muammolar mavjud [7]. Shu munosabat bilan jamoatchilik nazoratining barcha shakllaridan foydalangan holda jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshi-



rishga xizmat qiluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarur.

Bu nazorat o'z natijalari bilan boshqa nazorat turlaridan farq qiladi. Jamoatchilik nazorati natijalari bo'yicha hisobot, xulosa, ma'lumotnoma shaklida yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shaklda yakuniy hujjat tayyorlanishi mumkin. Ya'ni davlat nazoratidan farqli o'laroq, yakuniy hujjat majburiy emas. Yakuniy hujjat ma'lumot beruvchi va tavsiyaviy bo'ladi. Undagi ma'lumotlar, tavsiyalar va takliflar davlat organlari tomonidan majburiy ko'rib chiqiladi va ular yuzasidan qonuniy qarorlar qabul qilinadi. Bunda davlat organi jamoatchilik nazorati natijasida tayyorlangan hujjatni ko'rib chiqishi shart. Qonunning 6-moddasida jamoatchilik nazoratining 8 ta shakli aniq belgilab berilgan. Bu shakllar davlat organlariga murojaat va so'rovlar, shuningdek, davlat organlarining ochiq hay'at majlislari-da ishtirok etishini o'z ichiga oladi. Shuningdek, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o'rganish shular jumlasidandir.

Qonunda nazorat shakllarini amalga oshirishda jamoatchilikka alohida e'tibor qaratilgan. Bu kollegiallik, tashkiliylikni talab qiladi. Qolaversa, masala mazmun-mohiyatini tushunmaydigan odamlar tomonidan turli suiiste'molliklarning oldini olishga qaratilgan. Biroq bu jihat fuqaroning jamoatchilik nazoratida ishtirok etmasligini anglatmaydi. Ushbu nazorat shakllari ochiq va shaffofdir. Muhokama qilinayotgan masala ta'sir etayotgan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan shaxslar ishtirok etish, o'z fikrlarini bildirish va takliflar berish huquqiga ega. Qonunning eng muhim qismini jamoatchilik nazorati subyektlari va davlat organlarining huquq va majburiyatlari tashkil etadi. Chunki har qanday munosabatlarda huquq va majburiyatlarning munosabatlarning asosini tashkil qiladi, undan javobgarlik kelib chiqadi. Qonunda jamoatchilik nazorati subyektlarining tad-

birlar o'tkazishda tashabbus ko'rsatishi, davlat organlaridan zarur ma'lumotlarni so'rab olishi, nazorat natijalari bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlashi va tegishli organlarga ko'rib chiqish uchun yuborishi, tegishli materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, shikoyat qilish, sudga da'vo qilish, jamoatchilik nazorati natijalarini e'lon qilish huquqlari belgilangan.

Albatta, huquq bor joyda majburiyatlar ham bor. Shu ma'noda jamoatchilik nazorati subyektlari qonun hujjatlari talablariga, davlat organlari faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlariga rioya etishlari, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga o'z vakolatlari doirasidagi ishlariga aralashmasliklari shart [8]. Bundan tashqari, davlat organlarining, shuningdek, mansabdor shaxslarning o'z faoliyatiga to'sqinlik qilmaslik, fuqarolarining sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmaslik, shaxsiy hayotiga aralashmaslik majburiyatlari ham bor. Qonunni qabul qilish ishning bir qismi, qolgani esa uni amalga oshirishdir. Jamoatchilik nazoratining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shakllarini, tomonlarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik nazorati qoidalari yuridik jihatdan barcha mamlakatlar qonunchiligida alohida hujjat hisoblanmaydi [9]. 2015-yilda Rossiya Federatsiyasi, 2018-yilda esa O'zbekiston alohida qonun qabul qildi. Qozog'iston Respublikasida 2020-yilda qabul qilingan bo'lsa, Tojikiston, Turkmaniston va Qirg'izistonda faqat qonunosti hujjatlarida mavjud.

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunini tahlil qilar ekanmiz, ushbu qonunda jamoatchilik nazoratining maqsadi va vazifalari belgilab berilmaganiga guvoh bo'lamiz. Boshqa davlatlar qonunchiligiga, jumladan, Rossiya

Federatsiyasining “Jamoatchilik nazorati asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasida hamda Qozog‘iston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasida jamoatchilik nazoratining maqsad va vazifalari belgilab berilganiga amin bo‘lishimiz mumkin. Shunday ekan respublikamizning “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunida jamoatchilik nazoratining maqsadi va vazifalarini belgilab qo‘yish lozim.

Bundan tashqari, mazkur qonunda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi tartibga solinmagan. Rossiya Federatsiyasining “Jamoatchilik nazorati asoslari to‘g‘risida”gi qonuni 11-moddasida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish belgilangan. Qonunda “Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi kelib chiqqan taqdirda jamoatchilik nazorati subyekti tomonidan jamoatchilik nazorati amalga oshirilmaligi” haqidagi normani mustahkamlash lozim deb o‘ylaymiz. Bunda manfaatlar to‘qnashuvi deganda, jamoatchilik eksperti yoki jamoatchilik nazorati ostida bo‘lgan boshqa shaxsning shaxsiy manfaatlari jamoatchilik nazoratining obyektivligi va xolisligiga ta‘sir qiladigan yoki ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan va nizo kelib chiqadigan vaziyat tushuniladi.

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish orqali jamoatchilik palatasini, kasaba uyushmalarini va davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlarini jamoatchilik nazoratining subyektlari qatoriga kiritish lozim. Negaki yuqorida nomlari keltirilgan tashkilotlar ham jamoatchilik nazorati subyektlarini kabi vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasining “Jamoatchilik nazorati asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni 9-moddasida ham Jamoatchilik palatasi va davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari jamoatchilik nazorati subyektlari sifatida

kiritilgan. Shuningdek, jamoatchilik nazorati mexanizmlari amalda ishlashi uchun uning ishlashiga to‘sqinlik qilayotgan nisbiy to‘siqlarni tugatish lozim. Bunda, ayniqsa, xalqaro tajribadan kelib chiqib jamoatchilik nazorati tuzilmalari davlat organlaridan har qanday o‘z vakolatlari, ijtimoiy doirasiga oid hujjatlarni talab qilib olishda davlat organlaridan hech qanday to‘siqlarsiz berilishini ta‘minlash mexanizmlarini yaratish kerak.

Shu bilan birga, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasida jamoatchilik nazorati shakllari berilgan, ushbu berilgan jamoatchilik nazorati shakllariga “Jamoatchilik tekshiruvi” shaklini ham kiritishni taklif qilaman, chunki jamoatchilik nazorati shakllarida jamoatchilik monitoringi ham berilgan bo‘lib, monitoring qilish uchun ham tekshirish kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasining “Jamoatchilik nazorati asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni 18-moddasida jamoatchilik nazorati shakllari berilgan bo‘lib, jamoatchilik tekshiruvi ham jamoatchilik nazorati shakli sifatida berilgan.

### **Xulosalar**

Yuqoridagi tahlillar asosida jamoatchilik nazoratining qonuniy asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunga quyidagi tahrirdagi qo‘shimchalarni kiritish taklif qilinadi:

*birinchi*, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunda jamoatchilik nazoratining maqsadi belgilanmagan, shu sababli ushbu qonunga quyidagi normani qabul qilish taklif etiladi:

“jamoatchilik nazoratining maqsadi:

1) inson va fuqaroning huquq va erkinliklari, jamoat birlashmalari va boshqa no-davlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari amalga oshirilishi va himoya qilinishini ta‘minlash;

2) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda jamoatchilik fikri, fuqarolar, jamoat

birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining takliflari va tavsiyalari hisobga olinishini ta'minlash";

*ikkinchi*, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunda jamoatchilik nazoratining vazifalari belgilanmagan, shu sababli ushbu qonunga quyidagi normani qabul qilish taklif etiladi:

"jamoatchilik nazoratining vazifalari:

1) fuqarolik huquqiy ongini shakllantirish va rivojlantirish;

2) fuqarolarning davlat faoliyatiga ishonch darajasini oshirish, shuningdek, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining yaqin hamkorligini ta'minlash;

3) ijtimoiy nizolarning oldini olish va hal qilishda yordam berish;

4) inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan fuqarolik tashabbuslarini amalga oshirish;

5) qonunlarga muvofiq davlat hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa organlar va tashkilotlar faoliyatining ochiqqligini ta'minlash;

6) jamiyatda korrupsion xulq-atvorga nisbatan murosasizlikni shakllantirish;

7) qonunlarga muvofiq davlat hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati or-

ganlari, boshqa organlar va tashkilotlarning muayyan davlat vakolatlarini amalga oshiradigan faoliyati samaradorligini oshirish";

*uchinchi*, mazkur qonunda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi tartibga solinmagan, shu sababli ushbu qonunga quyidagi normani qabul qilish taklif etiladi:

"Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqqan taqdirda jamoatchilik nazorati subyekti tomonidan jamoatchilik nazorati amalga oshirilmaligi";

*to'rtinchi*, qonunda keltirilgan jamoatchilik nazorati subyektlari bajargan vazifa va funksiyalarni jamoatchilik palatasi, kasaba uyushmalari va davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari ham bajarganligi sababli jamoatchilik nazorati subyektlari ro'yxatini kengaytirib unga jamoatchilik palatasini, kasaba uyushmalarini va davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlarini jamoatchilik nazoratining subyektlari qatoriga kiritish;

*beshinchi*, jamoatchilik nazorati shakllariga "Jamoatchilik tekshiruv" shaklini ham kiritish;

shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda "Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik" uchun javobgarlik belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

## REFERENCES

1. Sokolov A.V. Mekhanizmy i printsipy informirovaniya o deyatelnosti organov vlasti i upravleniya [Mechanisms and principles of informing about the activities of authorities and administration]. Mass media in the informational interaction of power and society. Proceedings of the conference.
2. Ismailov B. Davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning amaliy jihatlari [Practical aspects of the implementation of public control over state activities]. Issues of formation of civil society institutions in Uzbekistan: theory and practice. Proceedings of the scientific-practical conference. Tashkent, 2007, p. 46.
3. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida [Uzbekistan is on the way to democratic development]. Tashkent, 2004, p. 79.
4. Abdullayev J. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining roli [The role of mass media in the formation of civil society]. Tashkent, 2008.

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2019.
6. Nazarov Sh.N. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoat tashkilotlarining roli (nazariy va huquqiy masalalar) [The role of public organizations in the formation of civil society in Uzbekistan (theoretical and legal issues)]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2009, p. 25.
7. Tolibov I. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoat fondlarining tutgan o'rni [The role of public funds in the formation of civil society]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2009, p. 27.
8. Jahonov Sh. (2022). Jamoatchilik nazorati institutining shakllanishi va rivojlanishining asosiy tendensiyalari [Main tendencies of the formation and development of the institute of public control]. *Research and Education*, 2022, vol. 1 (8), pp. 63–71. DOI: 10.5281/zenodo.7358609/. Available at: [https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=Jamoatchilik+nazorati+institutining+shakllanishi+va+rivojlanishining+asosiy+tendensiyalari&btnG=/](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=Jamoatchilik+nazorati+institutining+shakllanishi+va+rivojlanishining+asosiy+tendensiyalari&btnG=/).
9. Bafayev Sh.G. Sovershenstvovaniye zakonodatelnyh norm ob obshhestvennom kontrole v Uzbekistane [Improving legislation on public oversight in Uzbekistan]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2021.
10. Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi [Formation of an open civil society in Uzbekistan]. Tashkent, Sharq Publ., 2003, p. 256.
11. Abdukarimov G'. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini oshirish [Increasing the role and importance of civil society institutions in Uzbekistan]. *Fuqarolik jamiyati – Civil Society*, Tashkent, 2006, pp. 33–82.
12. Mamatov G.S. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik nazorati va davlat axborot siyosatining uyg'unligi (O'zbekiston Respublikasi misolida) [Harmony of public control and state information policy in the information society (in the case of the Republic of Uzbekistan)]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2021.
13. Abdiazimov O. Fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratida matbuotning o'rni va ahamiyati [The role and importance of press in civil society and public control]. Tashkent, 2006.
14. Politiko-administrativnoye upravleniye [Political and administrative management]. Eds. V.S. Komarovskiy, L.V. Smorgunov. Moscow, Publ. house of the RAGS, 2004, 356 p.
15. Mamatov X. Fuqarolik jamiyati – jamoatchilik nazorati mexanizmi [Civil society is a mechanism of public control]. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi – Bulletin of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan*, Tashkent, 2008, no. 4, pp. 34–35.



UDC: 342.4:347.23(045)(575.1)

## KONSTITUTSIYADA MULK HUQUQINING IFODALANISHI

**Imomov Nurillo Fayzullayevich**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Fuqarolik huquqi kafedrası mudiri

yuridik fanlar doktori, professor

ORCID: 0000-0002-5961-9970

e-mail: nurillo\_1212@mail.ru

**Annotatsiya.** Konstitutsiya mamlakatning asosiy qonunidir. Unda inson va fuqarolarning mulkka egalik qilish, mulkning daxlsizligi huquqi kafolatlanadi. Bu kafolatlar esa, o'z navbatida, aniq ishlaydigan va ta'minlanishi shubha ostiga olinmaydigan hamda qo'llovchilar tomonidan har xil talqin etilmaydigan bo'lishi zarur. Aynan mana shunday kafolatlargina inson va fuqarolarning konstitutsiyaga, qonunlarga hamda davlatga bo'lgan ishonchini oshiradi. Mulk huquqining kafolati qonunlar bilan ta'minlanishi lozim. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarda mulk huquqi va uning ta'minlanishiga oid konstitutsiyaviy normalarni takomillashtirish ustuvor vazifalardan sanaladi. Shu sababli mulkning daxlsizligi qonunda belgilangan asoslar va tartibda sudning qaroriga ko'ra oldindan to'liq va adolatli haq to'lash yo'li bilan mulkdor begonalashtirilishi mumkinligi qoidasini konstitutsiyada qat'iy belgilashning ilmiy-amaliy jihatlarini tadqiq etish o'rinlidir. Qolaversa, mulk uning sohibiga nafaqat huquq, balki muayyan mas'uliyat yuklashi, bunda mulkdor mulkdan foydalangan jamiyat manfaatlari uchun ham harakat qilishiga oid qoidalarni konstitutsiyada ifodalash dolzarbdir. Shuningdek, maqolada xususiy mulk himoyasini kuchaytirish, bunda xususiy mulk davlat tomonidan emas, balki qonun bilan himoya qilinishi va kafolatlanishiga oid normalarni belgilash zarurligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** konstitutsiya, inson va fuqaro, mulk, huquq, daxlsizlik, egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish, kafolat.

## ОТРАЖЕНИЕ ПРАВА СОБСТВЕННОСТИ В КОНСТИТУЦИИ

**Имомов Нурилло Файзуллаевич,**

доктор юридических наук, профессор,

заведующий кафедрой «Гражданское право»

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** Конституция является главным законом нашей страны. В Конституции должны быть отражены право собственности и гарантия неприкосновенности имущества человека и гражданина. Эти гарантии, в свою очередь, должны быть четко действующими и исполнимыми, а также не должны подвергаться различным толкованиям со стороны применителей. Именно подобные гарантии повышают доверие человека и граждан к Конституции, законам и государству. Право собственности должно быть гарантировано законом. В проводимых в Узбекистане конституционных реформах одной из приоритетных задач является совершенствование конституционных норм, касающихся права собственности и его обеспечения. В связи с этим представляется целесообразным исследовать научно-практические аспекты закрепления в Конституции нормы о том, что неприкосновенность собственности может быть нарушена лишь путем отчуждения собственником с пред-



варительной уплатой полной и справедливой цены по решению суда. Кроме того, важно выразить в Конституции положения относительно того, что принадлежащая гражданину собственность налагает на него не только права, но и определенные обязанности, при которых собственник действует на благо общества, использующего это имущество. В статье также подчеркивается необходимость усиления охраны частной собственности, при которой необходимо установить нормы, касающиеся защиты и гарантирования частной собственности законом, а не государством.

**Ключевые слова:** Конституция, человек, гражданин, собственность, право, неприкосновенность, владение, пользование, распоряжение, гарантия.

## REFLECTION OF PROPERTY RIGHTS IN THE CONSTITUTION

**Imomov Nurillo Fayzullaevich**

Head of the Department of Civil Law,  
Tashkent State University of Law  
Doctor of Law, Professor

**Abstract.** The Constitution is the main law of our country. The constitution must reflect the right to property and guarantee the inviolability of the property of a person and a citizen. These guarantees, in turn, should be clearly valid and enforceable, and should not be subject to varying interpretations by the implementers. It is these guarantees that increase the trust of a person and citizens in the constitution, laws, and the state. Property rights must be guaranteed by law. In the ongoing constitutional reforms in Uzbekistan, one of the priority tasks is the improvement of constitutional norms relating to the right to property and its provision. In this regard, it seems appropriate to study the scientific and practical aspects of enshrining the norm in the constitution that the inviolability of property can only be violated by alienation by the owner with the preliminary payment of a full and fair price by a court decision. In addition, it is important to express in the constitution the provisions that a thing belonging to a citizen imposes on him not only rights but also certain duties, under which the owner must perform all actions for the benefit of the society using the property. It is also necessary to strengthen the protection of private property, while it is necessary to establish rules regarding the protection and guarantee of private property by law and not by the state.

**Keywords:** constitution, person, citizen, property, right, inviolability, possession, use, disposal, guarantee.

### Kirish

Moddiy ne'matga egalik va undan bahramand bo'lishga oid masalalarni adolatli hal etish hamma zamonlarda kishilik jamiyati oldidagi asosiy muammolardan biri bo'lib kelgan. Shu sababli mulkchilik asoslarini qonunchilikda har tomonlama asosli, adolatli va eng muhimi, jamiyat a'zolari uchun maqbul tarzda belgilashga harakat qilingan. Mulkdorlik maqomi va unga nisbatan davlat hokimiyati tomonidan belgilangan kafolatlar har doim davlatdagi barqarorlik hamda qonunlarga bo'lgan ishonch ortishiga xizmat

qilgan. Shaxsga tegishli mol-mulk va unga bo'lgan mulk huquqining mamlakat asosiy qonuni – Konstitutsiyada qat'iy va aniq ifodalanishi esa mulkdor uchun eng ishonchli kafolatdir. Bunda mulk huquqining daxlsizligi va uning kafolatlanishi deklaratsiya (ijtimoiy munosabatlarni to'g'ridan to'g'ri tartibga solishni emas, asosiy prinsiplarni belgilaydigan qonunchilik normasi) tarzida emas, balki aniq ishlash mexanizmlariga va to'g'ridan to'g'ri tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lgan qoida ko'rinishida belgilanishi lozim. Mulk huquqi masalasining Konstitutsiyada dekla-

ratsiya ko'rinishida belgilanishi esa ushbu qoidani rivojlantiradigan va aniqlashtiradigan hamda ijtimoiy munosabatlarni bevosita tartibga solish mexanizmlarini belgilaydigan normalarni shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, qonunchilikni aniq va bir xilda talqin qilish imkoniyatini pasaytirib yuboradi.

### **Materiallar va metodlar**

Ushbu tadqiqotda asosiy metod sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy sharhlash hamda tizimlashtirish usuli tanlab olindi. Shuningdek, tadqiqotda mulk huquqi doktrinasini nuqtayi nazaridan Konstitutsiyada mulkka oid normalarning ifodalanishi tahlil qilindi va xorijiy mamlakatlar qonunchiligi bilan taqqoslagan holda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mulkka oid normalarini takomillashtirishga oid fikrlar ilgari surildi.

### **Tadqiqot natijalari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining amaldagi tahririda mulk huquqiga oid normalar umumiy va deklarativ tarzda belgilangan. Xususan, Konstitutsiyaning 36-moddasi shunchaki "har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli" ekanini ta'kidlaydi xolos. Mulkdor bo'lishning o'zi tom ma'noda nima ni anglatishi, "mulkdorlik" termini qanday ma'noni bildirishi ochib berilmaydi. Bundan tashqari, "mulkdor" deganda kimlar tushunilishi nafaqat Konstitutsiyada, balki boshqa qonunchilik hujjatlarida ham ochib berilmagan. O'zbek tilining izohli lug'atida ushbu so'zga shunday izoh berilgan: "Mulkdor (arabcha+forscha الملكية + دور – mulk egasi) mulk subyekti; mulk obyektiga egalik, foydalanish, tasarruf etish huquqiy tamoyillari asosida mustahkamlangan huquqlarga ega bo'lgan shaxs" [1].

"Mulkdor" termini qonunchiligimizga rus tilidagi "sobstvennik" terminini o'zbek tiliga tarjima qilish natijasida kirib kelgan. Zero, arabcha "mulk" termini o'zbek tilida turli ma'nolarda qo'llangan. Xususan, mulk deganda moddiy ne'matlar, biron-bir mamlakat, joy yoki majoziy ma'noda soha yoki tarmoq ham

anglashilgan. Alisher Navoiyning "Tarixi muluki ajam" ("Ajam mamlakatlari tarixi") asarida ham "mulk" termini ko'plab ma'nolarda keladi. Masalan, "Tahmuras o'tuz ikki yil *mulk* surdi, Chun saltanatga o'turdi, jahon *mulkin* adl va dod bila tuzdi" [2]. Bundan ko'rinadiki, o'z davrida "mulk" termini mamlakat, hokimiyat kabi ma'nolarda qo'llangan.

Bugungi kunda esa yuridik sohada "mulk" termini o'zgacha ma'no kasb etmoqda. Qonunchilikda "mulk" termini bilan birga "mol-mulk", "ashyo", "mulk huquqi", "mulkiy huquq" kabi terminlar keng qo'llangan. Yuridik adabiyotlarda bu terminlarning ma'nolari borasida ham bir qator fikrlar bildirilgan. Xususan, A.X. Saidovning fikricha: "Mol-mulk – mulk huquqining obyekti – inson egallashi va doimiy foydalanishi mumkin bo'lgan narsa" [3].

Meredith M. Renderning yozishicha, "mulk (property) asosan ashyoga egalikka aloqador bo'ladi. O'z navbatida, mol-mulk (ownership) ashyodan foydalanish va egalik qilishga oid shaxsning huquqiga taalluqli hisoblanadi. Biroq mulk masalasi huquqning turli sohalariga u yoki bu darajada taalluqlidir, masalan, konstitutsiyaviy huquqda moddiy dunyo obyektlaridan foydalanish va egalik qilish masalasi ham muayyan darajada e'tirof etiladi. Aniqroq aytganda, yurist va iqtisodchi olimlar mulk huquqida faqatgina kelajakdagi muomala uchun asos bo'lib xizmat qiladigan huquqlar mavjudligini tasdiqlaydi. Shu nuqtayi nazardan mulk (property) yoki mol-mulk (ownership) – turli shartnomalar uchun asos bo'lib xizmat qiladigan bir qator shaxsiy yuridik majburiyatlardir" [4].

Bir qator mutaxassislarning qayd etishlaricha, "mulk" insonlarning ashyolarga, yer uchastkasiga, tabiiy resurslar, ishlab chiqarish vositalari, sanoat mulki, shuningdek, intellektual faoliyatning boshqa obyektlariga egaligini tartibga soluvchi qoidalar uchun umumiy termin hisoblanadi [5].

Fikrimizcha, bu "mulk" va "mol-mulk" terminlari borasida yuqorida keltirilgan

fikrlarga qo'shilgan holda "mulk"ning moddiy ne'mat yoki ashyoga nisbatan shaxslar manfaatining o'zaro to'qnashuvi natijasida yuzaga kelgan "egallash, foydalanish va tasarruf etish"ni ifodalovchi munosabat degan xulosa kelish mumkin. O'z navbatida, mol-mulk "egallash, foydalanish va tasarruf etish" harakatlari qaratilgan obyekt – moddiy ne'mat, ashyoning aynan o'zini anglatadi.

Mulk tushunchasini tashkil etuvchi unsurlarni izlash ushbu so'zning umumiy ishlatilishini tavsiflash bilan boshlanishi mumkin. Aniqrog'i, ushbu atama nimani anglatishini (ya'ni uning havolarini) diqqat bilan ko'rib chiqib, uning ma'nosini aniqlashtirish mumkin. Birinchidan, "mulk" atamasi moddiy yoki nomoddiy narsa bo'la oladigan tovarga nisbatan ishlatilishi mumkin [6]. Masalan, "bu yer uchastkasi xususiy mulkdir", "bu algoritim intellektual mulkdir", "ushbu mulkka kirish kichik yolg'izoyoq yo'lda joylashgan" va boshqalar shu kabi jummalarda ifodalanadi. Ikkinchidan, "mulk" termini muayyan ne'mat hisoblanmaydigan, ammo obyekti qandaydir ne'mat bo'lgan narsalarga nisbatan ishlatilishi mumkin [7]. Xususan, "ushbu asar mening mulkim obyekti", "ushbu aktivlar davlat mulki obyekti" va "ushbu shartnoma maxfiy ma'lumotlar mulki bilan bog'liq" kabi iboralarni shakllantirish mumkin. Ushbu iboralarda "kitob", "aktivlar" va "ma'lumotlar" nomlari bilan belgilangan moddiy yoki nomoddiy ashyolar "mulk" terminini ifodalamaydi, balki "mulk" termini bilan belgilandigan narsaning obyekti bilan ifodalanadi [8].

Mulk va unga nisbatan inson va fuqarolarning huquqlari dunyoning turli davlatlari konstitutsiyalarida ifodalanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu borada asosiy e'tibor mulkning daxlsizligi, mulkdan faqat barchaning manfaatlari yo'lida foydalanish lozimligi hamda mulk faqat jamoat ehtiyojlari asosida va haq to'lab egasidan olinishi mumkinligi qoidalariga qaratilganini ko'rish mumkin [9]. Masalan, Germaniya Konstitutsiyasining 14-moddasiga ko'ra "mulk va meros huquqi

kafolatlanadi. Ularning mazmuni va chegaralari qonun bilan belgilanadi. Mulk undan foydalanish bir vaqtning o'zida jamoat manfaatlari uchun xizmat qilish mas'uliyatini yuklaydi" [10]. Bundan tashqari, mazkur moddada mulkdan faqat jamoat manfaatlari uchun begonalashtirishga ruxsat berilishi, bunday begonalashtirish faqat qonun bo'yicha amalga oshirilishi, buning uchun esa qonunda belgilangan miqdorda va tartibda haq to'lanishi, jamiyat hamda mulk egalarining manfaatlari adolatli inobatga olingan holda belgilanishi, to'lanadigan haqning miqdori borasida nizo vujudga kelganida esa sudga murojaat qilinishi nazarda tutilgan [11]. Polsha Konstitutsiyasining 21-moddasida "mulk va meros huquqi muhofaza qilinishi, mulkni olib qo'yish jamoat manfaatlari uchun va adolatli haq evaziga amalga oshirilishi" [12] belgilangan. Shveysariya Konstitutsiyasida "mulk kafo-latlanishi, mulkdan mahrum qilish va uning cheklanishi yoki olib qo'yilishi to'liq qoplanishi hisobiga amalga oshirilishi mumkin (26-modda) [13]".

Niderlandiya Konstitutsiyasining 14-moddasida esa mulkning daxlsizligi va kafolati to'g'ridan to'g'ri yozilmagan, aksincha, bu konstitutsiyada mulkni olib qo'yishga oid qat'iy va adolatli qoidalarni o'rnatish yo'li bilan ta'minlangan. Jumladan, mazkur norma ko'ra, "ekspropriatsiyaga (lotincha expropriatio – mulkdan mahrum qilish, lotincha yex – dan + proprius – mulk) – mol-mulkni majburiy begonalashtirish) faqat jamoat manfaatlari uchun va qonunda belgilangan tartibda mulkdorga to'liq kompensatsiyani oldindan kafolatlash sharti bilan yo'l qo'yiladi. To'liq kompensatsiyaning oldindan kafo-latlanishi favqulodda holatlarda zudlik bilan ekspropriatsiya qilinishi lozim bo'lsa talab etilmaydi. Qonunda belgilangan hollarda yetkazilgan zararni to'liq yoki qisman kompensatsiya qilishga yo'l qo'yiladi" [14].

Finlandiya Konstitutsiyasining mulkka oid normalarida mulk himoya qilinishi va uning natsionalizatsiya qilinishiga oid qoidalar bel-

gilangan. Ushbu mamlakat konstitutsiyasining 15-moddasiga binoan: “Har kimning mulki himoya qilinadi. Jamoat manfaatlar uchun mulkni to’liq kompensatsiya evaziga natsionalizatsiya qilish qonun bilan tartibga solinadi” [15].

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Yuqoridagi tahlillar asosida ta’kidlash lozimki, xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida mulkka bo’lgan huquqning kafolatlanishi va himoya qilinishi, uning daxlsizligini ta’minlashning usullari va yondashuvlarini quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1) mulkka bo’lgan huquq va uning daxlsizligiga oid qoidalarini to’g’ridan to’g’ri yozib qo’yish (Germaniya, Polsha va shu kabilar);

2) mulkni begonalashtirishning qat’iy tartibini belgilash yo’li bilan unga bo’lgan huquq kafolatini o’rnatish (Shveysariya, Niderlandiya, Finlandiya).

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida esa mulk va unga bo’lgan huquqning kafolatlari 36-, 53-, 54-moddalarda o’z aksini topgan. Mulkka bo’lgan huquq, uning daxlsizligi va amalga oshirilishi kafolatlarining bu tarzda Konstitutsiyaning turli boblariga joylashtirilishi huquqiy va mantiqiy jihatdan nechog’lik o’rinli ekanligi masalasi o’ziga xos savollarni yuzaga keltirishi mumkin. Zero, mulk va unga bo’lgan huquq inson va fuqarolarning huquqi hisoblanar ekan, u haqidagi barcha qoidalar Konstitutsiyaning “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” deb nomlangan bobida (IX bob) joylashtirilishi maqsadga muvofiqligi masalasi kelib chiqadi. Agar “mulk va unga bo’lgan huquq inson va fuqaro bilan birga yuridik shaxs hamda mulkdor davlatga ham tegishli” degan qarashga asoslanadigan bo’lsa, bu o’rinda huquqshunoslikda yuridik shaxs (shu jumladan, davlat)ga nisbatan keng qo’llanadigan fiksiya nazariyasi [16] bunday yondashuvning to’g’ri emasligini asoslaydi. Qolaversa, ko’plab davlatlarning konstitutsiyalarida mulk, unga bo’lgan huquq, daxlsizlik va kafolatlar aynan inson va fuqaroga nisbatan shakllantirilgan.

Konstitutsiyaning 36-moddasi “har bir shaxs mulkdor bo’lishga haqli” deb belgilaydi. Ayni paytda Konstitutsiyaga kiritilayotgan qonun loyihasida esa ushbu norma quyidagicha ko’rinish hosil qilgan: “Har kim qonun bilan muhofaza qilinadigan mulkka, shu jumladan, intellektual mulkka bo’lgan huquqqa ega”. Albatta, mazkur normaning amaldagi tahrirdagi normaga qaraganda bir qadar progressiv ekanligini qayd etish mumkin. Biroq bu norma ham umuman olganda katta ijobiy o’zgarishni ifodalay olmagan. Chunki mulk va unga bo’lgan huquqning har kimga tegishli bo’lishi mumkinligi qoidasi qat’iy konstitutsiyaviy qoida hisoblanmaydi. Qolaversa, mulkning daxlsizligi, xususiy mulkning muhofaza qilinishi inson va fuqaroning huquqi emas, Konstitutsiyaning 53–54-moddalarida belgilanganidek “jamiyatning iqtisodiy negizlari” hisobga olinsa.

Mulk va unga bo’lgan huquqlarning MDH davlatlari qonunchiligida ifodalanishi ham muayyan umumiylik bilan birga ayrim farqli jihatlariga ega ekanligini ko’rish mumkin. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasida mulkka oid normalar “Konstitutsiyaviy qurilish asoslari” deb nomlangan 1-bobning 8–9-moddalarida hamda “Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari” deb nomlangan 2-bobning 35–36-moddalarida belgilangan. Agar 8–9-moddalarda “mulk shakllarining xilma-xilligi hamda bir xilda tan olinishi va himoya qilinishi, shuningdek, yer va boshqa tabiiy resurslar mulkning turli shakllarida bo’lishi mumkinligi” nazarda tutilgan bo’lsa, 35-moddada xususiy mulk qonun bilan muhofaza qilinishi, har kimning o’z mulkida mol-mulkka ega bo’lishi va unga nisbatan huquqlarga yakka o’zi yoki boshqa shaxslar bilan birgalikda egalik qilishga haqli ekanligi, sudning qarorisiz hech kim mulkidan mahrum etilishi mumkin emasligi, begonalashtirish to’liq va teng haq to’lash evaziga amalga oshirilishi e’tirof etilgan, 36-moddada esa fuqarolar va ularning birlashmalari xu-



susiy mulk asosida yerga egalik qilishga haqli ekanligi o'rnatilgan [17].

Qozog'iston Konstitutsiyasining "Umumiy qoidalar" deb nomlangan I bo'limi 6-moddasida hamda "Inson va fuqaro" deb nomlangan II bo'limi 26-moddasida mulkka oid qoidalar belgilangan. Jumladan, 6-moddada davlat va xususiy mulk bir xilda tan olinishi va himoya qilinishi, mulkdan foydalanish bir vaqtning o'zida jamiyat manfaatlar uchun xizmat qilishi, mulkning subyektlari va obyektlari, mulkdor tomonidan o'z huquqlarini amalga oshirish hajmi va chegaralari, ularni himoya qilish kafolatlari qonun bilan belgilanishi nazarda tutilgan bo'lsa, 26-moddasida fuqarolarning xususiy mulkida qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritilgan mol-mulk bo'lishi mumkinligi, mulk qonun bilan kafolatlanishi mustahkamlangan [18].

Ozarbayjon Konstitutsiyasining 13- va 29-moddalari mulk va mulk huquqiga bag'ishlangan asosiy qoidalar o'z ifodasini topgan. Bunda mulk daxlsiz ekanligi va davlat tomonidan muhofaza qilinishi, mulk davlat, xususiy va munitsipal bo'lishi mumkinligi, mulk inson va fuqaroning huquq va erkinligiga, jamiyat va davlat manfaatlar, shaxs qadriga qarshi foydalanilishi mumkin emasligi belgilangan. Bundan tashqari, har kim mulk huquqiga egaligi, mulkning hech bir shakli boshqasiga qaraganda ustun emasligi, mulk huquqi, shu jumladan, xususiy mulk qonun bilan muhofaza qilinishi, har kimda ko'char va ko'chmas mulk bo'lishi mumkinligi, mulkka nisbatan yakka va birgalikda ega bo'lish mumkinligi, sud qarorisiz hech kim mulkdan mahrum etilmasligi va shu kabi boshqa qoidalar nazarda tutilgan [19].

Ko'rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan MDH davlatlarining konstitutsiyalarida ham mulk va unga bo'lgan huquqning tan olinishi va himoya qilinishiga oid qoidalar muayyan darajada o'xshash bo'lib, asosiy e'tibor mulk shakllari va ularning bir xilda himoya qilinishi, shaxsning mulk huquqi e'tirof etilishiga qaratilgan.

## Xulosalar

Amaldagi Konstitutsiyaning "Jamiyatning iqtisodiy negizlari" deb nomlangan XII bobi masalasida shuni ta'kidlash lozimki, bunday bob va normalarga oid yondashuv boshqa davlatlarning konstitutsiyalarida uchramaydi. Konstitutsiyadagi mazkur bob 1978-yil 19-aprelda qabul qilingan O'zbekiston SSR-ni Konstitutsiyasida ham mavjud bo'lgan. To'g'ri, mazmunan boshqacha ifodalangan bo'lsa-da, Konstitutsiyada "iqtisodiy negizlar"ning alohida bobda ifodalanishi sovet konstitutsiyachiligiga xos yondashuv va deyarli barcha sobiq Ittifoq respublikalari bu yondashuvdan voz kechgan. Biroq O'zbekistonda bu yondashuv saqlab qolingani ajablanarlidir. Chunki amaldagi Konstitutsiyaning mazkur bobi sobiq sotsialistik qarashga asoslanadigan jamiyatni "siyosiy tizim", "iqtisodiy tizim", "ijtimoiy rivojlanish va madaniyat" (O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining 1–3-boblari) kabi guruhlariga ajratish yondashuvini qabul qilish an'anasidan kelib chiqib kiritilgan. "Jamiyatning iqtisodiy negizlari" terminining o'zi ham sotsializm asoschilari (K. Marks va F. Engels) tomonidan ishlab chiqilgan [20] bo'lib, keyinchalik asossiz ekanligi isbotlandi va jamiyatni tanazzulga olib kelishi aniqlandi. Bugungi kunda dunyoning iqtisodiy rivojlangan davlatlarida iqtisodiyot raqobat, talab va taklif, xususiy mulchilik hamda cheklangan davlat aralashuviga asoslangan o'z-o'zini boshqarish qonuniyatlari asoslanadi [21]. Shu sababli mamlakatning asosiy qonuni bo'lgan Konstitutsiyada o'tmishda o'z isbotini topmagan asossiz dogmani ifodalash nooqilona ishdir.

Bu esa, o'z navbatida, inson va fuqarolarga berilgan mulk va daxlsizlik huquqi bilan birga jamiyatda alohida iqtisodiy negizlar bo'lishi kerak, degan asossiz va o'rinsiz qarashni hosil qiladi. Fikrimizcha, bunday yondashuvdan voz kechish va haqiqiy bozor iqtisodiyotiga asoslanadigan, davlatning xususiy ishlarga aralashuvini amalda real ta'minlaydigan konstitutsiyaviy qoidalarni shakllanti-



rish payti keldi. Yangi O'zbekistonning sobiq Ittifoq davrida amalda bo'lgan hamda jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalaqit qilgan yondashuvlari va normalaridan voz kechishi esa bu boradagi dolzarb masalalardan biridir. Shu munosabat bilan Konstitutsiya amaldagi tahririning XII bobi (53–55-moddalar) qoidalarini mos ravishda "Davlat suvereniteti" deb nomlangan I bobi va "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb nomlangan IX bobiga qisqartirgan va bob nomiga moslashtirgan holda o'tkazish hamda XII bobdan voz kechish maqsadga muvofiqdir. Chunki moddiy ne'matlar va unga bo'lgan ehtiyoj faqat insonga xos jihat bo'lar ekan, ularga nisbatan egalik, ya'ni mulk huquqi ham inson va fuqarolarga tegishlidir. Ushbu huquqning mazmuni, sohibiga berilgan vakolatlar (egalik, foydalanish va tasarruf etish), daxlsizlikning ta'minlanishi, xususiy mulkning kafolatlanishi va himoyalaniishi kabi masalalar ham insonning asosiy huquq va erkinliklariga mansub hisoblanadi. Shunday ekan, Konstitutsiyaning XII bobi qoidalarini inson va fuqarolarning "iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari" jumlasiga o'tkazish mantiq, adolat va huquq nuqtayi nazaridan to'g'ri yondashuvdir.

Konstitutsiyada mulk va unga bo'lgan huquqning ifodalanishi bo'yicha Ukraina tajribasi e'tiborga molikdir. Ukraina Konstitutsiyasi 1996-yil 28-iyunda, ya'ni mamlakat mustaqillikni qo'lga kiritganidan 5 yil o'tib qabul qilingan hamda unda inson va fuqaroning mulkka bo'lgan huquqi va uning kafolatlari bir qadar aniq va qat'iy ifodalangan. Jumladan, ushbu davlat Konstitutsiyasining "Umumiy qoidalar" deb nomlangan I bo'limi 13-moddasida yer, yerosti boyliklari, atmosfera havosi, suv va boshqa tabiiy resurslar Ukraina xalqining mulki hisoblanishi, har bir fuqaro xalq mulk huquqining tabiiy obyektlaridan foydalanish huquqiga ega. Mulk mas'uliyat yuklaydi. Mulkdor mulkdan inson va jamiyat zarariga foydalanishi mumkin emas. Davlat barcha mulk huquqi va xo'jalik

subyektlarining huquqlari himoyasini, iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilishini ta'minlaydi. Mulk huquqining barcha subyektlari qonun oldida tengdirlar.

Ukraina Konstitutsiyasining "Inson va fuqaroning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari" deb nomlangan II bo'limi 41-moddasi mulkka egalik, mulkning daxlsizligi, xususiy mulk huquqiga oid kafolatlariga oid asosiy qoidalarini mustahkamlaydi. Masalan, ushbu moddaning uchinchi qismida "xususiy mulk huquqi daxlsizligi" belgilangan bo'lsa, keyingi qismlarda bunday daxlsizlik qanday ta'minlanishi belgilangan. Jumladan, xususiy mulk huquqi obyektlarini majburiy olib qo'yish jamoat manfaatlari uchun va faqat qonunda belgilangan asoslar va tartibda hamda oldindan qiymati to'liq qoplangan holda amalga oshirilishi, favqulodda holatlar va harbiy vaziyatlardagina mulk keyinchalik qiymatini to'liq qoplash sharti bilan olib qo'yilishi mumkin. Mol-mulkni musodara qilish qonunda belgilangan holatlar, hajm va tartibda faqat sud qarori bo'yicha qo'llanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi "iqtisodiyotning negizini mulkning xilma-xil shakllari tashkil etishi"ni nazarda tutadi. Bunda "davlat barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi". Bu qoidadagi "mulk shakllarining teng huquqliligi" iborasi huquqiy jihatdan to'g'ri emasligiga e'tibor qaratish lozim. Chunki "huquq" shaklga, ya'ni obyektga ega emas, balki subyektga tegishli sanaladi. Shakl huquqdor bo'la olmaydi. Balki shunchaki teng hisoblanadi. Fikrimizcha, bu birikmadagi "huquq" so'zini chiqarib tashlab mulk shakllarining tengligi deb ifodalagan to'g'riroq bo'lar edi. Shu o'rinda mulkni shaklga ajratish ham huquqiy nuqtayi nazardan va bozor munosabatlari sharoitida to'g'ri emasligiga e'tibor qaratish zarur. Chunki mulkni shaklga ajratish "siyosiy iqtisod talqini" hisoblanadi va "qo'lga kiritish, egallash shakli"

sifatida ko‘riladi [22]. Bu o‘rinda “mulk shakllarining tengligi” iborasi ham amalda ta‘minlanmaydigan deklaratsiyadan o‘zga narsa emas. Chunki amalda xususiy va ommaviy mulk teng bo‘lishi mumkin emas. Masalan, muayyan turdagi mulkning fuqarolik muomalasidan chiqarilgani, xususiy mulk bo‘lishi mumkin bo‘lmagan mol-mulklar ro‘yxatining mavjudligi, mulkning vujudga kelish asoslari (masalan, natsionalizatsiya, rekvizitsiya, soliq tushumlari ommaviy mulkka xos bo‘lsa, xususiylashtirish xususiy mulkka oiddir) bo‘yicha mulk shakllari teng bo‘la olmasligi ko‘zga tashlanadi. Bundan shuni anglash mumkinki, amalda mulk shakllari yo‘q, balki huquq subyektlari: fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatga tegishli bo‘lgan muayyan va bir xildagi standartlarga bo‘ysundirilgan vakolatlar (egallik qilish, foydalanish va tasarruf etish)ni ifodalaydigan yagona mulk huquqi mavjud.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning 53-moddasi “daxlsizlik va davlat himoyasini” o‘ziga xos tarzda ifodalaydi. Ya‘ni xususiy mulkning boshqa mulk shakllari kabi “daxlsizligi va davlat himoyasida” ekanligini belgilaydi. Bu qoidada shu jihatga e‘tibor qaratish kerakki, birinchidan, mulkning xususiy mulkdan boshqa faqat bitta shakli, ya‘ni davlat mulki mavjud va unga daxlsizlik shart emas. Ushbu mulkning davlatga qarashli yuridik shaxslar va boshqa ommaviy huquq subyektlarining biridan ikkinchisi hisobiga o‘tkazilishi, davlat zaxirasiga olib qo‘yilishi yoki boshqacha usulda birlashtirilgan subyektdan olib qo‘yilishi mumkin. Bu vaziyatda daxlsizlikning asosiy sharti bo‘lgan “sudning qarori va oldindan kompensatsiya” kabi talablar amal qilmaydi. Chunki bu masalalar ma‘muriy huquq doirasida yuqori turuvchi davlat organining qarori asosida amalga oshiriladi. Shunday ekan, daxlsizlik faqat va faqat xususiy mulkka nisbatan berilishi lozim. Ikkinchidan, “xususiy mulkning davlat himoyasida bo‘lishi” oddiy mantiq qoidalariga hamda mulkiy munosabatlarda “davlatning boshqa ishtirokchilar bilan baravar asoslarda ishtirok etishi”

(Fuqarolik kodeksi (keyingi o‘rinlarda – FK) ning 79-moddasi birinchi qismi) normasi-ga hamda huquqiy doktrinaga [23] ziddir. Chunki mantiq va huquq nuqtayi nazaridan qaraganda, xususiy mulk va xususiy mulkdorga qarshi turuvchi subyekt bu – davlat. Davlatdan boshqa subyekt xususiy mulkdor manfaatlarini belgilamaydi, cheklamaydi yoki unga nisbatan qoidalar va normalarni o‘rnatmaydi. Xususiy mulkdor huquqlarini cheklash va uni bekor qilish ham davlat tomonidan qonunlar qabul qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Shu sababli xususiy mulk davlat emas, balki qonun himoyasida bo‘lishi lozim.

Shu o‘rinda Konstitutsiyaga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi qonun loyihasida 53<sup>1</sup>-modda sifatida taklif etilayotgan mulkning dalxsizligini ochib beruvchi yangi qoidalar e‘tibor qaratish o‘rinli. Mazkur qoidalar birmuncha asosli va faqat sud qarori bilan hamda mulkning qiymatini oldindan va to‘liq qoplagan holda jamoat ehtiyojlari uchun mulkni mulkdordan majburiy beralashtirish mumkinligini nazarda tutadi. Fikrimizcha, bu normani davom ettirish hamda “favqulodda holatlar va harbiy vaziyatlar-da mulk keyinchalik qiymatini to‘liq qoplash sharti bilan olib qo‘yilishi mumkinligi” bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqdir.

Konstitutsiya amaldagi tahririning 54-moddasi mulkdorning vakolatlarini hamda mulkdor zimmasidagi mas‘uliyatni belgilaydi. Mulkdorning o‘z mol-mulkiga nisbatan vakolatlar sifatida qonun chiqaruvchi bu o‘rinda qadimgi Rim huquqi davrida ishlab chiqilgan “mulk huquqi triadasi”ni [24] keltirib o‘tadi. Albatta, mulk huquqining mazmunini ifodalovchi elementlar (unsurlar) deb ataluvchi mazkur vakolatlar qat‘iy emas [25]. Chunki amaldagi qonunchilikda mulkdorning “o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqi” ham mavjud (FKning 164-moddasi). Mulkdorning o‘z mol-mulkiga nisbatan egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqining konstitutsiyaviy qoida

tariqasida belgilanishi inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi muhim jihat hisoblanadi [26, 27], albatta. Biroq mazkur vakolatlar mutlaqlik kasb etmaydi. Shu sababli Konstitutsiyaning 54-moddasida mazkur mulkdorga tegishli vakolatlar doirasi sanab o'tilishi bilan birga uning zimmasiga ayrim mas'uliyatlar ham belgilanadiki, bu, o'z navbatida, mulk huquqlarining amal qilish chegaralari hisoblanadi. Mazkur moddada mulkdorning mulk huquqidan foydalanishiga nisbatan quyidagi ikki shart belgilanadi:

1) ekologik muhit, ya'ni atrof-tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik;

2) boshqa shaxslarning manfaatlarini buzmaslik.

Ta'kidlash lozimki, bu norma qonunchilikda, xususan, FKda rivojlantirilgan. Ushbu kodeksning 172-moddasida mulk huquqini amalga oshirish uchun to'rtta muhim shart belgilab o'tilgan. Bu ijobiy holat, albatta. Lekin mulkdan foydalanishning konstitutsiya va FKda belgilangan shartlari mulkdorning jamiyat oldidagi asosiy mas'uliyatini nazarda tutmaydi. Yuqoridagi tahlillarda mulkdorning jamiyat oldidagi

asosiy mas'uliyati sifatida ayrim xorijiy davlatlarda (Germaniya, Ukraina) mulkdan foydalanish nafaqat mulkdorga, balki jamiyatga foyda keltirishiga e'tibor qaratiladi. Masalan, fuqaro o'z mulki bilan qonun bilan taqiqlanmagan va o'zga shaxslarga zarar yetkazmaydigan har qanday harakatni amalga oshirishi, o'z mulkini yo'q qilib yuborishi (yoqishi, ko'mib yoki buzib tashlashi va h.k.) mumkin. Bundan tashqari, shu mulkdan umuman foydalanmasligi ham mumkin. Aytaylik, fuqaro 5 gektar yerni xususiylashtirib oldi. Lekin undan foydalanmayapti. Bu, o'z navbatida, jamiyat manfaatlariga ziddir. Zero, shu yer uchastkasidan unumli foydalanilsa, tegishli qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilsa, jamiyat uchun oziq-ovqat taqchilligi masalasi ijobiy tomonga o'zgarishi mumkin. Shu sababli ham mulk nafaqat huquq berishi, balki mulkdorga jamiyat foydasi yo'lida harakat qilishiga oid mas'uliyatni yuklashi lozim. Shu sababli Konstitutsiyaga "mulk undan foydalanish bilan bir vaqtning o'zida jamoat manfaatlarini uchun xizmat qilish mas'uliyatini yuklaydi" degan normani kiritish maqsadga muvofiqdir.

## REFERENCES

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. "M" harfi [An explanatory dictionary of the Uzbek language. The letter "M"]. Available at: <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>.
2. Navoiy A. Tarixi muluki ajam. Available at: <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/621-navoiy.html/>.
3. Saidov A.Kh. Pravo sobstvennosti v Respublike Uzbekistan [Ownership in the Republic of Uzbekistan]. *Journal of Russian Law*, 2006, no. 12 (120), pp. 66–81. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravo-sobstvennosti-v-respublike-uzbekistan/>.
4. Render M.M. The concept of property. *University of Pittsburgh law review*, 2017, Summer, vol. 78, pp. 439–492.
5. Carpenter K., Katyal S., Riley A. In defense of property. *Yale Law Journal*, 2009, no. 18, pp. 1022–1125.
6. Hart H.L.A.. The concept of law. 3rd ed. Oxford, England, Clarendon Press, 2012. Original work publ. 1961.
7. Claey's E.R. Use and the function of property. *The American Journal of Jurisprudence*, 2018, no. 63 (2), pp. 221–258.
8. Zambon A. Property: a conceptual analysis. Available at: <https://journals.openedition.org/revus/5208#ftn11/>.

9. Morriss A. The economics of property rights. 2007, March. Available at: <http://www.thefreemanonline.org/features/the-economics-of-property-rights/>.
10. Osnovnoy zakon Federativnoy Respubliki Germanii. [Basic Law of the Federal Republic of Germany]. Federal Republic of Germany. Constitution and legislative acts. Ed. Yu.P.Uryasa. Munchen, Progress, 1991.
11. Baur J., Stürner R. Sachenrecht [Property law]. Munchen, 2009, p. 393.
12. Konstitutsiya Respubliki Polshi [Constitution of the Republic of Poland]. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/poland.pdf/>.
13. Konstitutsiya Shveytsarii [Constitution of Switzerland]. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/switzerland.pdf/>.
14. Konstitutsiya Korolevstva Niderlandov [Constitution of the Kingdom of the Netherlands]. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/netherlands.pdf/>.
15. Konstitutsiya Finlyandii [Constitution of Finland]. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/finland.pdf/>.
16. Imomov N.F. Yuridik shaxs mohiyatining fuqarolik-huquqiy talqini (nazariy masalalar) [Civil-legal interpretation of the essence of a legal entity (theoretical issues)]. Tashkent, TSUL, 2017, p. 150.
17. Konstitutsiya RF s izmeneniyami 2022 goda [The Constitution of the Russian Federation as amended in 2022]. Available at: <http://duma.gov.ru/news/55446/>.
18. Konstitutsiya Respubliki Kazakhstan [Constitution of the Republic of Kazakhstan]. Available at: [https://www.akorda.kz/ru/official\\_documents/constitution/](https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution/).
19. Konstitutsiya Azerbaydzhanskoy Respubliki [Constitution of the Republic of Azerbaijan]. Available at: <https://mincom.gov.az/ru/view/pages/13/>.
20. Semenov Yu.I. Ekonomika kak bazis obshhestva: obshhiy kategorial'nyy apparat [Economy as the basis of society: general categorical apparatus]. *Philosophy and society*, 2014, no. 1, p. 73.
21. Brožek B. On tû-tû. *Revu. Journal for Constitutional Theory and Philosophy of Law*, 2015, no. 27, pp. 15–23. DOI: 10.4000/revus.3426/.
22. Sukhanov Ye.A. Pravo sobstvennosti v sovremennoy Rossii: neskol'ko printsipial'nykh tezisov [Ownership in modern Russia: a few fundamental theses]. *Russia and the Modern World*, no. 3, 2001, pp. 102–108. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravo-sobstvennosti-v-sovremennoy-rossii-neskolko-printsipialnyh-tezisov/>.
23. Baratov M.X. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtirokining nazariy va amaliy muammolari [Theoretical and practical problems of state participation in civil-legal relations]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2008, p. 38.
24. Bell A., Parchomovsky G. A theory of property. *Cornell L. Rev.*, 2005, vol. 90, pp. 531–531.
25. Merrill T.W., Smith H.E. Optimal standardization in the law of property: the numerus clausus principle. *Yale L.J.*, vol. 110, no. 1, p. 200.
26. Davidson N.M. Standardization and pluralism in property law. *Vand. L. Rev.*, 2008, vol. 61, pp. 1597–1598.
27. Dukeminier J., Krier J.E., Alexander G.S., Schill M.H. Property. 2010, p. 197.



UDC: 347:349.2(045)(575.1)

## VIRTUAL MEHNAT MIGRATSIYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTONDA JORIY QILISH ISTIQBOLLARI

**Musayev Bekzod Tursunbayevich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Xususiy huquq fakulteti dekani  
ORCID: 0000-0003-2068-4035  
e-mail: b.musaev@tsul.uz

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada demografik va globallashuv jarayonidagi o'zgarishlar natijasida shakllanayotgan virtual mehnat migratsiyasini tartibga solish istiqbollari, uning oqibatlari va sabablari o'rganilgan. 2020-yil o'rtalariga kelib dunyoda COVID-19 pandemiyasi sababli davlatlarning iqtisodiyoti uchun alohida muhim o'rin tutgan ishchi kuchi harakati va tashqi mehnat migratsiyasi sohasida ham jiddiy cheklovlarning o'rnatilishi ushbu sohalarni raqamlashtirish va virtual mehnat institutini rivojlantirish orqali fuqarolarning mehnat harakatchanligini ta'minlashning yangicha shakllarini ishlab chiqishni dolzarb etib qo'ydi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda masofadan ishlayotganlar soni 17 %ni tashkil etadi, Yaponiya va AQSHda esa bu ko'rsatkich deyarli 40 %ga yetdi. Ushbu raqamlar milliy darajada xalqaro xususiy huquqiy normalarni takomillashtirish, mehnat migratsiyasini raqamlashtirish, virtual mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yanada samarali mexanizmlarni ishlab chiqish lozimligini ko'rsatadi. Jahonda virtual mehnat migratsiyasining huquqiy asoslarini yaratish, mehnat migrantlarining huquqlarini xalqaro darajada huquqiy himoya qilish vositalarini kengaytirish, mehnat migratsiyasini boshqarishga "sun'iy intellekt" texnologiyalarini tatbiq etishning qonunchilik asoslarini yaratish masalalariga muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo'nalishi sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Muallif virtual migratsiyani tartibga solish bilan bog'liq masalalarning huquqiy yechimini topishda asosiy yo'nalish insonni bir joydan ikkinchi joyga ko'chish va mehnat qilish huquqini kafolatlashga va ushbu jarayonlarni soddalashtirishga qaratilgan axborot texnologiyalari bo'lishi zarur degan qat'iy pozitsiyani ilgari suradi.

**Kalit so'zlar:** migratsiya siyosati; mehnat migratsiyasi; sun'iy intellekt, virtual migratsiya, IT texnologiyasi, elektron onlayn platformalar.

### КОНЦЕПЦИЯ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ВИРТУАЛЬНОЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Мусаев Бекзод Турсунбаевич,**  
доктор юридических наук, доцент,  
декан факультета частного права  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются перспективы регулирования виртуальной трудовой миграции, ее последствия и причины, которые формируются в результате изменений в процессе демографии и глобализации. К концу 2020 года в связи

с пандемией COVID-19 в мире, введением серьезных ограничений в сфере рабочей силы и иностранной трудовой миграции, играющей особо важную роль в экономике страны, возникла необходимость разработать новую форму обеспечения безопасности труда населения с целью совершенствования этой сферы и развития виртуального института труда. По данным Международной организации труда (МОТ), количество удаленных работников в мире составляет 17 %, а в Японии и США этот показатель достиг почти 40 %. Эти цифры свидетельствуют о необходимости совершенствования публично-правовой и частноправовой системы на национальном уровне, совершенствования системы трудовой миграции, разработки более эффективного механизма защиты прав виртуальных трудовых мигрантов. В мире также особое внимание уделяется вопросу создания правовой базы виртуальной трудовой миграции, расширения средств национальной правовой защиты прав трудовой миграции, создания правовой базы для применения технологий искусственного интеллекта в управлении трудовой миграцией, данное научное направление имеет важное научное и практическое значение. Автор выдвигает твердую позицию, что основным направлением в поиске правового решения вопросов, связанных с регулированием виртуальной миграции, должны стать информационные технологии, направленные на обеспечение права человека на перемещение с одного места на другое, работу, и упрощение этих процессов.

**Ключевые слова:** миграционная политика, трудовая миграция, искусственный интеллект, виртуальная миграция, ИТ-технологии, электронная онлайн-платформа.

## CONCEPT OF LEGAL REGULATION OF VIRTUAL LABOR MIGRATION AND PROSPECTS OF ITS IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN

**Musaev Bekzod Tursunbaevich**

Dean of the Faculty of Private Law,  
Tashkent State University of Law,  
Associate Professor, Doctor in Law

**Abstract.** This article examines the prospects of regulating virtual labor migration, its consequences, and causes, which are formed as a result of changes in the process of demographics and globalization. By the end of 2020, due to the COVID-19 pandemic in the world, the introduction of serious restrictions in the field of the labor force and foreign labor migration, which has a particularly important role in the economy of the country, made it necessary to develop a new form of ensuring the labor safety of the population with the aim of improving this field and developing a virtual labor institute. According to the International Labor Organization (ILO), the number of remote workers in the world is 17%, and in Japan and the USA, this figure has reached almost 40%. These figures indicate the need to improve the public and the private legal system at the national level, to improve the labor migration system, and to develop a more effective mechanism for protecting the rights of virtual labor migrants. In the world, special attention is being paid to the issue of creating a legal basis for virtual labor migration, expanding the means of the national legal protection of the rights of labor migration, and creating a legal basis for applying “artificial intelligence” technology to the management of labor migration as a research direction of significant scientific and practical importance. The author puts forward a firm position that the main direction in finding a legal solution to the issues related to the regulation of virtual migration should be information technologies aimed at guaranteeing the right of a person to move from one place to another and to work and simplify these processes.

**Keywords:** migration policy; labor migration; artificial intelligence, virtual migration, IT technology, electronic online platform.

## Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, soliqqa tortish, davlat xizmatlarini ko'rsatish sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlanib, uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari belgilab berildi. Bundan tashqari, so'nggi ikki yilda ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan o'nlab Prezident qarorlari va hukumat hujjatlari qabul qilingan. O'zbekistonda raqamli texnologiyalarga berilayotgan imkoniyatlar, ularni turli soha va mutaxassislar tomonidan qo'llashga, ayniqsa, mehnat munosabatlarini tartibga solishni "raqamli shakl"ga o'tkazishga, mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilishga imkon beradi.

Xalqaro hisob-kitoblarga ko'ra, 2020-yilda dunyoda 281 millionga yaqin xalqaro muhojir bo'lgan, bu dunyo aholisining 3,6 foiziga to'g'ri keladi [1].

Ta'kidlash joizki, jahon mehnat bozorining globallashuvi va rivojlangan davlatlardagi ish beruvchilarning yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji raqamlashtirish fonida o'zini yanada ko'proq namoyon eta boshladi. Natijada virtual olam sharoitida yuqori malakali mutaxassislar o'rtasida mehnat bozorida yaxshi takliflarni qo'lga kiritish bo'yicha o'zaro raqobat kuzatilmoqda.

Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi ish beruvchilarning xodimlar bilan o'zaro munosabatlarini internet texnologiyalari asosida olib borishi samarali ekanligini ko'rsatdi.

Pandemiyaga qadar paydo bo'lgan va sekin-asta rivojlanayotgan onlayn raqamli mehnat platformalari pandemiya davrida o'z samaradorligi va ommalashuvi bilan ajralib turdi. Bularning barchasi gignomika sohasi rivojlanishiga xizmat qildi [2, 3–22-b.].

Gignomikaga asoslangan mehnat munosabatlari zamonaviy axborot texnologiyalari orqali erkin mehnat faoliyatini amalga oshirish natijasida pul topishga qaratilgan soha sanaladi. Uning asosini frilansing, vaqtinchalik mehnat faoliyati, kraudsorsingni amalga oshirish kabi noan'anaviy mehnat munosabatlari tashkil qiladi.

Onlayn platformaga asoslangan virtual mehnat munosabatlari yangi mehnatni tashkil qilish uslubi bo'lib, unda "ish beruvchilar ishchilarni internet orqali qisman, qisqa muddatli yoki loyihaviy ishlarga jalb qilish uchun onlayn mehnat platformalaridan foydalanadilar" [3].

Har yili virtual mehnat bozorida ishchilar soni taxminan 20–30 %ga oshib borayotganligi mazkur yangi fenomenni chuqur huquqiy tahlil qilish zaruratini oldimizga qo'yimoqda. Virtual mehnat migratsiyasi keng tarqalgan davlatlar sirasiga AQSH, Kanada, Finlandiya, Daniya va Shvetsiya kabi davlatlarni ko'rsatib o'tish mumkin [4, 20-b.].

Misol uchun, dunyoda taksi xizmatlarini ko'rsatuvchi "Uber" kompaniyasini ko'rsatish mumkin. 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, "Uber"da dunyo bo'yicha 700 dan ortiq shaharda 40 milliondan ziyod haydovchi mehnat faoliyatini olib boradi. Lekin kompaniyada 22 ming ishchi rasmiy ro'yxatdan o'tgan [5, 114–132-b.].

Xalqaro tashkilotlar o'tkazgan tadqiqotlarda "virtual mehnat migratsiyasini milliy kapital, ishchi kuchi va axborot oqimi orqali bir davlat chegarasidan boshqa davlatning milliy chegarasini kesib o'tadigan ish deb ta'riflash mumkin. Bu asosan mahalliy, milliy va global darajani birlashtirgan offshor ishchi kuchidir" [6, 165-b.], degan ta'rifdan foydalanilgan.

Buyuk britaniyalik olim A. Anishning ta'kidlashicha, "virtual mehnat bozori paydo bo'lishidan oldin virtual ishchilar immigrant bo'lishga majbur bo'lar edi, lekin raqamli inqilob xodimni ish beruvchi bilan AKT vositasida bog'ladi va mehnat migratsiyasi sohasi-

da virtual kabi innovatsiyani ochish orqali bunday ehtiyojni yo'q qildi" [7, 208–210-b.]. Haqiqatan, bugungi kunda ayrim soha va-killari sanalgan mehnat migrantlari boshqa davlatda ishlash uchun o'sha joyga ko'chib o'tish zarurati yo'q bo'lib, virtual olam orqali ham mehnat faoliyatini tashkil qilish samarali ekanligi isbotlandi.

Xalqaro darajada virtual dunyo konsepsiyasining o'zgarishi va kengayishi natijasida virtual migratsiya sohasida ham yangi o'zgarishlar va uning ko'lamini kengaytirish tendensiyalari kuzatilmoqda. Natijada ushbu konsepsiya internet "kod qoidasi" [8, 73–76-b.] bilan boshqariladigan virtual mehnat bozori kabi ijtimoiy yangilikni yaratishga xizmat qildi.

A. Anish o'z maqolasida virtual migratsiya jarayonlarida o'z vatanlarini tark etmagan holda AQSH iqtisodiyoti uchun mehnat qilayotgan kompyuter texnologiyalari bo'yicha hind mutaxassislarning soni yildan yilga oshayotganini ko'rsatib o'tadi [7, 208–210-b.]. T.B. Pusakova [9, 44–57-b.] virtual mehnat bozoriga shunday ta'rif bergan: "Geografik jihatdan taqsimlangan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida global axborot makonida zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida mavjud bo'lgan mehnat axborot xizmatlarini sotish va sotib olish bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi".

Internet texnologiyalarining xalqaro xususiy mehnat munosabatlariga ko'rsatgan ta'sirini baholar ekan, buyuk britaniyalik mutaxassis H. Duglas: "Internet ish beruvchilar qayerda bo'lishidan qat'i nazar, ko'p-dan ko'p ishchilarga "joyida" ishlashga imkon beradigan virtual mehnat bozori kabi ijtimoiy yangilikni yaratdi" [10], – deb ta'kidlab o'tadi.

Virtual mehnat munosabatlarining murakkabligi shundaki, unda chet el elementi o'zining doimiy yashash manzili sanalgan davlat hududida istiqomat qiladi, xorijiy davlat chegarasini faqat virtual kesib o'tadi.

Ushbu fikrlar 2000-yillarda D. Schultz tomonidan ham qayd etilgan bo'lib, uning fikricha, mehnat migrantlari ish uchun davlat chegaralarini jismoniy kesib o'tishidan farqli o'laroq telekommunikator davlat chegaralarini elektron tarzda kesib o'tadi [11, 435–437-b.].

S.V. Shupalyova o'z tadqiqotida bunday munosabatlarni kollizion tartibga solishning ikki shaklini ilgari surgan: "*Birinchi*, ushbu shartnoma tuzilgan mamlakat qonunini yoki ish beruvchining joylashgan joyi to'g'risidagi qonunni qo'llash; *ikkinchi*, mehnat shartnomasida taraflar tomonidan uchinchi davlat yoki taraflarning shaxsiy qonuni sanalgan davlat huquqini qo'llash haqida oldindan kelishib olishi" [12, 156–163-b.].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar xalqaro xususiy mehnat munosabatlari raqamli xususiy mehnat munosabati sifatida namoyon bo'ladigan, degan g'oyani ilgari surishga asos bo'ladigan. Bularning barchasi, bizning fikrimizcha, xalqaro xususiy huquq doktrinasiga "virtual xalqaro xususiy mehnat munosabatlari" va "virtual xalqaro xususiy mehnat shartnomasi" konsepsiyasini kiritish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur konsepsiya doirasida raqamli xususiy mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi yangi kollizion bog'lovchilar tizimini ishlab chiqish zaruratini oldimizga qo'yimoqda.

### Material va metodlar

Virtual muhitning samaradorligi onlayn makonda xizmatlar ko'rsatish yoki ma'lum bir mahsulotlarni haq evaziga bajaradigan "raqamli ko'chmanchilar" degan nom bilan tanilayotgan mehnat migrantlari guruhining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Masalan, AQSHda kompyuter texnologiyalari bo'yicha ishlaydigan hindistonlik yoki xitoylik mutaxassislarning virtual mehnat bozori paydo bo'lishidan oldin immigrant sifatida AQSHga ko'chib ketishiga to'g'ri kelgan bo'lsa, raqamli texnologiyalar joriy qilinishi bilan virtual mehnat migrantlari sifatida mehnat faoliyatini virtual tarzda tashkil qilishga



o'tishgan. Ushbu jarayon ish beruvchilarga ham qulaylik va ish samaradorligini ta'minlayotganini qayd etish zarur.

Ayrim ilmiy adabiyotlarda internet orqali mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlar "tele-ishchi"lar deb nomlanib, ushbu onlayn mehnat faoliyatining samaradorligi, uning ishchilarning ruhiyatiga, ish beruvchilarning ish unumdorligiga ko'rsatadigan ta'siri, ushbu tizimdagi ishlarni tashkil qilishda gender tengligi masalalari, xodimlar huquqlari va ish vaqtini belgilashdagi muammolar bo'yicha so'nggi yillarda ko'plab olimlar (S. Kazekami [13, 101–104-b.], Y. Lott, A.K. Abendrot [14, 593–611-b.], A. Ollo-Lopez, S. Goni-Legaz [15, 745–749-b.], M. Heiden [16, 707–722-b.], S.H. Chong va boshqalar [17, 232–241-b.]) tomonidan tadqiqotlar o'tkazilgan.

Mazkur muhokama qilinayotgan onlayn mehnat munosabatlarini tashkil qilishni o'zida mujassam etgan "tele-ishchi" tushunchasi ilk bor fanga 1973-yilda Janubiy Kaliforniya universiteti tadqiqotchisi Jek Nilles tomonidan kiritilgan. Ushbu tadqiqotchining asosiy g'oyasi xodimlar uchun yanada moslashuvchan aloqa tizimini yaratish, transportga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish orqali an'anaviy ish joyini nomarkazlashtirish sanalgan [18].

Ushbu qarashlar boshqa olimlar tomonidan kengaytirilib, ushbu g'oya paydo bo'lganidan olti yil o'tib Massachusetts texnologiyalar universiteti olimi Marvin Minsky o'z tadqiqotida birinchi marotaba "tele-mavjudlik" (telecommuting) tushunchasini fanga kiritgan [19, 25–26-b.].

Olimlar mazkur tushunchani "odamlar jismonan yo'q bo'lgan muhitda o'z mavjudligini ko'rsatish uchun texnologiyalardan foydalanishlari mumkin bo'lgan hodisaga murojaat qilishini anglatishi"ni qayd etgan [20]. So'nggi yillarda ushbu tushuncha kengayib, olimlar "mobil ish", "uzoqdan ishlash", "masofadan turib ishlash", "tele-ishlash", "virtual ish" kabi so'zlarni fanga kiritgan [21, 128-b.].

2015-yilda "Eurofound" tomonidan o'tka-

zilgan tadqiqotlarda "axborot – kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan mobil ish" atamasi paydo bo'ldi. Ushbu yangi tushunchaga ko'ra, xodim umumiy maqsadga eltuvchi axborot resurs bazasiga ulangan holda o'z mehnat vazifalarini ish beruvchining ma'lum bir ish joyiga bog'lanmagan holda istalgan joyda bajarishi mumkin [22, 7–8-b.].

Pandemiya sharoitida keng ommalashgan virtual ish tizimi haqida yozar ekan, V.I. Miponov va M.V. Novikova: "Masofaviy mehnat faoliyati mehnat munosabatlariga nisbatan tatbiq qilinadigan umum e'tirof etilgan tuzilishni o'zgartirib yubordi. Ish beruvchi endi ish joylarining tashkilotchisi sifatida namoyon bo'lmaydi va u ish vaqti hamda dam olish vaqtini belgilab bermaydi. Agar masofaviy ishlash haqida mehnat shartnomalarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu holatlar ishchilarning o'zlari tomonidan amalga oshiriladi" [23, 36–40-b.].

Bularning barchasi fanda "virtual mehnat migratsiya" tushunchasi shakllanishiga turtki bo'ldi. Virtual mehnat migratsiyasi an'anaviy mehnat migratsiyasi singari ikki shaklda namoyon bo'ladi. Bular ichki virtual mehnat migratsiyasi va xalqaro xususiy virtual mehnat migratsiyasi.

Axborot texnologiyalari asosida mehnatni tashkil qilish bir davlat fuqarolarining boshqa davlatlar chegarasini jismonan kesib o'tmagan holda virtual ravishda ushbu ikkinchi davlat hududida mehnat qilishlari uchun keng imkoniyat yaratishi virtual mehnat migratsiyasining keng tarqalishiga turtki berdi.

Natijada xalqaro xususiy huquqda bugungi kunda mehnat munosabatlarini tartibga solishning yangi shakli bo'lgan "virtual mehnat migratsiyasi" tushunchasi shakllandi.

Bizningcha, *"virtual mehnat migratsiyasi bu – internet texnologiyalari vositasida bir davlat fuqarosi yoki doimiy ravishda yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxsning boshqa davlatda joylashgan ish beruvchining topshiriqlarini bajarishi yoki virtual xodim sifatida faoliyat yuritish natijasida mehnatga haq olish*

*shaklida namoyon bo'ladigan xalqaro xususiy-huquqiy munosabatdir*".

Gigonomikaga asoslangan internet platformalar orqali virtual mehnat migratsiyasi jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarni elektron onlayn platforma, mehnat migranti va ish beruvchi (topshiriq beruvchi) tashkil qiladi.

Yuqoridagi qarashlarga umumiy bo'lgan nuqta shuki, ish joyi, mehnat faoliyati qayerda joylashganidan qat'i nazar, xodim o'z vazifalarini bajarishi uchun kompyuter texnologiyalari internetga ulangan bo'lishi zarur.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Xalqaro xususiy huquq sohasidagi tadqiqotchilar va ekspertlar virtual mehnat migratsiyasining amalda mavjud bo'lgan an'anaviy kollizion-huquqiy tartibga solishni shaklan o'zgartirishga turtki bo'lishini qayd etadilar [24, 13–15-b.].

Ushbu fikrga to'liq qo'shilgan holda qayd etish zarurki, zamonaviy texnologiyalar xususiy-huquqiy munosabatlarning nafaqat son jihatdan oshishiga, balki ushbu munosabatlarning shaklan ham ko'payishiga turtki bo'lmoqda. Natijada bugungi kunda transmilliy xarakterdagi xususiy-huquqiy munosabatlar soni kengayib, ularga mehnat, oilaviy, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, korxonalarni bankrot deb topish kabilar qo'shildi.

Ushbu munosabatlarning raqamli texnologiyalar asosida yuz berishi xalqaro xususiy huquq oldiga yangi innovatsion kollizion bog'lovchilar tizimini ishlab chiqish ehtiyojini qo'ymoqda.

Virtual xususiy mehnat munosabatlari kollizion tartibga solish masalalariga S. Deakin va G.S. Morrislar tomonidan ham e'tibor qaratilib, "Transmilliy mehnat va kapital harakatchanligining o'sishi bilan mehnat huquqi sohasidagi turli huquqiy rejimlar o'rtasidagi mehnat munosabatlari kollizion tartibga solish dolzarbligini ko'rsata boshladi" [25, 118–125-b.], degan fikr ilgari surilgan.

L. Merrettning "Ishchi kuchi harakatchanligining oshishi, ko'p millatli kompaniyalar va korporativ guruhlarining ko'payishi, mehnat qonunchiligining xalqaro miqyosdagi ahamiyati uzluksiz o'sishiga olib keldi", [26, 11–15-b.] deb aytgan fikrlariga to'liq qo'shilish mumkin.

Transmilliy shaklda yuz beradigan mehnat munosabatlarining xalqaro xususiy huquq tomonidan tartibga solinish g'oyasi ilk bor amerikalik professor P.C. Jessupning "Transmilliy huquq" konsepsiyasida ilgari surilgan. Unga ko'ra, xalqaro xususiy-huquqiy munosabatlarda, jumladan, mehnat munosabatlarida ham davlat va yuridik shaxslar teng huquqiy maqomga egadir [27, 1–5-b.].

Xalqaro xususiy huquq doktrinasidan ma'lumki, tegishli munosabatlar xalqaro xususiy huquq qoidalari bilan tartibga solinishi uchun mehnat munosabatlari nafaqat xususiy huquq xarakteriga ega bo'lishi, balki chet el elementi bilan murakkablashgan bo'lishi zarur.

A. Svyantkovskiy qayd etganidek, ma'lum bir davlat hududi doirasida faqatgina milliy mehnat huquqi va ijtimoiy sug'urta tizimi amal qiladi [28, 13–14-b.]. Ushbu fikrga kelishiga sabab, davlatlarning mehnat huquqi hududiylik prinsipiga asosan amalga oshirilishi zarur.

Hududiylik prinsipiga asosan, agar mehnat munosabatlarining barcha elementlari faqat bitta davlat hududi bilan qamrab olingan bo'lsa, ish beruvchi, xodim va mehnat faoliyati bir davlat hududida bajarilsa, hech qanday xalqaro xususiy-huquqiy tartibga solish haqida so'z yuritilmasligi zarur [29, 17–27-b.]. Xalqaro xususiy tartibga solish zarurati chet el elementining mavjudligi bilan yuzaga keladi.

Xususiy-huquqiy tartibga solish va chet el elementi ishtirokini mehnat shartnomasi asosida aniqlash mumkin. Virtual shaklda yuz beradigan transmilliy mehnat munosabatlari xalqaro xususiy huquq bilan tartibga solinishi zarur, deb hisoblaymiz. Lekin bu bora-

da milliy qonunchilikda hech qanday norma mavjud emas.

Yevropa davlatlarida ushbu sohada xususiy-huquqiy normalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularda masofaviy mehnat transmilliy shaklda ro'y berishini tan oladilar. S.V. Shupalyova masofaviy bajariladigan mehnat shartnomasini chet el elementi bilan tuzish mumkinligi haqida o'z tadqiqotlarida qat'iy pozitsiyani ilgari surgan [12, 156–163-b.].

Ushbu sohadagi xalqaro huquqiy standartlarda ham bo'shliqlar borligini tan olish zarur. Y.A. Kovaleva bugungi kunda virtual mehnat migratsiyasi haqida so'z yuritishga hali erta ekanligini qayd etadi [30, 75–79-b.]. Bunga asos sifatida XMTning 1939-yildagi 97-sonli Migrantlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining 11-moddasida mehnat migranti – ishga joylashish va mehnat shartnomasini tuzish niyatida bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chib kelgan kishi, deb ta'rif berilganligini ko'rsatadi. 1939-yilda qabul qilingan XMT konvensiyasini ishlab chiquvchilar xuddi biz keyingi 100 yilda xalqaro xususiy huquqda qanday tub o'zgarishlarni taxmin qila olmagandek, bugungi kundagi mehnat bozori va axborot texnologiyalarida yuz bergan yangiliklarni tasavvur ham qila olmagan.

To'g'ri, XMTning 190 ga yaqin konvensiyalari va 200 dan ortiq tavsiyalarida virtual mehnat migrantlarini himoya qilish masalasida hech qaysi davlat zimmasiga majburiyatlar yuklatilmagan. Sababi, virtual mehnatmigrantlari tushunchasi va uning mazmuni bo'yicha nafaqat xalqaro hujjatlarda, balki ilmiy adabiyotlarda ham yakdil nuqtayi nazar mavjud emas.

XMTning 2008-yilgi Adolatli globallashtirish maqsadlari uchun ijtimoiy adolat to'g'risidagi deklaratsiyasida zamonaviy globallashtirish sharoitida yangi texnologiyalarning tarqalishi, fikrlar, tovarlar va xizmatlar almashinuvi, kapital va moliyaviy oqimlarning kengayishi, ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatining baynalmilallashtirish, shuningdek, odamlarning

ko'chishi, mehnat faoliyati sohasida dunyoda chuqur o'zgarishlar ro'y berishi qayd etilgan.

Lekin mazkur hujjatda axborot texnologiyalariga asoslangan virtual mehnat migratsiyasi, uni tartibga solish va mehnat migrantlarining iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarini himoya qilish bo'yicha hech qanday a'zo davlatlarga mas'uliyat yuklatilmagan. O'ylaymizki, yaqin yillarda XMT virtual mehnat migratsiyasi sohasida o'zining munosabati va huquqiy hujjatini taqdim etishi tabiiy zaruratga aylanadi.

Shu bois, bizningcha, Xalqaro migratsiya tashkiloti tomonidan Virtual mehnatkash migrantlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlatlar majburiyatlari to'g'risidagi tavsiyani ishlab chiqish va 1990-yilgi Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyaga virtual mehnat migrantlari, ularga adolatli mehnat sharoitlarini yaratish, ularni soliqqa tortish va ijtimoiy himoyasini ta'minlash bo'yicha davlatlar zimmasiga majburiyatlarni yuklashga qaratilgan normalarni kiritish taklif qilinadi.

O.V. Chesalinaning qayd etishicha, iqtisodiyot va mehnatni raqamlashtirish turli tendensiyalar paydo bo'lishiga yordam beradi. Bularga "korxona" tushunchasini qayta ko'rib chiqish; ish o'rinlarini avtomatlashtirish, robotlashtirish; ish joyida moslashuvchanlik va harakatchanlikni oshirish; mehnat platformalarining paydo bo'lishi; odamlar ishni xohlagan joydan va ish beruvchidan ko'p kilometr uzoqlikda bajarishi mumkin bo'lgan *"sayyoraviy mehnat bozori"* va *"virtual migratsiya"* konsepsiyalarining paydo bo'lishini keltirib o'tish mumkin" [31].

Virtual mehnat migratsiyasining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilar ekan, V.P. Sagitova quyidagi xulosaga kelgan: "Virtual professional munosabatlar sohasidagi asosiy kamchiliklardan biri qonunchilik bazasining zaif rivojlanganligidir" [32, 301–305-b.].

Masalaning ijobiy tarafi M. Kraich tomonidan o'rinli qayd etilgan: "Virtual mehnat migratsiyasiga asoslangan mehnat munosa-

batlari nogironligi sababli o'z qobiliyatlarini namoyon eta olmayotgan yoki yetarlicha daromad topa olmayotgan shaxslarni ham ish bilan ta'minlashga, ularning moddiy ta'minotini yaxshilashga xizmat qiladi" [33, 5–15-b.].

Virtual mehnat migratsiyasining asosiy ijobiy jihatlariga aholi bandligini oshirish, ishga qabul qilish xarajatlarini kamaytirish, energiya, ekologiya va transport xarajatlarini qisqartirish orqali ushbu sohadagi muammolarni yumshatish, masofadan turib ish o'rinlari yaratish va soliq to'lovchilar sonini ko'paytirish orqali soliq tushumlarini oshirish va boshqalarni keltirib o'tish mumkin.

Adabiyotlarda mehnat faoliyatini virtual tarzda tashkil qilishning salbiy jihatlar ham ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular sirasiga quyidagilar keltirib o'tiladi: hamkasblardan uzoqligi tufayli xodimlarning ruhiy holati yomonlashuvi (ijtimoiy va kasbiy izolyatsiya muammosi, shuningdek, korporativ madaniyat va tashkilotdagi jamoaviy ruhiyatning pasayishi) [34, 239–250-b.]; masofaviy ishchilar ustidan nazoratning yo'qligi (ularning ish yuki darajasi, tijorat sirlarini oshkor qilish imkoniyati va boshqalar); shaxsiy va maxfiy ma'lumotlarni saqlash; mehnat sharoitlarini ta'minlash va xodimlar huquqlarini himoya


qilish sohasida ish beruvchining javobgarligini ta'minlash imkoniyatining kamligi [35, 208–210-b.].

So'nggi yillarda virtual migratsiyaning keng tarqalishi uning quyidagi modellarini ajratib ko'rsatish imkoniyatini beradi:

*Birinchi model* – jahon iqtisodiy integratsiyasi jarayonlarining natijasi bir necha mamlakatda ishlab chiqarish bo'linmalariga ega bo'lgan transmilliy korporatsiyalarning paydo bo'lishiga turtki berdi (1-rasm). "Google", "Microsoft" transmilliy kompaniyalarining o'ziyoq ularning iqtisodiy qudrati va qamrab olgan davlatlarining hajmidan dalolat beradi [36, 74–75-b.].

Shunday yirik kompaniyalar o'z saflariga yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish maqsadida turli davlatlarda kichik korxonalarini tashkil qilib, ushbu korxonalarga o'sha davlatlardagi fuqarolarni ishga oladilar.

Lekin ish beruvchi sifatida yirik kompaniya ofisi joylashgan boshqa davlatdagi yuridik shaxs namoyon bo'ladi. Bu yerda yashirin mehnat migratsiyasi elementlari mavjud. Ushbu modelda bosh kompaniya o'z buyurtmalarini boshqa davlat fuqarolariga kichik ofislari orqali elektron shaklda bajartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.




**1-rasm. Birinchi model**

*Ikkinchi model* – xorijiy ish beruvchi bilan ishini masofadan turib bajarish bo'yicha mehnat shartnomasi tuziladi (2-rasm). Aynan mehnat shartnomasini tuzish va uning shartlarini to'g'ri rasmiylashtirish – virtual mehnat migrantining ijtimoiy himoyasini kafolatlovchi huquqiy vosita sanaladi.

Afsuski, ikkinchi shaklda virtual mehnat migratsiyasini tashkil etish bo'yicha milliy qonunchilikda yetarlicha huquqiy normalar mavjud emas. Xalqaro darajada ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik haqida gapirishga hali erta. Chunki xalqaro hujjatlarda ushbu fenomen umuman nazarda tutilmagan.






**2-rasm. Ikkinchi model**

*Uchinchi model* – chet el kompaniyasi bilan fuqarolik shartnomalari bo'yicha ishlar bajariladi (3-rasm). Bunga haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari, xodimlar outsorsingi, frilanser kabilarni kiritish

mumkin. Ushbu modelda mehnat migranti va uning ijtimoiy himoyasi haqida umuman gapirish imkoni yo'q, chunki bunday shartnomalar ushbu kafolatlarni nazarda tutmaydi.



**3-rasm. Uchinchi model**

### Xulosalar

Virtual mehnat munosabatlari haqida o'tkazilgan yuqoridagi tahlillar, ushbu fenomenning an'anaviy mehnat munosabatlaridan quyidagi asosiy farqlarini ajratish imkonini beradi:

*Birinchi*, mehnat munosabatlari subyektlari o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha o'zaro tushunish, hamkorlik xarakterini kasb etadi. Xodimning faoliyati ko'pincha ish beruvchidan uzoqda amalga oshiriladi, xodim o'z ishini mustaqil ravishda tashkil qiladi, ish beruvchining nazorati deyarli sezilmaydi.

*Ikkinchi*, xodim o'z ish vaqtini erkin tasarruf etadi; ish vaqtini kundalik hayotga moslashtirishi mumkin.

Ish vaqtining davomiyligi va tartibi ish hajmidan kelib chiqqan holda xodim tomonidan mustaqil belgilanadi;

*Uchinchi*, xodimga mehnat muhofazasi va adolatli mehnat sharoitlarini ta'minlash imkoniyati yo'q bo'ladi;

*To'rtinchi*, virtual mehnat migranti sifatida xorijiy davlatda mehnat qilgan shaxs, mehnat qilayotgan davlatning ijtimoiy hi-

moyasi va muhofazasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda virtual mehnat migrantlarini quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

doimiy ravishda ofisdan masofada turib kompyuter va turli telekommunikatsiyalar yordamida ish olib boradigan shaxslar;

shaxsiy kompyuterlar va turli telekommunikatsiyalar yordamida ofisdan masofadan turib ma'lum bir topshiriqlarni bajarayotgan shaxslar. Bularga frilanserlar kiradi;

an'anaviy sanoat sharoitida ishlaydigan, lekin ba'zida qo'shimcha ishlarni bajaradigan, qo'shimcha ishlarni bajarishda ish vaqtining ko'p qismini ofisdan uzoqda turib, AKT yordamida amalga oshiradigan xodimlar.

Milliy qonunchilikka mehnat munosabatlarini virtual tarzda tashkil qilish instituti koronavirus pandemiyasi davrida kirib keldi. O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2020-yil 25-martdagi 9-2020/B-son buyrug'i bilan "Karantinga oid choralar amal qilish davrida xodimlarni masofaviy ish usulida, moslashu-

vchan ish grafigida yoki uyda ishlashga o'tkazishning vaqtinchalik tartibi to'g'risida"gi nizom [37] (keyingi o'rinlarda – nizom) (ro'y-xat raqami 3228) tasdiqlandi.

Lekin milliy Mehnat kodeksida nafaqat chet el fuqarolari mehnatini tartibga solishning xususiyatlari, unga nisbatan qo'llanadigan kollizion normalar tizimi mavjud emas, balki O'zbekiston fuqarolari bilan masofaviy mehnat munosabatlarini tartibga solishning umumiy qoidalari ham mustahkamlanmagan.

Qayd etilgan nizomning 3-bandiga ko'ra, "masofadan ish deganda, xodimning mehnat shartnomasida ko'rsatilgan mehnat majburiyatlarini ish beruvchining joylashgan hududidan tashqarida bevosita yoki bilvosita nazoratida bo'lgan doimiy ish joyi, hudud yoki obyektidan tashqarida bajariladigan ish usuli tushuniladi" [38].

Mazkur nizom qoidalarida chet el fuqarolariga yoki chet elda ishlash uchun tatbiq qilinishi haqida hech qanday norma mavjud emas. Bundan tashqari, chet el davlatlarida yoki chet el fuqarolarining O'zbekiston hududida masofaviy tarzda mehnat faoliyatini tashkil qilishni tartibga soluvchi, chet el elementi ishtirokida virtual mehnat munosabatlarini tuzishga ruxsat beruvchi yoki taqiqlovchi qoidalar Mehnat kodeksida belgilab berilmagan.

Yuqoridagi nizomda ko'zga tashlangan yana bir muhim qoida uning 8–9-bandlarida ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, "xodim ish vaqtining davomiyligi va tartibini ishlab chiqarish topshirig'ining hajmi va mehnat shartnomasida ko'rsatilgan boshqa shartlardan kelib chiqqan holda mustaqil belgilaydi.

Masofaviy ishda ishlovchi xodim ish vaqtini o'z xohishiga ko'ra taqsimlashini hisobga olgan holda u tomonidan bajarilgan ishlar uchun bir baravar miqdorda mehnat haqi to'lanadi. Bunda xodimga nisbatan ish vaqtidan tashqari ish, dam olish va bayram kunlaridagi ish, shuningdek, tungi vaqtdagi ish uchun mehnatga haq to'lash shartlari qo'llanmaydi".

Mehnat kodeksida virtual mehnat munosabatlari va virtual mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan maxsus qoidalar mavjud emas. Shu bois ushbu huquqiy asoslarni joriy qilish maqsadida unga "Virtual xalqaro xususiy mehnat munosabatlarini tartibga solishning o'ziga xosligi" deb nomlangan bobni qabul qilish taklif qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi-ning jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar deb nomlangan 393-moddasida deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan dapomadlari kirishi belgilangan.

Demak, soliq qonunchiligi virtual shaklda xorijiy davlatlarda topilgan daromadlarga soliq solinishini ma'lum qilgan holda ushbu faoliyatning qonuniy ekanligini tasdiqlab bermoqda.

Virtual mehnat migratsiyasining an'anaviy mehnat migratsiyasidan farqi shundaki, ushbu yangi fenomenda xalqaro xususiy mehnat munosabatlari mehnat migrantining boshqa davlat hududini kesib o'tishi faqat raqamli shifrlangan kodlar tarzida, ya'ni elektron tarzda yuz beradi.

Bundan tashqari, virtual mehnat munosabatlariga nisbatan tatbiq qilinadigan kollizion bog'lovchilar tizimi, uning tuzilishi masalasi ham xalqaro xususiy huquq fanining yaqin va uzoq yillarda hal qilish zarur bo'lgan ilmiy muammosi sanaladi. O'zbekiston Respublikasi milliy mehnat qonunchiligi nafaqat virtual mehnat munosabatlari, balki an'anaviy tarzda tashkil qilinadigan xalqaro xususiy mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi kollizion normalar tizimini nazarda tutmagan.

Mehnat kodeksi faqat hududiylik prinsipi-ga rioya qilishini e'lon qilgan holda 11-moddada "Mehnati to'g'risidagi qonunchilik ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi

bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida ishlayotgan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham tatbiq etiladi" [40] deb belgilangan. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu normada an'anaviy xalqaro xususiy mehnat munosabatlari, virtual mehnat munosabatlariga oid qoidalar mavjud emas. Hatto virtual tarzda tashkil qilinadigan xalqaro xususiy-huquqiy mehnat munosabatlarini tartibga solish masalalari doktrinal darajada ham ishlab chiqilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi-ga "Virtual xalqaro xususiy mehnat munosabatlarini tartibga solishning o'ziga xosligi" deb nomlangan paragrafni qabul qilish taklif etiladi. Unda virtual mehnat munosabatlari tushunchasi, uning subyektlari, virtual mehnat munosabatlarida mehnat muhofazasi va ish rejimini ta'minlash, mehnat shartnomasi va unga qo'yilgan talablar, mehnat shartnomasini bekor qilish masalalari, xodimlar huquqlarini himoya qilish, xalqaro xususiy mehnat munosabatlarini tartibga solishning o'ziga xosligi kabi masalalar kiritilishi maqsadga muvofiq.

Bizningcha, virtual mehnat munosabatlarini xalqaro xususiy-huquqiy tartibga solishning quyidagi shakllarini qo'llash mumkin:

- *birinchi*, virtual mehnat bozori, bir tomondan, davlatlar o'rtasida bandlikni ta'minlash bo'yicha mavjud institutsional to'siqlarni olib tashlashga va chegaralarni kengaytirish-

ga imkon bersa, boshqa tomondan, mehnat migrantlariga kasbiy va shaxsiy o'sish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi;

- *ikkinchi*, an'anaviy xalqaro xususiy mehnat munosabatlarida ish bajarilayotgan mamlakat yoki ish beruvchining shaxsiy qonuni bo'lgan davlat huquqiga urg'u beriladi. Bunga sabab xodimning boshqa davlat hududiga ko'chib o'tishi va u yerga moslashuvi hamda huquqlarini himoya qilish zarurati bilan bog'liq. Bizningcha, virtual mehnat munosabatlarini xalqaro xususiy-huquqiy tartibga solishda xodim joylashgan davlat huquqiga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq;

- *uchinchi*, virtual mehnat munosabatlarini tartibga solishning ikkinchi usuli sifatida davlatlararo xalqaro ikki tomonlama yoki mintaqaviy ko'p taraflama shartnomalarda ushbu munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutish;

- *to'rtinchi*, yana bir tartibga solish usuli sifatida taraflarning erkinligi kollizion prinsip asosida mehnat shartnomasida o'zaro kelishgan holda qo'llanadigan huquqni belgilash mumkin;

- *beshinchi*, tashqi savdo shartnomalarini virtual tarzda tuzish bilan bog'liq munosabatlarda qo'llash taklif qilinayotgan server joylashgan davlat huquqi prinsipi yoki "*lex electronica (informatica)*" kollizion bog'lovchisi orqali virtual mehnat munosabatlarini tartibga solish.

## REFERENCES

1. Population Division. United Nations. Available at: <https://www.un.org/development/desa/pd/>.
2. Chulanova O.L. Aktualizatsiya ekonomiki svobodnoy zanyatosti (gigonomiki) – trenda tsifrovoy globalizatsii v usloviyakh pandemii COVID-19 [Updating the economy of free employment (gigonomics) - the trend of digital globalization in the context of the COVID-19 pandemic]. *Jurnal issledovaniy po upravleniyu – Journal of Management Studies*, 2020, no. 3, pp. 3–22.
3. Rise of Online Work Captured in the First Online Labour Index. University of Oxford. 21.09.2016. Available at: <http://www.ox.ac.uk/news/2016-09-21-rise-online-work-captured-first-online-labourindex/> (accessed 15.09.2022).
4. Sagitova V.R. Virtual labor migration: conflict-generating factors. *Nauka. Obshchestvo. Oborona – Science. Society. Defense*, Moscow, 2020, vol. 8 (2), p. 20. DOI: 10.24411/2311-1763-2020-10240/.

5. Duggan J., Sherman U., Carbery R., McDonnell A. Algorithmic management and app-work in the gig economy: A research agenda for employment relations and HRM. *Human Resource Management Journal*, 2020, pp. 114–132. DOI: 10.1111/1748-8583.12258/.
6. Digital labour platforms and the future of work: Towards decent work in the online world. Geneva, International Labour Office, 2018, 165 p. ISBN: 978-92-2-031024-3. Available at: [www.ilo.org/](http://www.ilo.org/).
7. Aneesh A. Virtual migration: the programming of globalization. Durham, Duke Univ. Press, 2006, 208 p.
8. Laridus L.V., Polyakova Yu.M. Gigonomika kak novaya sotsial'no-ekonomicheskaya model': razvitiye frilansinga i kraudsorsinga [Gygonomics as a new socio-economic model: the development of freelancing and crowdsourcing]. *Vestnik Instituta ekonomiki Rossiyskoy akademii nauk – Bulletin of the Institute of Economics of the Russian Academy of Sciences*, 2018, no. 6, pp. 73–90.
9. Rusakova T.B. Sushhnost' i napravleniya razvitiya virtualnogo rynka truda v Rossiyskoy Federatsii [The essence and directions of development of the virtual labor market in the Russian Federation]. *Nauchno-texnicheskiye vedomosti SPbGPU. Ekonomicheskkiye nauki – Scientific and technical statements of St. Petersburg State Pedagogical University. Economic Sciences*, 2019, no. 5, pp. 44–57.
10. Douglas H. The next best thing to teleportation. BBC Future Now, 2017, January 13. Available at: <https://www.bbc.com/future/article/20170113-the-next-best-thing-to-teleportation/>.
11. Schultz D. New York state constitutional law: trends and developments: State Taxation of Interstate Commuters: Constitutional Doctrine in Search of Empirical Analysis. *Touro Law Review*, 2000, vol. 16, no. 435.
12. Shuraleva S.V. Regulirovaniye distantsionnoy raboty s inostrannym elementom v epokhu globalizatsii: vzglyad s pozitsiy trudovogo prava Rossii [Regulation of remote work with a foreign element in the era of globalization: a view from the positions of Russian labor law]. *Vestnik Permskogo universiteta. Yuridicheskkiye nauki – Bulletin of the Perm University. Legal Sciences*, 2014, pp. 156–163.
13. Kazekami S. Mechanisms to improve labor productivity by performing telework. *Telecommunications Policy*, 2020, no. 2. pp. 101–868.
14. Lott Y., Abendroth A. K. The non-use of telework in an ideal worker culture: why women perceive more cultural barriers. *Community, Work & Family*. 2020, no. 5, pp. 593–611.
15. Ollo-López A., Goñi-Legaz S., Erro-Garcés A. Home-based telework: usefulness and facilitators. *International Journal of Manpower*, 2020.
16. Heiden M. et al. Telework in academia: associations with health and well-being among staff. *Higher Education*, 2021, no. 4. pp. 707–722.
17. Chong S.H., Huang Y., Chang C. H.D. Supporting interdependent telework employees: A moderated-mediation model linking daily COVID-19 task setbacks to next-day work withdrawal. *Journal of Applied Psychology*, 2020.
18. Biography of Jack Nilles. *JALA Int'l.*, 2011. Available at: <http://www.jala.com/jnmbio.php/> (accessed 05.09.2022).
19. Minsky M. Telepresence. 1980, pp. 25–26.
20. IJsselsteijn W.A. History of telepresence. 3D Communication: Algorithms, concepts and real-time systems in human centred communication. Chichester, John Wiley & Sons, 2005.
21. Vasilyeva Yu.V., Shuraleva S.V., Braun Ye.A. Pravovoye regulirovaniye distantsionnoy raboty: problemy teorii i praktiki [Legal regulation of distant work: problems of theory and practice]. Perm, 2016, 128 p.
22. New forms of employment. Eurofound. Luxembourg, Publications Office of the European Union, 2015, pp. 7–8. Available at: <https://www.eurofound.europa.eu/publications/report/2015/working-conditions-labour-market/new-forms-of-employment/> (accessed 01.07.2020).
23. Mironov V.I., Novikova M.V. Distantsionnaya rabota kak yavleniye na rossiyskom rynke truda: differentsiatsiya i diskriminatsiya [Remote work as a phenomenon in the Russian labor market: differentiation and discrimination]. Part 1. *Trudovoye pravo v Rossii i za rubezhom – Labor law in Russia and Abroad*, 2019, pp. 36–40.



24. Vedernikova L.A. Trudovyye otnosheniya kak predmet mezhdunarodnogo chastnogo prava [Labor relations as a subject of private international law]. *Jurnal mezhdunarodnogo prava i mezhdunarodnykh otnosheniy – Journal of International Law and International Relations*, 2019, no. 1-2, p. 13.
25. Adams Z. et al. Deakin and Morris' Labour Law. Bloomsbury Publ., 2021, p. 118.
26. Merrett L. Employment contracts in private international law. Oxford University Press, 2011, pp. 11–15.
27. Jessup P. C. The concept of transnational law: An introduction. *Colum. Transnat'l L.*, 1963, p. 1.
28. Swiatkowski A. M. European Union Private International Labour Law. Bia lystok, Jagiellonian University Press, 2012, p. 13.
29. Baturyan M. A., Stepanyan Ye. Problematika trudovykh otnosheniy v mezhdunarodnom chastnom prave [Problems of labor relations in private international law]. *Epomen*, 2020, no. 42. pp. 17–27.
30. Kovaleva Ye.A. Distansionnyy trud migrantov [Distant labor migrantov]. 2021.
31. Chesalina O.V. Posledstviya tsifrovoy transformatsii dlya sfery truda i yee pravovogo regulirovaniya [Consequences of digital transformation for the world of work and its legal regulation].
32. Sagitova V.R. Virtualnaya trudovaya migratsiya: konfliktogennye faktory [Virtual labour migration: conflict factors]. 2020, no. 2. Available at: <https://www.noo-journal.ru/nauka-obshestvooborona/>.
33. Kraich M. The Chilling Realities of the Telecommuting Tax: Adapting Twentieth Century Policies for Twenty-First Century Technologies. *University of Pittsburgh Journal of Technology Law & Policy*. 2015, vol. 15, no. 224. Available at: <https://advance.lexis.com/api/document?collection=analyticalmaterials&id=urn:contentItem:5KDX-HWN0-0198-F0HV-00000-00&context=151683/> (accessed 11.04.2021).
34. Zayseva L.V., Abakumova O.A. Virtualnaya mobilnost' i transgranichnaya distansionnaya rabota: nastupivshaya realnost' i pravovaya neopredelennost' [Virtual Mobility and Cross-Border Teleworking: The New Reality and Legal Uncertainty]. *Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta – Bulletin of Tomsk State University*, 2021, no. 464, pp. 239–250.
35. Kovalenko E.V., Rozentsvaig A.I., Bakhteeva E.I., Soshnikova I.V., Sherpaev V.I., Novikova Y.A. The development of remote workers with disability for entrepreneurship system. *Journal of Entrepreneurship Education*, 2020. Available at: <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn:contentItem:5YM5-F1T1-JCBJ-K0DV-00000-00&context=1516831/> (accessed 11.10.2022).
36. Kovalyova Ye.A. Virtualnaya migratsiya [Virtual Migration]. 2020, pp. 74–75.
37. Sizova I.L., Xusyainov T.M. Trud i zanyatost' v tsifrovoy ekonomike: problemy rossiyskogo rynka truda [Labor and Employment in the Digital Economy: Problems of the Russian Labor Market]. *Vestnik SpbGU – Bulletin of St. Petersburg State University*, 2017, no. 4, pp. 376–396.
38. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi [Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan]. 1996, no. 1.
39. World migration report. Available at: <https://worldmigrationreport.iom.int/wmr-2020-interactive/>.
40. Johnson B.D. Comment: there's no place like work: how modern technology is changing the judiciary's approach to work-at-home arrangements as an ada accommodation. *University of Richmond Law Review*, 2015, vol. 49, no. 1229. Available at: <https://advance.lexis.com/api/document?collection=analytical-materials&id=urn:contentItem:5FY5-09B0-00CV-R17D-00000-00&context=1516831/> (accessed 06.06.2021).

UDC: 347.78(045)(575.1)

## MUALLIFLIK HUQUQLARINI JAMOAVIY BOSHQARISHNING HIMOYA QILISH OBYEKTI: SUN'IY INTELLEKT VA MUALLIFLIK HUQUQI O'RTASIDAGI MUAMMOLAR

**Yakubova Iroda Bahramovna,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Intellectual mulk huquqi kafedrası dotsenti,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
ORCID: 0000-0003-0151-1921  
e-mail: i.yakubova@tsul.uz

**Annotatsiya.** Mavzu doirasida yangi, yuqori texnologiyali sohalarida nafaqat mualliflar – mualliflar jamiyati a'zolari, balki boshqa barcha mualliflar, shu jumladan, noma'lum mualliflarga nisbatan ham amalga oshiriladigan butunlay boshqa turdagi jamoaviy boshqaruvga ehtiyoj borligi va uning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, mavzuning asosiy obyekti sifatida mantiqiy va ijodiy funksiyalarni bajaradigan sun'iy intellekt tizimi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Sun'iy intellekt hozirgi axborot asrida juda dolzarb bo'lib, uning yordamida insoniyat ilm-fanda yangi imkoniyatlar ochib, XXI asrning global muammolariga yechim topmoqda. Bundan tashqari, SI tibbiyot, ta'lim, energetika, qishloq xo'jaligi, shaharsozlik va boshqa barcha sohalarida sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatini oshirmoqda. Shu bilan birga, mualliflik huquqi doirasida huquq egalari jamoaviy boshqaruv tashkilotlari tomonidan berilgan vakolatlar asosida o'z nomidan asarlar (mualliflik va turdosh huquqlar obyektlari)dan foydalanadigan shaxslar bilan shartnomalar tuzishi, mualliflik huquqi egalariga to'lovlarni yig'ish, tarqatish va to'lash masalalari ham atroflicha o'rganilgan. Ushbu institutni takomillashtirish bilan bog'liq ayrim dolzarb muammolar, mualliflik huquqini himoya qilishning xalqaro standartlari va milliy qonunchilikning qiyosiy-huquqiy tahlili, shuningdek, O'zbekiston va boshqa mamlakatlar olimlarining fikrlariga e'tibor qaratilgan. Mualliflik huquqini rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif hamda tavsiyalar ilgari surildi.

**Kalit so'zlar:** mualliflik huquqi, huquq egalari, sun'iy intellekt, mualliflik shartnomalari, mualliflik haqi, jamoaviy boshqarish, adabiy, badiiy va san'at asarlari, asl nusxalar, asarlardan foydalanish, ijro etish, nashr etish, to'lovlarni yig'ish, to'lovlarni tarqatish, to'lovlarni to'lash, kengaytirilgan jamoaviy boshqarish.

### ОБЪЕКТ ЗАЩИТЫ КОЛЛЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ АВТОРСКИМ ПРАВОМ: ВОПРОСЫ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И АВТОРСКОГО ПРАВА

**Якубова Ирода Бахрамовна,**  
доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
доцент кафедры «Право интеллектуальной собственности»  
Ташкентского государственного юридического университета

В ряде случаев основанием для применения срока исковой давности и отказа в восстановлении срока является недостаточная доказанность факта того, что участник действительно не мог знать наличие того или иного решения. К примеру, при рассмотрении дела

№ 4-11-2004/52, возбужденного по исковому заявлению ИП ООО Golden Baby к Ким Раисе Еншуевне о признании протокола общего собрания ООО Tonmen от 29 июня 2015 года за № 5 недействительным, исковые требования в удовлетворении отказаны, так как истцом пропущен двухмесячный срок исковой давности, предусмотренный статьей 41 закона. Как усматривается из искового заявления, в повестку дня общего собрания были включены такие вопросы: представление отчета о финансово-хозяйственной деятельности общества за прошлые года, принятие решения по результатам годовой деятельности общества; распределение прибыли (части прибыли). Истец, ссылаясь на то, что не знал о наличии данного решения в течение пяти лет, обратился в суд с требованием о признании данного решения недействительным. Однако суд посчитал данный довод необоснованным, основываясь на статье 31 закона, где указывается, что очередное общее собрание участников общества проводится в сроки, определенные уставом общества, но не реже чем один раз в год. Очередное общее собрание участников общества созывается исполнительным органом общества. Уставом общества должен быть определен срок проведения очередного общего собрания участников общества, на котором утверждаются годовые результаты деятельности общества. Указанное общее собрание участников общества должно проводиться не позднее чем через шесть месяцев после окончания финансового года. То есть истец как владелец 32 % доли в ООО не мог не знать, что очередное общее собрание участников общества должно проводиться не реже чем один раз в год.

Обсуждая вопросы применения сроков исковой давности, считаем, что в правовые акты следует включить норму, устанавливающую, что срок исковой давности

не распространяется на ничтожные решения участников общего собрания. Например, статью 163 Гражданского кодекса можно дополнить абзацем следующего содержания: «требования о признании ничтожным решения общего собрания». Поскольку, в случае обращения ответчика с заявлением о применении срока исковой давности по иску о признании недействительным ничтожного решения общего собрания, и если судом будет установлено, что двухмесячный срок истек и не подлежит восстановлению, суд вынесет решение об отказе в удовлетворении иска. Это создает впечатление, что ничтожное решение может считаться законным и может быть препятствием в восстановлении нарушенного права.

Несмотря на то, что нормы о ничтожности и оспариваемости решений в законодательстве отсутствуют, в практике судов имеют место случаи отказа в удовлетворении заявлений ответчиков о применении срока исковой давности по искам о признании недействительными ничтожных решений общего собрания, и некоторые из этих дел также были пересмотрены в Верховном суде и оставлены без изменений.

В случае если отсутствует возможность неприменения срока исковой давности, необходимо исключить сокращенной срок исковой давности о признании недействительным ничтожного решения общего собрания и применить хотя бы установленный трехлетний срок давности, то есть должны быть введены различные процессуальные сроки для признания спорных и ничтожных решений недействительными, исходя из их особенностей. Например, согласно статье 181.4 Гражданского кодекса Российской Федерации, решение собрания может быть оспорено в суде в течение шести месяцев со дня, когда лицо, права которого нарушены принятием решения, узнало или

должно было узнать об этом, но не позднее чем в течение двух лет со дня, когда сведения о принятом решении стали общедоступными для участников соответствующего гражданско-правового сообщества. Кроме того, принимая во внимание наличие разных сроков и исходя из особенностей, следует также определить и порядок их исчисления.

*Рассмотрение исков о признании недействительным решения общего собрания альтернативными институтами разрешения споров*

Существуют противоречивые мнения о подведомственности корпоративных споров, в том числе исков о решениях органов управления юридических лиц. Одни правоведы подчеркивают, что дела данной категории подведомственны экономическим судам и должны рассматриваться исключительно этими судами, в то время как другие утверждают, что данные дела могут быть разрешены также и в третейских (арбитражных) судах. Спорные мнения на эту тему также были в центре внимания узкого круга участников «Арбитражной недели», прошедшей в Ташкенте в октябре 2022 года. В немецком законодательстве четко не определена юрисдикция суда в отношении спора относительно решения общего собрания. В связи с этим решение Верховного суда ФРГ от 6 апреля 2009 года (Schiedsfähigkeit II) предусматривало, что спор о недействительности решения общего собрания может быть предметом арбитражного разбирательства [19] и поставило точку в острой полемике в этом отношении.

Статьей 225.1 Арбитражного процессуального кодекса Российской Федерации установлено, что споры по решениям органов управления юридического лица могут рассматриваться в третейских судах. На наш взгляд, иски о признании недействительными решений общего собрания

участников общества могут быть рассмотрены не только в экономическом суде, но и в негосударственных судах. Согласно статье 9 Закона Республики Узбекистан «О третейских судах», третейские суды не разрешают споры, вытекающие из административных, семейных и трудовых правоотношений, а также иные споры, предусмотренные законом. То есть не наблюдается законодательного ограничения в третейском рассмотрении требований о признании недействительным решений органов управления. Для того чтобы признать третейский суд компетентным рассматривать дела данной категории, необходимо установить следующие условия: подведомственность спора третейскому суду должна быть прямо предусмотрена в учредительных документах общества, а также третейский суд должен быть постоянно действующим судом. Однако данное соглашение не должно препятствовать в рассмотрении спора экономическим судом, за исключением случаев, предусмотренных в законодательстве.

*Некоторые замечания, направленные на устранение допущенных судьями недостатков и обстоятельств, выявленных по итогам изучения данной категории дел*

1. Являясь формой корпоративных правоотношений, спор о признании недействительным решения общего собрания затрагивает интересы нескольких лиц, поэтому такие требования обычно предъявляются в суд в форме совместного (коллективного) иска. Преимущество такого иска состоит в том, что, с одной стороны, он облегчает определение круга заинтересованных лиц, а с другой стороны, служит уменьшению расходов на судебные издержки для обратившихся в суд (к примеру, дешевле заплатить 10-кратный размер БРВ двумя или более соистцами, чем одним истцом).

К рассмотрению данной категории дел в суде должны быть привлечены все



участники общества, так как решение суда прямо или косвенно затрагивает права участников, как принимавших, так и не принимавших участие в голосовании. Несоблюдение этого требования является основанием для отмены судебного акта и направления дела в суд первой инстанции на новое рассмотрение. Например, в Законе об акционерных обществах Германии (§ 248, 249) также имеется общее правило, предусматривающее, что в случае если решение общего собрания объявлено ничтожным по решению суда, вступившему в законную силу, то это судебное решение действует в пользу и против всех акционеров, а также членов правления и наблюдательного совета, даже если они не являются стороной по делу.

Согласно статье 181.4 Гражданского кодекса Российской Федерации, лицо, оспаривающее решение собрания, должно уведомить в письменной форме заблаговременно участников соответствующего гражданско-правового сообщества о намерении обратиться с таким иском в суд и предоставить им иную информацию, имеющую отношение к делу. Участники соответствующего гражданско-правового сообщества, не присоединившиеся в порядке, установленном процессуальным законодательством, к такому иску, в том числе имеющие иные основания для оспаривания данного решения, в последующем не вправе обращаться в суд с требованиями об оспаривании данного решения, если только суд не признает причины этого обращения уважительными. На наш взгляд, включение данной нормы в Гражданский кодекс послужит разрешению дел данной категории в судебном порядке в кратчайшие сроки и предотвращению неправильного применения норм законодательства.

2. Признание решения общего собрания недействительным является неимущественным требованием. В связи с этим при подаче заявления о признании реше-

ния общего собрания недействительным оплачивается государственная пошлина в размере 10-кратного размера БРВ на дату подачи иска в суд. При этом государственная пошлина уплачивается пропорционально количеству отдельно за каждое решение.

3. Ответчиком по искам о недействительности решения общего собрания является само общество, а не орган управления, так как последний не может быть субъектом гражданских правоотношений. Например, статья 42 немецкого Закона (GmbH) прямо предусматривает, что требование о признании решения недействительным может быть предъявлено только обществу. При этом, если в качестве ответчика в иске указан конкретный орган управления, в иске должно быть отказано в принятии к производству, а в случае принятия иска в последующем производство по делу должно быть прекращено. В пункте 17 Постановления Пленума разъяснено, что предъявления иска к органу управления является основанием для замены ответчика в порядке, установленном статьей 45 ЭПК.

Согласно статье 45 ЭПК, суд, установив, что иск предъявлен не к тому лицу, которое должно отвечать по иску, может до принятия решения с согласия истца допустить замену ненадлежащего ответчика надлежащим ответчиком. По нашему мнению, для замены ответчика, прежде всего, необходимо определить может ли это лицо иметь статус ответчика в суде, то есть обладать дееспособностью. В связи с этим данное пояснение в пункте 17 Постановления Пленума следует исключить.

4. Необходимо отметить, что при рассмотрении требования о признании решения недействительным отсутствует оригинал данного документа, либо имеются два оригинала, отличающихся друг от друга, и, исходя из относительности и допустимости доказательств, не име-

ется возможности определить, какой из двух решений является действительным, то данное требование подлежит отказу в удовлетворении, за исключением, когда имеются доказательства указывающие, что решение подделано или сфальсифицировано.

### **Выводы**

Таким образом, необходимо отметить, что для обеспечения развития корпоративных правоотношений, укрепления материальной и процессуальной правовой базы способа судебной защиты корпоративных прав, связанных с признанием недействительным решения общего собрания, необходимо изучить международный опыт и последовательно имплементировать его в национальное законодательство.

*Проведенное исследование в данной научной статье позволяет сделать следующие выводы:*

1. Решение общего собрания является юридическим фактом, созданным волеизъявлением участников общества, так как его последствием является возникновение, изменение или прекращение правоотношений, в частности и корпоративных. Оно не является сделкой, а нормы, относящиеся к сделкам, не могут применяться к данным категориям дел.

2. Участник, проголосовавший за принятие решения на общем собрании участников общества либо воздержавшийся при голосовании по вопросу повестки дня, даже если это не предусмотрено законом, также вправе обратиться в суд с заявлением о признании решения общего собрания недействительным. При этом основанием будет являться то, что воля участника к голосованию была нарушена, отсутствовала возможность волеизъявления, участник проголосовал под влиянием обмана, принуждения или запугивания.

3. При рассмотрении дел по требованиям о признании решения органа управления недействительным по иску участника обще-

ства, не принимавшего участия в собрании, необходимо установить причину отсутствия участника на собрании, то есть предоставить возможность обжаловать решение лицу только в том случае, если оно действительно доказало, что не принимало участие в собрании по уважительным причинам.

4. В случае обращения участника, вышедшего из состава участников, с требованием о признании решения общего собрания недействительным, в удовлетворении иска должно быть отказано, за исключением случаев, когда решение общего собрания непосредственно влияет на выход участника и его права. При этом новый участник вправе потребовать признания решений общего собрания, принятых до его вступления, недействительными. В частности, согласно части тринадцатой статьи 20 закона, к приобретателю доли (части доли) в уставном фонде (уставном капитале) общества переходят все права и обязанности участника общества, возникшие до уступки указанной доли (части доли).

5. С учетом специфики дел по корпоративным спорам в применимых правовых актах (ЭПК, закон) такие споры должны быть выделены в отдельную категорию дел, а также необходимо внести соответствующие изменения и дополнения, которые предусматривают, что в суд необходимо обращаться не с заявлением или жалобой, а с исковым заявлением.

6. Поскольку решение общего собрания участников признается юридическим фактом, создающим, изменяющим и отменяющим гражданские права, в законодательство о защите гражданских прав в судебном порядке следует включить «признание решения общего собрания недействительным» как отдельный метод;

7. Недействительное решение общего собрания участников, если законом не установлено его ничтожность, считается оспариваемым решением, и в случае если оно принято с нарушением норм закона

и положения устава, решение может быть признано судом недействительным.

8. Корпоративные споры возникают из гражданско-правовых отношений, и иногда их последствия касаются публично-правовых отношений. Примером тому является требование о признании недействительным решения общего собрания учредителей общества и признании незаконной государственной регистрации изменений, вносимых в учредительные документы. То есть государственная регистрация внесения изменений в учредительные документы является административным правоотношением. Если есть мнение, что существующие нормы не позволяют рассматривать такие споры в экономических судах, то путем внесения изменений в процессуальные кодексы необходимо ввести нормы, предусматривающие передачу данной категории дел экономическим судам по подведомственности.

9. При рассмотрении дел, связанных с признанием судами решения общего собрания недействительным и применения сроков исковой давности, можно наблюдать проблемы определения «времени оповещения участника о проведении общего собрания». Для предотвращения подобных проблем в закон следует вклю-

чить нормы, определяющие обязанность исполнительного органа направлять решение общего собрания участникам общества.

Также в качестве предложения: в случае если отсутствует возможность неприменения срока исковой давности, необходимо исключить сокращенный срок исковой давности о признании недействительным ничтожного решения общего собрания и применить хотя бы установленный трехлетний срок, то есть должны быть введены различные процессуальные сроки для признания недействительными спорных и ничтожных решений, исходя из их особенностей.

10. На наш взгляд, иски о признании недействительными решений общего собрания участников общества могут быть рассмотрены не только в экономическом суде, но и в третейских судах. В качестве предложения хотим указать, что для того чтобы признать третейский суд компетентным рассматривать дела данной категории, необходимо установить, что подведомственность спора третейскому суду должна быть прямо предусмотрена в учредительных документах общества, а также третейский суд должен быть постоянно действующим судом.

## REFERENCES

1. Vilkin S.S. Grazhdansko-pravovaya priroda volevykh aktov kollegial'nykh organov yuridicheskogo litsa [Civil law nature of volitional acts of collegial bodies of a legal entity]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2009, pp. 23–30.
2. Terent'yeva N.S. K voprosu o pravovoy prirode resheniya obshchego sobraniya uchastnikov obshchestva s ogranichennoy otvetstvennost'yu v svete reformirovaniya grazhdanskogo zakonodatel'stva [To the question of the legal nature of the decision of the general meeting of participants in a limited liability company in the light of the reform of civil legislation]. *Yurist – Lawyer*, 2013, no. 9, p. 26.
3. Rodionova O.M. O pravovoy prirode resheniy sobraniy i ikh nedeystvitel'nosti v germanskom i rossiyskom grazhdanskom prave [On the legal nature of decisions of meetings and their invalidity in German and Russian civil law]. *Vestnik grazhdanskogo prava – Bulletin of Civil Law*, 2012, no. 5, pp. 68–72.

4. Lomakin D.V. Korporativnyye pravootnosheniya: obshchaya teoriya i praktika yee primeneniya v khozyaystvennykh obshchestvakh [Corporate Legal Relations: General Theory and Practice of Its Application in Business Companies]. Pp. 187–190.
5. Tarasenko Yu.A. O pravovykh posledstviyakh prinyatiya nezakonnogo resheniya obshchim sobraniyem khozyaystvennogo obshchestva [On the legal consequences of making an illegal decision by the general meeting of a business company]. *Vestnik VAS RF – Bulletin of the Supreme Arbitration Court of the Russian Federation*, 2009, no. 5, pp. 94–97.
6. Osushchestvleniya prav uchastnika obshchestva s ogranichennoy otvetstvennost'yu v upravlenii delami obshchestva i nekotoryye voprosy sudebnoy zashchity [Exercise of the rights of a participant in a limited liability company in managing the affairs of the company and some issues of judicial protection]. Justice, Legal, scientific and practical publication, 2022.
7. Glusheskiy A.A. Kvorum obshchego sobraniya aktsionerov i kvorum po voprosu povestki dnya obshchego sobraniya aktsionerov [Quorum of the general meeting of shareholders and quorum on the agenda item of the general meeting of shareholders]. *Pravo i ekonomika – Law and Economics*, 2017, no. 6, part I, pp. 40–41.
8. Statistical data of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan for the period 2020-2021 and 9 months of 2022.
9. Nikologorskaya E.I. Uregulirovaniye korporativnykh konfliktov k aktsionernym pravootnosheniyam [Settlement of corporate conflicts to joint-stock legal relations]. Pp. 49–50.
10. Rubeko G.L. Nekotoryye aspekty obzhalovaniya resheniy obshchego sobraniya aktsionerov [Some Aspects of Appealing Decisions of the General Meeting of Shareholders]. *Sovremennoye pravo – Modern Law*, 2014, no. 12, pp. 75–76.
11. Grazhdansko-protsessual'noye pravo Respubliki Uzbekistan [Civil Procedural Law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2001, p. 136.
12. Timonov M.A. Osobennosti primeneniya obespechitel'nykh mer v arbitrazhnom protsesse [Features of the application of interim measures in the arbitration process]. PhD thesis. St. Petersburg, 2006, p. 63.
13. Bundesrecht konsolidiert: Gesamte Rechtsvorschrift für Aktiengesetz [Federal Law Consolidated: Entire Stock Corporation Act Legislation]. Available at: <https://www.ris.bka.gv.at/GeltendeFassung.wxe?Abfrage=Bundesnormen &Gesetzesnummer=10002070/>.
14. Pravovyye posledstviya priznaniya resheniy obshchego sobraniya aktsionerov (uchastnikov) nedeystvitel'nymi [Legal Consequences of Recognizing Decisions of the General Meeting of Shareholders (Participants) as Invalid]. Available at: [http://www.jbi-group.ru/media-and-event/jbi\\_press/pravovye-posledstviya-priznaniya-resheniy-obshchego-sobraniya-aktsionerov-uchastnikov-nedeystvitelny/](http://www.jbi-group.ru/media-and-event/jbi_press/pravovye-posledstviya-priznaniya-resheniy-obshchego-sobraniya-aktsionerov-uchastnikov-nedeystvitelny/).
15. Kuznetsov A.A. Osparivaniye resheniy obshchikh sobraniy uchastnikov (aktsionerov) [Challenging decisions of general meetings of participants (shareholders)]. Corporate law in anticipation of change. Collection of articles for the 20th anniversary of the LLC Law, 2020, p. 213.
16. Schäfer B. Decree. Pp. 1055–1082.
17. Makovskaya A.A. Pravovyye posledstviya nedeystvitel'nosti resheniy obshchego sobraniya aktsionerov i soveta direktorov aktsionernogo obshchestva [Legal Consequences of Invalidity of Decisions of the General Meeting of Shareholders and the Board of Directors of a Joint Stock Company]. Invalidity in civil law: problems, trends, practice. Collection of articles. Rep. ed. M.A. Rozhkova. Moscow, 2006, p. 353.
18. Lomakin D.V. Ocherki teorii aktsionernogo prava i praktiki primeneniya aktsionernogo zakonodatel'stva [Essays on the theory of joint stock law and the practice of applying joint stock legislation]. Pp. 158–159.
19. Schäfer B. GmbHG [GmbHG]. Comment. 4th, revised ed. 2019, pp. 1060–1061.



UDC: 347.634/.637(045)(575.1)

## HUQUQIY TA'SIR CHORASI SIFATIDA OTA-ONALIK HUQUQIDAN MAHRUM QILISH VA UNI CHEKLASHNING AYRIM JIHATLARI

**Xayitov Muzaffar Muxamadjonovich,**  
O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy  
kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi  
mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0000-0003-4012-0755  
e-mail: muzaffarustoz@mail.ru

**Annotatsiya.** Oila muhitida ota-ona va farzand munosabatlarining oqilona nisbatini saqlash har bir jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Bolaning komil inson bo'lib kamol topishi oiladagi sog'lom muhit, ota-ona va farzand munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga uzviy bog'liq. Bu borada oila qonunchiligida belgilab qo'yilgan bolaga nisbatan ota-onalik majburiyatlarining bajarilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday bo'lsa-da, jamiyatda ba'zi oilalarda nosog'lom muhit sababli ota-onalik majburiyatlari lozim darajada bajarilmayapti, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarga oid qonun normalariga rioya qilinmayapti. Bu esa oila huquqi sohasida muayyan javobgarlik choralari keltirib chiqarmoqda. Shu sababli jamiyatda mavjud mazkur ijtimoiy salbiy holat olim va mutaxassislar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida o'rganilib kelinadi. Maqolada ota-onalik huquqidan mahrum qilish, uni cheklash hamda ularning asoslari oila huquqiy ta'sir chorasi sifatida tadqiq qilingan. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari ota-onaning yoxud ulardan birining huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan uyg'un ekanligiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, uni cheklash ayni vaqtda bolani ota-onaning, oila muhitining salbiy ta'sirlaridan himoya qilish hamda muhofaza qilish, bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash chorasi ekanligiga urg'u berilgan.

**Kalit so'zlar:** ota-ona, bola, muhofaza, asos, huquq, xulq-atvor, chora, majburiyat.

### НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ЛИШЕНИЯ И ОГРАНИЧЕНИЯ РОДИТЕЛЬСКИХ ПРАВ КАК МЕРА ПРАВОВОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ

**Хайитов Музаффар Мухамаджонович,**  
самостоятельный соискатель Высшей школы судей  
при Высшем судейском совете Республики Узбекистан

**Аннотация.** Поддержание адекватных отношений между родителями и детьми в семейной среде является одной из важнейших задач, стоящих перед каждым обществом. Развитие ребенка как совершенной личности неразрывно связано со здоровой атмосферой в семье, правильными отношениями между родителями и детьми. В связи с этим большую роль играет исполнение родительских обязанностей по отношению к ребенку, определенных семейным законодательством. Несмотря на это, в обществе из-за нездоровой обстановки в некоторых семьях родительские обязанности не исполняются в должной мере, не соблюдаются нормы законодательства об отношениях между родителем и ребенком. Это обуславливает определенные меры ответственности в сфере семейного права. Поэтому эта социально

негативная ситуация, существующая в обществе, становится объектом исследования учеными и специалистами. В статье рассматриваются вопросы лишения и ограничения родительских прав, а также основания для этого как меры семейного правового воздействия. Обращается внимание на то, что основания лишения родительских прав совместимы с противоправными действиями или бездействием родителей или одного из них. При этом подчеркивается, что лишение родительских прав и их ограничение являются мерой заботы и защиты ребенка от негативного воздействия родителей и семейной среды, обеспечения прав и законных интересов ребенка.

**Ключевые слова:** родитель, ребенок, защита, основа, право, поведение, мера, обязательство.

## CERTAIN ASPECTS OF THE DEPRIVATION AND RESTRICTION OF PARENTAL RIGHTS AS A MEASURE OF LEGAL INFLUENCE

**Khayitov Muzaffar Mukhamadjonovich,**  
Independent Researcher,  
Higher School of Judges under the Supreme  
Judicial Council of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** Maintaining a reasonable ratio of parental and child relationships in the family environment is one of the important tasks of each society. The development of a child as a perfect person is inextricably linked with a healthy atmosphere in the family, as well as the correct relationship between parents and children. In this regard, the fulfilment of parental obligations in relation to the child, established by Family Law, plays an important role. Nevertheless, in society, due to the unhealthy environment in some families, parental obligations are not fulfilled to the proper extent, and the norms of the law on the relationship between parent and child are not observed. This entails certain measures of responsibility in the field of family law. For this reason, this socially negative situation that exists in society is studied by scientists and specialists as an object of research. The article considers the deprivation of parental rights, its restriction and its grounds as a measure of family legal influence. The grounds for deprivation of parental rights are based on the fact that the parent or one of them has committed an unlawful act or inaction. At the same time, it was emphasized that the deprivation of parental rights, and its restriction is at the same time a measure to defend and protect the child from the negative impact of the parent, and the family environment, to ensure the rights and legitimate interests of the child.

**Keywords:** parent, child, protection, basis, law, behavior, measure, obligation.

### Kirish

Oilada ota-ona va farzand o'rtasida-gi munosabatlar kishilik jamiyatining har bir davrida yuksak e'tiborda bo'lib kelgan. Ayniqsa, o'zbek oilasida ota-onalar farzandiga ta'lim-tarbiya berish, uni komil inson qilib tarbiyalash, unga g'amxo'rlik qilish vazifalari-ga muqaddas burch sifatida qaraganlar. Mazkur vazifalar zamiridagi farzandni boqish, ki-yintirish, ta'lim berish, kam-ko'stini but qilish kabi mas'uliyatli ishlarni sharaf bilan bajar-ganlar. Ajdodlardan avlodlarga o'tib, qadriyat darajasida davom etib kelayotgan ota-ona va

farzand munosabatlarining oqilona nisbati-ni saqlash, uning kelgusi avlodlar ham mu-nosib davom ettirishlari uchun zamin yara-tish bugungi kunda bizning zimmamizdagi muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbari bu borada: "...bolalarimiz bilan gaplashib, ularning ko'ngliga yo'l topish, yurish-turish, xatti-harakatlaridan xabardor bo'lib borishimiz kerak" [1], – deb ta'kidlab o'tgan. Mutaxassis olimlar bolaning komil inson bo'lib kamol topishi oiladagi sog'lom muhit, ota-ona va farzand munosabatlariga uzviy bog'liq ekanligiga e'tibor qaratib ke-

lishgan. Jumladan, D. Abdullayeva “Bolaning har jihatdan sog‘lom, barkamol shaxs sifatida shakllanishi oilaviy munosabatlarga, oilada ona-bola munosabatlarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligiga, oilaviy tarbiya asoslariga ko‘p jihatdan bog‘liq”, – deb ta’kidlagan [2].

Biroq qayd etish joizki, atrofimizda kam miqdorda bo‘lsa-da, mazkur vazifaga mas’uliyat bilan qaramayotgan oilalar, o‘z ota-onalik majburiyatlarini lozim darajada bajarmayotgan ota-onalarning bor ekanligi jamiyatimizda ijtimoiy salbiy holatlardan biri bo‘lib qolmoqda. Albatta, oilada farzand dunyoga kelgan kundan boshlab uning sog‘lom o‘ssishiga raxna soladigan salbiy ta’sirlardan asrash, bunday holatlarning oldini olish masalalari dolzarb vazifalardan biriga aylanadi. Oila huquqi sohasida ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoxud uni cheklash huquqiy ta’sir choralarining qonun yo‘li bilan tartibga solib qo‘yilganligi mazkur sohadagi vazifalarning muhim bo‘g‘inlaridan biridir.

### **Material va metodlar**

Tadqiqot jarayonida ota-onalik huquqidan mahrum qilish, uni cheklash tushunchalari, ularning asoslariga oid ma’lumotlar tadqiq qilindi; mazkur ijtimoiy munosabatga doir ba’zi muammolar tahlil qilindi; yakunda ota-onalik huquqidan mahrum qilish, uni cheklash asoslariga oid mualliflik yondashuvlari ilgari surildi.

Mazkur maqola ota-onalik huquqidan mahrum qilish, uni cheklash huquqiy ta’sir choralarini anglash va tushunish, ularni to‘g‘ri talqin qilish, unga doir huquqiy normalarni o‘rganishda qo‘l keladi.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, mantiqiy, statistik, sotsiologik, formal-yuridik usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Ma’lumki, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, uni cheklash huquqiy ta’sir chorasifatida voyaga yetmagan bolalarni davlat tomonidan muhofaza qilish shakllaridan biri hisoblanadi. Soha mutaxassislaridan

M.V. Karpov ham ota-onalik huquqidan mahrum qilishni bolani muhofaza qilish chorasini, fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning shakli deb ta’riflagan [3]. M. Karpovning ota-onalik huquqidan mahrum qilish munosabatiga bunday yondashuvi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, keltirilgan ta’rifdagi o‘ziga xoslik, ushbu o‘rinda ota-onalik huquqidan mahrum qilish, bir tomondan, ota-onaning bolaga nisbatan huquqlaridan mahrum qilsa, ikkinchi tomondan bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilinishiga zamin yaratishida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, muallifning mazkur ta’rifi bolaga nisbatan ota (ona) tomonidan ota-onalik huquqlarining suiiste’mol qilinishi yoxud bolaga nisbatan qasddan jinoyat sodir etilishi kabi ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslariga uzviy bog‘liq. Mualliflardan E.D. Xolxoyeva ota-onalik huquqidan mahrum qilish tushunchasiga M. Karpovning ta’rifiga o‘xshash yondashuvni ilgari surgan. Uning fikricha, ota-onalik huquqidan mahrum qilish voyaga yetmagan bolalarni davlat tomonidan muhofaza qilish shakllaridan biri bo‘lib, ayni vaqtda ota-onaning o‘z farzandiga nisbatan ota-onalik huquqini yo‘qotishida ifodalanadi [4].

T. Savchenkoning qayd etishicha, ota-onalik huquqidan mahrum qilish javobgarlik chorasini bo‘lib, to‘rtta belgi bilan tavsiflanadi, ya’ni aybning mavjudligi, ota-onaning huquqqa zid harakati yoxud harakatsizligi, ota-onaning huquqqa zid xatti-harakati yoxud harakatsizligining kelib chiqqan oqibat bilan sababiy bog‘liqligi hamda zararining bola uchun salbiy oqibat keltirib chiqqanligi [5]. Muallifning mazkur ta’rifida, bizningcha, ota-onalik huquqidan mahrum qilishning ijtimoiy tabiati yaxshi ifodalangan. Chunki ota-onalik huquqidan mahrum qilishga sabab bo‘ladigan asoslar, ota-onaning huquqqa zid faol harakati yoxud harakatsizligi natijasi bilan uzviy bog‘liq. Masalan, ota-onaning bolaga nisbatan ta’lim-tarbiya berish majburiyatini bajarmasligi uning harakatsizligida if-

odalanadi va bu huquqqa zid xatti-harakat hisoblanadi. Ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilish esa bolaga nisbatan faol nojo'ya harakatlarda o'z ifodasini topadi va muayyan oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Soha mutaxassislaridan Y. Reyersenning fikricha, ota-onalik huquqidan mahrum qilish deyilganda ota-onaning bola manfaatlarini yuzasidan qabul qilinadigan qarorlarda ishtirok etish huquqidan mahrum bo'lishi tushunilishi kerak [7]. Y. Reyersenning ota-onalik huquqdan mahrum qilishga nisbatan ta'rifi ushbu yo'nalishdagi boshqa ta'riflardan tubdan farq qiladi. Darhaqiqat, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onalar bola manfaatlarini yuzasidan har qanday qarorlar qabul qilinishida ishtirok etishdan ham mahrum bo'ladilar. Muallifning mazkur yondashuvi ota-onalik huquqidan mahrum qilish huquqiy ta'sir chorasining oqibatlaridan birini ham ifodalagan.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish, uni cheklash asoslarini o'rgangan mualliflardan U. Sharaxmetovanning fikricha, ota-onalik huquqidan mahrum qilish asosi sifatida ota-onalarning huquqqa xilof hamda aybli harakati hamda harakatsizligi ko'riladi [8]. Muallif tomonidan ilgari surilgan mazkur ta'rif O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 79-moddasida qayd qilingan ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslarining umumiy talqiniga aynan mos keladi. Ushbu moddada belgilab qo'yilgan asoslar ota-ona yoxud ulardan birining aybli, huquqqa xilof faol harakati yoxud harakatsizligida namoyon bo'ladi. Masalan, ota-onaning o'z bolasini tug'uruqxona yoki boshqa davolash va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortishi, ota-onalik majburiyatlarini bajarmasligi harakatsizlikni ifodalasa, ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilishi, bolaga nisbatan shafqatsiz muomala qilishi, jismoniy kuch ishlatishi, ruhiy ta'sir ko'rsatishi yoxud o'z bolalarining hayoti va sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qili-

shi huquqqa xilof, faol aybli harakatlar sifatida baholanadi.

X. Yodgorov, I. Qosimov, A. Salayevlar ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari xususida quyidagilarni qayd etib o'tishgan, ya'ni ota-onalik huquqidan ota-ona (ulardan biri)ning xulq-atvorini yaxshi tarafga o'zgartirish imkoniyati yo'qolgan bo'lsa, ota-onaning aybi bo'lgan taqdirda mahrum qilishga yo'l qo'yiladi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish ota-onalarning ongli harakatlari natijasida bo'lishi mumkin [9]. Mualliflar tomonidan ilgari surilgan ta'rifda ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslarining umumiy jihatlaridan biri bayon qilingan, ya'ni ota-onalik huquqidan mahrum qilish huquqiy ta'sir chorasini qo'llashga olib keladigan asoslar ota-onaning yoxud ulardan birining ongli harakatlarida namoyon bo'ladi. Misol tariqasida ota yoxud onaning sud buyrug'iga ko'ra belgilangan alimentni to'lamasligi, uni to'lashdan bo'yin tovlashi muayyan javobgarlikni keltirib chiqaradi. Shunday bo'lsa-da, aliment to'lashdan bo'yin tovlayotgan ota yoki ona bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi. Ta'rifda keltirilganidek, ota-ona (ulardan biri)ning xulq-atvorini yaxshi tarafga o'zgartirish imkoniyatining yo'qolishi ham ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari bilan uyg'un. Masalan, ota yoxud onaning muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lishi, ularning xulq-atvorini tuzatish samarasizligi ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoxud uni cheklashga olib kelishi mumkin.

Ota-onalik majburiyatlarining bajarilmasligi ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoxud uni cheklashga asos bo'ladigan sabablardan biridir. Majburiyat so'zi lug'atda majburlik, burch ma'nolarida kelib, g'ayriixtiyoriy vazifa, burch yoki biror majburiy ish, holat va ehtiyojni anglatadi [9]. Bola haqida g'amxo'rlik qilish, unga ta'lim-tarbiya berish ota-ona uchun faqat axloqiy qoida bo'lib qolmasdan, balki konstitutsiyaviy burch ham hisoblanadi, ya'ni: "Ota-onalar o'z farzandlarini



voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlardir”. Mutaxassislar mazkur majburiyat yeb-ichirish, kiyim-kechak, yashash uchun uy-joy, iqtisodiy ma’nodagi keng tushunchalarni qamrab olishini ta’kidlashgan [10].

Respublikamiz oila qonunchiligida ham ota-ona o’z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgarligi belgilanib, ular o’z bolalarining sog’lig’i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g’amxo’rlik qilishlari shartligi qayd etilgan. Yuridik va boshqa adabiyotlarda ota-onaning majburiyatlari to’g’risida bir qator fikrlar ta’kidlangan. Jumladan, ota-ona o’z bolalarini tarbiyalashga, ularning jismoniy o’sishlari, ilm olishlari va ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlanishlari to’g’risida g’amxo’rlik qilishga, bolalarini voyaga yetgunlariga qadar tarbiyalashga majburdir [11]. Ota-onaning farzandni tarbiya qilish majburiyatiga alohida urg’u berilganligi bejiz emas. Chunki tarbiya – har bir shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashini ta’minlash uchun zarur bo’lgan aqliy-jismoniy, badiiy-estetik va axloqiy-ma’naviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yo’naltirilgan chora-tadbirlar majmuidir [12].

Soha mutaxassislaridan M. Yuldashev ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish majburiyatini ham alohida qayd etib o’tgan [13]. Albatta, ota-onalarga o’z farzandlariga nisbatan mulkiy majburiyatlari ham yuklatilgan bo’lib, voyaga yetmagan bolalar o’z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta’minot olish huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta’minoti uchun olingan mablag’, pensiya, nafaqa uning otasi yoki onasi tasarrufida bo’lib, bolaning ta’minoti, tarbiyasi va ta’lim olishi uchun sarflanishi kerak. Ota-ona voyaga yetmagan bolalarning xususiy mulkini fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqaradilar va tasarruf etadilar.

Voyaga yetmagan bolalarning haqi bo’lgan aliment masalasi, uni undirish keyingi yillarda muhim munosabatga aylangan. Ota-onalar voyaga yetmagan bolalariga aliment to’lash va ularga ta’minot berishda teng majburiyatlarga ega bo’lib, uni o’z vaqtida va qat’iy bajarishlari shart. Aliment majburiyatlarini o’z vaqtida bajarish bolaning tabiiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Aliment to’lashdan bo’yin tovlashga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilishgacha bo’lgan huquqiy ta’sir choralari belgilanganligi bejiz emas.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 23-sonli “Bolalar tarbiyasi bilan bog’liq bo’lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo’llash amaliyoti to’g’risida”gi qarorida aliment to’lashdan bosh tortganda bu fakt sudning hukmi bilan tasdiqlanishi shart emasligi, aliment to’lash, o’z bolalarini moddiy ta’minlashdan doimiy ravishda qochishga uringanligiga ishonch hosil qilishning o’zi kifoya ekanligi belgilab qo’yilgan. Aynan ushbu masalada O’zbekiston Respublikasi ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksining 474-moddasida ikki oylik muddat belgilanganligi e’tiborga molik. Unga ko’ra moddiy yordamga muhtoj bo’lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta’minlashdan bo’yin tovlash, ya’ni ularni moddiy jihatdan ta’minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug’iga binoan undirilishi lozim bo’lgan mablag’ni jami bo’lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to’lamaslik uchun javobgarlik belgilab qo’yilgan.

O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining “Sud hujjatlarini bajarishdan bo’yin tovlash va ularning ijro etilishiga to’sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo’llashning ayrim masalalari to’g’risida”gi 2009-yil 10-apreldagi 7-son qarorining 15-bandida esa voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minlashdan bo’yin tovlash deb shaxsning

sud hujjatida belgilangan aliment miqdorini to'liq hajmda to'lamasligi holati ham tushunilishi lozimligi belgilangan.

Tadqiq etilgan manbalardan ko'rinib turibdiki, aliment to'lashdan bo'yin tovlaganlik asosi bo'yicha ota-onalik huquqidan mahrum qilish yuzasidan da'vo ishlarini yuritish turlicha yondashuvlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bizningcha, qayd etilgan asoslarga ko'ra belgilangan aliment miqdorini bir oy to'lama javobgar shaxsning mazkur xatti-harakatini aliment to'lashdan bo'yin tovlash deb baholash ortiqcha munozarali masalalarni keltirib chiqaradi. Shundan kelib chiqqan holda aliment to'lashdan bo'yin tovlaganlik asosi yuzasidan da'vo qo'zg'atishni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining tegishli qarorida aniq muddat bilan belgilab qo'yish maqsadga muvofiq. Bizningcha, belgilangan aliment miqdorini ketma-ket ikki oydan ortiq muddat to'lamaganlikni aliment to'lashdan bo'yin tovlash deb topish hamda da'vo kiritish uchun asos deb topish maqsadga muvofiq.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslaridan biri ota-onalik huquqini suiiste'mol qilish, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lish, jismoniy kuch ishlatish yoki ruhiy ta'sir ko'rsatishdir. Oila qonunchiligida ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emasligi alohida qayd etib qo'yilgan. Respublikamizda bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha olib borilayotgan siyosatning asosiy yo'nalishlarida ham bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish; bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish; bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash; bolalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash; bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash belgilab qo'yilgan. Soha olimlaridan G.S. Inamdjanova ushbu masalada oilani huquqiy himoya qilishning asosiy mohiyati, avvalo, oila va oila a'zolari manfaatlarining mushtarakli-

gi, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning oqilona nisbatini saqlab turish, ayni vaqtda har bir ota-ona va farzandlarning xususiy manfaatlariga putur yetkazmaslikni ta'minlash muhimligini qayd etib o'tgan [14].

Ota-onalarning bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lishi, jumladan jismoniy kuch ishlatishi yoki ruhiy ta'sir ko'rsatishi ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilish sifatida baholanadi va qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorida mazkur tushunchalarga izoh berib o'tilgan. Unga ko'ra ota-onalik huquqini suiiste'mol qilish deganda huquqlardan bolalarning manfaatlariga zid ravishda foydalanishni, masalan, o'qishiga, jamoat topshiriqlarini bajarishiga to'sqinlik qilishni, tilanchilikka undashni, uni spirtli ichimliklar va narkotik moddalar iste'mol qilishga o'rgatish, jinoyat qilishda, jinoiy yo'l bilan daromad topishda voyaga yetmaganni jalb qilishni tushunmoq kerak, bolalar bilan shafqatsiz muomalada bo'lish jismoniy va ruhiy qiynash esa tarbiyalashning yo'l qo'yib bo'lmaydigan usullarini qo'llash, bolalarining insoniy g'ururlarini kamsitish va hokazolarda ifodalanishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, bolani shafqatsiz muomaladan, jismoniy tazyiqlardan himoya qilish oilaviy-huquqiy, ma'muriy, jinoiy mexanizmlari faol qo'llanadi. Mazkur masala respublikamizda ham milliy, ham xalqaro normalar bilan tartibga solingan. Bu borada Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va uning fakultativ protokoli ratifikatsiya qilinganligi alohida e'tiborga molik. Unda ishtirokchi davlatlar bolani jismoniy va ruhiy zo'ravonlikning, haqoratlash va suiiste'molliklar, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik yoki beparvolik bilan muomalada bo'lish, qo'pol muomala qilish yoki ota-ona, qonuniy vasiylar yoki bola haqida g'amxo'rlik qiluvchi har qanday boshqa shaxs tomonidan ekspluatatsiya qilish, jumladan, shahvoniy suiiste'molliklar sodir etishning har qanday shakllaridan hi-

moyalash maqsadida jamiki zarur qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy va ma'rifiy chora-tadbirlarni ko'rishlari qayd etilgan [15].

Ota-onalik huquqlarining suiiste'mol qilinishi ko'p holatlarda oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq bo'ladi. Bizningcha, zo'ravonlikning shakllari ma'lum bir jamiyat, bolalarning yoshi va jinsiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Zo'ravonlik asosan uyda oila a'zolar, yaqin qarindoshlar tomonidan sodir etilib, takror va takror davom etishi mumkin. Zo'ravonlik deganda bolaga nisbatan jismoniy, ruhiy yoki ma'naviy zarar yetkazish yoki shunday zarar yetkazish, tahdid qilish bilan bog'liq xatti-harakatlarni amalga oshirish tushuniladi [16]. Mutaxassislar jismoniy zo'ravonlikning quyidagi turlarini qayd etib o'tishgan, ya'ni shapaloq tortish, tepish, turtkilash, musht bilan urish, zarb bilan itarib yuborish, turli o'tkir buyum va narsalarni otish, qurol bilan xavf solish yoki yaralash, uydan chiqishga jismonan yo'l qo'ymaslik, kechasi uxlashga qo'ymaslik kabilar [17]. Qayd etilgan noxush holatlar hukmron oilalar o'z vaqtida aniqlanib tegishli choralar ko'rilmasligi oilada bolalar hayotida, ularning salomatligini saqlash masalalarida jiddiy salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslaridan biri ota-onaning o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilishidir. Jinoyat qonunchiligida hayot va sog'liqqa qarshi jinoyatlarning bir qator turlari, ya'ni qiynash, qasddan badanga shikast yetkazish, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, jinoiy ravishda homila tushirish (abort), ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash, xavf ostida qoldirish qayd etib o'tilgan. Mazkur jinoyatlar ayni vaqtda ham ruhiy, ham jismoniy ta'sir kuchiga ega ekanligi bilan ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Zo'ravonlik natijasida oilaning ma'naviy-axloqiy tomoniga, uning normal rivojlanishiga tiklab bo'lmas darajada

zarar yetishi mumkin. Ota-onalik huquqidan mahrum qilishga sabab bo'luvchi ushbu asosning zaruriy sharti jinoyatning qasddan sodir etilishidir.

Qayd etib o'tilgan masalalar orasida ayrim jihatlarga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Bizningcha, ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari orasida ota-onaning bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lishi, jumladan jismoniy kuch ishlatisa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatishi; o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilinishi holatlari alohida munozarali masalalardir. Qonun matnida bu asoslar bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatisa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa, o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa tarzida bayon qilingan. Mazkur bandlarga ko'ra ota-onalik huquqidan mahrum qilish huquqiy ta'sir chorasini qo'llash ma'lum bir oqibatlarga asoslanishi ko'zda tutilgan. Biroq bu holatlarning har birida bola yoxud oilaning boshqa a'zosi qattiq jabr ko'rish, hatto jinoyat qurboniga aylanishi ham mumkin. Shuning uchun ham ota-onalik huquqidan mahrum qilishning mazkur bandlaridagi asoslarning dastlabki belgilari aniqlangandayoq zarur choralar, jumladan, ota-onalik huquqini cheklash choralari qo'llanishi maqsadga muvofiq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3827-sonli qarorining 16-bandida "...O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi "xavf ostidagi guruh"da bo'lgan oila a'zolariga nisbatan har bir zo'rlik ishlatilgan holat haqida huquqni muhofaza qilish organlarini, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda Mahalla va oila ilmiy tadqiqot institutini zudlik bilan xabardor qilishni

ta'minlasin" deb belgilab qo'yilganligi muhim ahamiyatga ega.

Bizningcha, ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoxud uni cheklash huquqiy ta'sir choralari qo'llashga olib keladigan asoslar ota-onalarning ongli harakatlari sifatida baholansa-da, biroq mazkur ijtimoiy salbiy hodisa ota-ona bo'lgan fuqarolarning huquqiy ongi yetarli darajada emasligiga ham uzviy bog'liq. Huquqiy ong – huquqni anglash, tushunish bo'lsa, huquqiy madaniyat huquq bilan tartibga solingan, o'rnatilgan qoidalarga rioya etish demakdir. Tadqiqotimiz davomida respondentlar o'rtasida "oila qonunchiligida belgilangan ota-onalik huquqlari va majburiyatlari to'g'risida ma'lumotga egamisiz?" deb qo'yilgan savolga respondentlarning 53 %i, ha ma'lumotga egaman deb javob bergan bo'lsa, 17 %i ma'lumotga ega emasman, 30 %i esa qisman ma'lumotga egaman deb javob berishdi. Mazkur so'rovnoma natijalari ham ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning oqilona nisbati buzilishiga olib kelayotgan muammolardan birini namoyon qilmoqda. So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 45 %dan ortig'i ota-onalik majburiyatlari, ota-onalik huquqidan mahrum qilish huquqiy ta'sir chorasi va uning asoslari to'g'risida to'liq ma'lumotga ega emas. Shundan kelib chiqqan holda oila qonunchiligida belgilangan ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish, uni cheklash asoslarini tadqiq qilish muhim vazifalardan biridir.

### **Xulosalar**

Yuqorida qayd etib o'tilgan ma'lumotlardan quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

– ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari ota-onalarning huquqqa xilof hamda aybli harakati hamda harakatsizligida namoyon bo'ladi;

– ota-onalik huquqidan mahrum qilish, uni cheklash huquqiy ta'sir choralari qo'llashga olib keladigan asoslar ijtimoiy salbiy hodisa sifatida ota-ona bo'lgan fuqarolarning oila huquqi, ota-onalik huquq va majburiyatlari to'g'risida huquqiy ongi yetarli darajada emasligiga ham uzviy bog'liq;

– ota-onalik huquqidan mahrum qilish, uni cheklash ayni vaqtda bolani ota-onaning, oila muhitining salbiy ta'sirlaridan himoya qilish hamda muhofaza qilish, bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash chorasi ham hisoblanadi;

– ota-onalik huquqidan mahrum qilishning qonunda belgilangan asoslari ularni qo'llashda umumiy yondashuvni shakllantirish nuqtayi nazaridan, shuningdek yangi asoslar kiritilishi zarurati yuzasidan takomillashtirilishi zarur;

– ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun asos bo'lgan holatlar bolaning hayoti va sog'lig'i uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi; oila qonunchiligida bolaning hayoti yoki sog'lig'i bevosita xavf ostida qolganda uni olish belgilab qo'yilganligi; bunday salbiy holatlarni barvaqt aniqlash va oldini olish zarurati mavjudligidan kelib chiqib oila qonunchiligi va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga "xavf ostidagi oila" tushunchasini kiritish maqsadga muvofiq.

## **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz [We will build a great future together with our brave and noble people]. Tashkent, NMIU of Uzbekistan, 2017, p. 138.
2. Abdullayeva D.U. Oilada ota-ona va farzand munosabatlarining o'ziga xosligi [Peculiarities of parent-child relationships in the family]. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). Proceedings of the International conference. Tashkent, 2021, p. 227.



3. Karpov M.V. O nekotorykh voprosakh primeneniya mer otvetstvennosti v semeyno-pravovykh otnosheniya [On some issues of the application of measures of responsibility in family law relations]. *Family and housing law*, 2013, no. 2, pp. 24–25.

4. Kholkhoyeva E.D. Lisheniye roditel'skikh prav [Deprivation of parental rights]. Child-friendly justice and restorative technologies. Proceedings of the V International scientific and practical conference dedicated to the 20th anniversary of the Buryat State University. Irkutsk – Ulan-Ude, 2015, September 22–25. Eds. E.L. Radnaeva, M.N. Sadovnikova. Ulan-Ude, Publishing house of the Buryat State University, 2016, p. 119.

5. Savchenko T.A. Lisheniye roditel'skikh prav [Deprivation of parental rights]. Krasnoyarsk, 2017, p. 8.

6. Reiersen E. Prava detey v Norvegii. Prava sootchestvennikov severnoy Yevropy [Children's rights in Norway. The rights of compatriots of northern Europe]. *Law Journal*, 2016, no. 1, p. 13.

7. Sharaxmetova U.Sh. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish javobgarlik chorası sifatida [Deprivation of parental rights as a measure of responsibility]. *Journal of Legal Research*, 2021, no. 7, p. 71.

8. Yodgorov X., Qosimov I., Salayev A. Oila va nikoh munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolar bo'yicha sud amaliyoti [Court practice on disputes arising from family and marital relations]. Tashkent, 2017, p. 97.

9. O'zbek tilining izohli lug'ati [An explanatory dictionary of the Uzbek language]. Tashkent, National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific Publishing House, 2007, vol. 2, 522 p.

10. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh [Commentary on the Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Resp. ed. A.A. Azizkhoyev. Tashkent, TSIL Publ., 2008, p. 250.

11. Yuridik atamalarining qomusiy lug'ati [Glossary of legal terms]. Resp. ed. Kh.R. Rahmonkulov. Tashkent, Sharq Publ., 2003, p. 271.

12. Tarbiya: ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya [Education: an encyclopedia for parents and teachers]. Compiled by M.N. Aminov. Tashkent, Uzbekistan national encyclopedia State Scientific Publishing House, 2010, p. 3.

13. Yuldashev M.M. Ota-ona va bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari [Property rights and obligations of parents and children]. Available at: <https://jizzax.uz/print:page,1,9593-ota-ona-va-bolalarning-mulkiy-uu-va-mazhburiyatlari.html/>.

14. Inamdjanova G.S. Ota-onalar va bolalarning huquqlarini oila huquqiy himoya qilish muammolari [Problems of family legal protection of the rights of parents and children]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2005, p. 3.

15. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va uning Fakultativ protokollari. [The Convention on the Rights of the Child and its Optional Protocols]. Ed. A.Kh. Saidov. Tashkent, National Center of the Republic of Uzbekistan for Human Rights, 2009, p. 22.

16. Ijtimoiy himoya: atamalar izohli lug'ati [Social protection: annotated dictionary of terms]. Compilers M.Kh. Saidov et al. Tashkent, Publishing house of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2007, p. 266.

17. Pulatova Sh.A., Muradov A.Sh. Zo'ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo'ravonlikning oldini olish [Protection of the rights of victims of violence and prevention of violence]. Tashkent, Baktaria press, 2020, p. 10.

UDC: 347.23:004.7(045)(575.1)

## BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARINING MA'LUMOTLAR MUHOFAZASIDA TUTGAN O'RNI

**To'raqulova Nazira Abdushukur qizi,**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Intellectual mulk huquqi kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0000-0002-5664-8688

e-mail: lepetitmasterpiece@gmail.com

**Annotatsiya.** Jahon miqyosida intellektual mulk muhofazasini ta'minlash va uning himoyalanganlik darajasini kuchaytirish iqtisodiy taraqqiyot hamda mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishning muhim kafolatlaridan hisoblanib, blokcheyn texnologiyalari mazkur tendensiyalarni ta'minlashga qaratilgan raqamli texnologiyalardan biri hisoblanadi. Muallif tomonidan maqolada intellektual mulk huquqi obyektlarining ma'lumotlar muhofazasini samarali ta'minlashda blokcheyn texnologiyalarining o'rni alohida o'rganilgan bo'lib, mazkur raqamli texnologiyalarning ahamiyati tegishincha tahlil etilgan. Bevosita intellektual mulk siyosatida intellektual mulk huquqining asosiy institutlari doirasiga kiruvchi, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning muhofazasi uchinchi shaxslar tomonidan buzilayotgani sababli maqolada mazkur institutning himoyasini ta'minlashda ushbu texnologiyaning tutgan roli haqida so'z yuritilgan. Texnologiyaning ishlash tartibi, texnik jihatdan ahamiyati, huquq egasining mulkiy huquqlarining kafolati sifatida blokcheynning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Milliy qonunchiligimizni takomillashtirish borasida fikrlar o'rganilib, mazkur tadqiqotlar milliy intellektual mulk huquqi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Qolaversa, blokcheyn texnologiyasining asosiy jihatlari, ya'ni markazlashtirilmagani, raqamli ma'lumotlarning shaffof, maxfiy va ishonchli tarzda foydalanuvchilar o'rtasida tez va qulay ma'lumotlar almashinuvi imkoni tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** intellektual faoliyat natijasi, mualliflik huquqi, kriptohimoya, blokcheyn, anonimlik, markazlashtirilmagan reyestr, virtual elektron hisoblash mashinalari, huquq egasi.

## РОЛЬ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН В ЗАЩИТЕ ДАННЫХ

**Туракулова Назира Абдушукур кизи,**

преподаватель кафедры «Право

интеллектуальной собственности»

Ташкентского государственного

юридического университета

**Аннотация.** Обеспечение защиты интеллектуальной собственности и повышение ее уровня в мировом масштабе являются важными гарантиями экономического развития и повышения инвестиционной привлекательности страны. Технологии блокчейн являются одной из цифровых технологий, направленных на обеспечение этих тенденций. В статье автором отдельно изучена роль технологии блокчейн в эффективном обеспечении защиты данных объектов прав интеллектуальной собственности. Проанализировано значение данной цифровой технологии непосредственно в политике в области интеллектуальной собственности, поскольку авторские и смежные права, входящие в круг основных институтов права интеллектуальной собственности, могут нарушаться третьими лицами. Изучены

особенности технологии блокчейна как способа функционирования, ее техническая значимость как гарантия имущественных прав правообладателя. В данном исследовании были изучены вопросы совершенствования национального законодательства, направленного на регулирование отношений в области права интеллектуальной собственности. Кроме того, были проанализированы фундаментальные аспекты технологии блокчейн, а именно децентрализованность, возможность быстрого и удобного обмена данными между пользователями цифровыми данными прозрачным, конфиденциальным и надежным способом.

**Ключевые слова:** интеллектуальная собственность, авторское право, криптовалюта, блокчейн, анонимность, децентрализованный реестр, виртуальные машины, правообладатель.

## THE ROLE OF BLOCKCHAIN TECHNOLOGY IN DATA PROTECTION

**Turakulova Nazira Abdushukur kizi,**

Lecturer, Department of Intellectual Property Law,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** Ensuring the protection of intellectual property and increasing the level of its protection on a global scale are important guarantees of economic development and increasing the investment attractiveness of the country, blockchain technologies are one of the digital technologies aimed at ensuring these trends. In the article, the author separately studied the role of blockchain technology in the effective protection of data of intellectual property rights and properly analyzed the significance of this digital technology. Directly in the field of intellectual property, the protection of copyright and related rights, which are among the main institutions of intellectual property law, is violated by third parties, and the article talks about the role of this technology in ensuring the protection of this institution. The features of the blockchain as a way of functioning the technology, its technical significance, and the guarantee of the property rights of the copyright holder are studied. The issues of improving national legislation were studied, and these studies are aimed at regulating relations in the field of national intellectual property law. In addition, the fundamental aspects of blockchain technology were analyzed, namely, decentralization, the ability to quickly and conveniently exchange digital data between users in a transparent, confidential, and reliable way.

**Keywords:** intellectual property, copyright, cryptocurrency, blockchain, anonymity, decentralized ledger, virtual machines, the copyright holder.

### Kirish

Blokcheyn texnologiyasi nafaqat tegishli tranzaksiyalarni amalga oshirishda, balki ma'lumotlar muhofazasida ham taqdim etayotgan imkoniyatlari kengligi bilan xarakterlanadi. Dunyo mamlakatlarida axborotlash-tirish jarayoni, shaxsga doir ma'lumotlar-ning muhofazasiga e'tibor, uning himoyasini ta'minlash choralari kundan kunga takomillashtirilmoqda. Xususan, blokcheyn texnologiyasining ma'lumotlar muhofazasidagi tutgan o'rni bir qator davlatlar tomonidan tan olinib, ularning qonunchiligiga implementatsiya etilayotgani bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri desak mubolag'a

bo'lmaydi. Dastavval, iqtisodiyot sohasiga kirib kelgan blokcheyn texnologiyasining hozirgi kunda jamiyatning deyarli barcha sohalariga tatbiq etilayotgani, texnologiya-ning o'ziga xos bir qator xususiyatlari bilan bog'liqdir. Texnologiya o'z o'rnida bir qator jihatlari bilan boshqa ma'lumotlar bazasidan ajralib turadi. Uning ushbu jihatlari ma'lumotlar muhofazasidagi ahamiyatini oshirib, deyarli barcha soha ma'lumotlari bazasiga kirib kelishini tezlashtirmoqda [1].

Bugungi kunda blokcheyn texnologiyalari yangi innovatsion texnologiya yo'nalishi bo'lishiga qaramasdan bir qator ijtimoiy sohalarga kirib borib, o'z o'rnini egallagan.

Insonlarning intellektual ijod mahsuli yaratilishining jadallashuvi bilan bir qatorda ular-dan foydalanish, muhofazasi hamda himoya-sini ta'minlash masalasi ham dolzarblash-moqda. Qolaversa, internet tarmog'ining jamiyatimiz hayotidagi o'rni kengayishi oqi-batida ma'lumotlar olish, axborot almashish hamda mulkdan ruxsatsiz foydalanish ham oshib bormoqda. Ushbu holatda yaratilayot-gan intellektual mulk obyektlarining shaf-fof, ishonchli himoyasini tashkillashtiruvchi texnologiyalarga talab ortmoqda. Sababi, in-telektual mulk obyektlaridan foydalanish-da, ularni fuqarolik huquqiy munosabatlar muomalasiga tatbiq etishda, ularning muho-fazasi, nazorati va himoyasini ta'minlashda bir qator texnik usullarning amalda qo'lla-nishi bugungi kunda barchamizga ma'lum [2].

#### **Material va metodlar**

Tadqiqot jarayonida intellektual mulk huquqi obyektlarining muhofazasini ta'min-lash bo'yicha munosabatlarning rivojlanishi, bir qator texnologiyalarning, xususan, blok-cheyn texnologiyasining inson faoliyatining deyarli barcha sohasiga kirib borayotgani, intellektual mulk huquqining, aynan mual-liflik huquqining buzilishi holatlarining orti-shi hamda mulkiy huquqlarning muhofazasi hamda himoyasini takomillashtirish zaruri-yati mavjudligi, intellektual mulk huquqining muhofazasi va himoyasi yuzasidan samarali vositalarni joriy etishning ahamiyati bevosita tahlil etilgan.

Tadqiqotda tarixiylik, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiylik, qiyo-siy-huquqiy hamda ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanildi. Qolaversa, tadqiqot-da huquqiy va ijtimoiy tadqiqotning tizim-li-strukturaviy va strukturaviy-funksional tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil va yuridik amali-yotni umumlashtirish kabi maxsus metodlari-dan foydalanildi.

#### **Tadqiqot natijalari**

Intellektual mulk huquqi obyektlariga doir ma'lumotlar muhofazasi va himoyasini ta'minlashda blokcheyn texnologiyalari bu-

tun dunyoda tan olinayotgan tajribalardan biri hisoblanadi. "Blokcheyn" so'zi ingliz tili-dan olingan bo'lib, "blokklar zanjiri" ma'nosini anglatadi. Blokcheyn bir qator mutaxassislar tomonidan kelajak texnologiyasi sifatida qa-ralmoqda, uning asosiy vazifasi esa tizim-lashtirilgan ma'lumotlarni saqlashdan ibo-ratdir [3]. Ushbu texnologiya, bir so'z bilan aytganda, markazlashtirilmagan ma'lumotlar ba'zasi hisoblanib, mazkur texnologiyadan o'tgan foydalanuvchilarning ma'lumotlari yoki o'tkazmalarini o'zida zanjir ko'rinishida saqlaydi. Mazkur texnologiya o'zida minglab virtual kompyuterlarni jamlagan bo'lib, foy-dalanuvchilar o'zlari uchun alohida yaratil-gan kalit bilan tranzaksiyalarini amalga oshiradilar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil avgust oyi o'rtalarida, mazkur tex-nologiya, ya'ni blokcheyn hamyoniga ega bo'lgan 75,6 milliondan ortiq foydalanuvchi butun dunyo bo'ylab ro'yxatga olingan [4].

O'z navbatida blokcheyn texnologiyasi-ning konsepsiyasi 2008-yilda Satoshi Nako-moto tomonidan taklif etilgan, butun dun-yoga birinchi marta 2009-yilda realizatsiya qilingan. Uning birinchi shakli bitkoin bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning aso-siy va umumiy reyestri sifatida namoyon bo'lgan. Dastavval blokcheyn texnologiyasi moliya va bank sektorlarida jadal foydala-nilgan [5]. Hozirgi kunda ushbu texnologi-yaning qo'llanish sohalari ijtimoiy munosa-batlarning rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lib, deyarli barcha sektorlarda qo'llanmoqda: xususan, transport, ta'lim, meditsina, jinoyat protsessi, davlat xizmatlari, turizm, qishloq xo'jaligi, ko'chmas mulk va h.k. [6] Blokcheyn texnologiyalarining jamiyat hayotida qo'lla-nish sohasi chegaralanmagan [7]. Ushbu tex-nologiyadan kasallik tarixi yozuvlaridan tor-tib saylov jarayonlari kabi ko'plab sohalarda-gi ma'lumotlarni yozib olish, saqlash va kuza-tish uchun foydalanish mumkin.[8]

Mazkur texnologiyaning eng muhim jihati undagi raqamli ma'lumotlar buzilmasligi bilan xarakterlanadi, ya'ni blokcheyn texnologiyasi:



1. Markazlashtirilmagan. Markazlashtirilmaganlik yoki markazsizlashtirish tushunchasi ixtisoslashgan boshqaruv organi-siz, ya'ni markazlashtirilmagan holda biror narsani, odatda qandaydir platforma yoki loyihani boshqarish ma'nosini anglatadi. Misol uchun, agar menejerlar yoki ma'muriy organ boshqaruv vakili taqdim etadigan vositalar yoki uchinchi shaxslar bo'lmasa, taqdim etilayotgan ma'lumotlar yoxud loyiha markazlashtirilmagan hisoblanadi. Markazlashtirilmagan tizimda ishtirokchilar va bitimlar haqidagi barcha ma'lumotlar saqlanadigan bittagina server bo'lmaydi [9]. Balki markazlashtirilmagan tarmoqda barcha ma'lumotlar bir nechta serverga tarqaladi. Ma'lumotlarning yagona serverga ulanmaganiga qaramasdan, agar serverlarning biri yopilsa yoki ishlaymay qolsa ham, bu butun markazsizlashtirilgan tizimning ishlashiga ta'sir o'tkazmaydi. Mutaxassislariga ko'ra, markazlashtirilmagan tizim bu – tarmoqqa ulangan barcha foydalanuvchilar o'rtasida ishtirokchilar va operatsiyalar haqidagi barcha ma'lumotlarni ma'lum darajada taqsimlashdir. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish karantin sharoitlari bilan bog'liq vaziyatda juda ommalashib, ularga bo'lgan talab keskin oshib ketdi. Bu yo'nalishda albatta xavfsizlik va himoya nuqtayi nazaridan tegishli chora-tadbirlarni ko'rish talab etiladi [10].

2. Taqsimlangan reyestrning mavjudligi. Blokcheyn texnologiyasining taqsimlangani, ya'ni taqsimlangan reyestrga egaligi kabi afzalligi ma'lumotlar muhofozasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Taqsimlangan reyestr bir nechta tarmoq tizimlari yoki hisoblash qurilmalari o'rtasida taqsimlangan ma'lumotlar bazasidir. Har bir tarmoq uzeli boshqa tarmoq uzellaridan ma'lumotlarni oladi va reyestrning to'liq nusxasini saqlaydi. Tarmoq uzeli yangilanishlari bir-biridan mustaqil ravishda sodir bo'ladi [11]. Taqsimlangan reyestrning asosiy xususiyati yuqorida ta'kidlangani kabi markazlashtirilmagan tizim bilan bog'liqligidir,

ya'ni bitta boshqaruv markazining yo'qligi. Har bir tarmoq uzeli boshqa tarmoq uzellaridan mustaqil ravishda reyestrning yangilanishlarini amalga oshiradi hamda tegishli qaydlar qiladi [12]. Keyingisi tarmoq uzellari tomonidan yangilangan ma'lumotlar uchun ovoz berish bosqichi bo'lib, ushbu jarayon tarmoq uzellarining aksariyati yakuniy versiyaga mos kelishiga ishonch hosil qilish uchun amalga oshiriladi. Ovoz berish va reyestrning nusxalaridan biri bo'yicha kelishuvga erishish konsensus deb ataladi, bu jarayon konsensus algoritmi yordamida avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Konsensusga erishilgandan so'ng taqsimlangan reyestr yangilanadi va ro'yxatga olishning so'nggi kelishilgan versiyasi har bir tarmoq uzeli saqlanadi [13]. Boshqa manbalarda ham taqsimlangan reyestr texnologiyasi (distributed ledger technology) ma'lumotlar bazasini yaratishda yangi metodikani taqdim etib, bir qator bog'lanmalardan iborat bo'lishi hamda bir bog'lanma ikkinchi bog'lanmadan mustaqil ravishda reyestrning yangilanishini tashkil etadi [14].

3. Ko'chirmalarning ochiqligi va shaffofligi. Mazkur prinsip ko'pgina sohalarning asosi bo'lib xizmat qilayotgani barchamizga ma'lum. Sababi, har bir tashkilotda yo'lga qo'yilgan mexanizmlarning ochiq va shaffof ishlashi taraqqiyotga eltuvchi yo'ldir [15]. Jamiyatning farovon yashash sharoitiga erishishi, davlat tizimining shaffof ishlashi ham o'z o'rnida mamlakatning boshqa davlatlar oldidagi imijiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [16]. Ochiqlik va shaffof mexanizmning tashkil etilishida muhim ahamiyat aks etadi. Xususan, mazkur prinsiplar doimo bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishiga qaramasdan, bir-biridan birmuncha farq qilishini ham ta'kidlab o'tish joiz. Ochiqlik shaffoflikdan tizimga faol ta'sir o'tkazish imkoniyati bilan farq qiladi [17]. Axborotning ochiqligi, umuman tizimning ochiqligi hozirgi kunda zaruriy shart bo'lib, u sezilarli darajada amalga oshirilishi, ya'ni mazkur prinsipning ishlayot-

gani jamiyat hayotida namoyon bo'lishi kerak [18]. Bugungi kunda resurslarning balansli hisob-kitob bilan sarf etilishi sharoitida ushbu jihat davlat idoralari va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ta'minlashga hissa qo'shadi [19]. Shu bilan birga, har qanday ijtimoiy munosabatlarda taraflarning o'zaro hamkorligini axborotning ochiqligidan kelib chiqqan holda tartibga solish zarur hisoblanadi [17]. Shu o'rinda tarmoq uzellari tushunchasiga aniqlik kiritishimiz joiz. Tarmoq uzeli – tegishli dasturiy ta'minot o'rnatilgan va taqsimlangan ma'lumotlar bazalarini o'rnatilgan dasturiy ta'minot bilan birgalikda saqlaydigan qurilma [20]. Bunday tizimda tarmoq ishtirokchilarining tarmoq uzellari bir-biriga ma'lumot almashish va tasdiqlash uchun ulanadi, bu esa, o'z navbatida, an'anaviy markazlashtirilgan tizim mavjud bo'lgan manbalardan tubdan farqlanadi [21]. Tarqatilgan reyestrlar ma'lumotlar bazasining zaruriy nusxalarini bir nechta tugunlarda saqlashga imkon beradi va shu bilan bir qatorda, operatsion barqarorlikni ta'minlaydi [22]. Taqsimlangan ma'lumotlar bazalaridan farqli o'laroq, taqsimlangan reyestr tizimining har bir ishtirokchisi o'zgarishlarning butun tarixini saqlaydi va konsensus algoritmi yordamida tizimga har qanday o'zgarishlarni qo'shishni tasdiqlaydi, bu esa ishonchli tugunlarning ma'lum bir qismi bilan ma'lumotlarni qalbakilashtirish mumkin emasligini matematik algoritm asosida kafolatlaydi. Biroq hech bir ishtirokchi tizimdagi ma'lumotlarni boshqa ishtirokchilarni xabardor qilmagan holda o'zgartira olmaydi, ya'ni agar bir foydalanuvchi tizimga kiritilgan ma'lumotlarni o'zgartirsa, o'zgartirilgan ma'lumot kompyuter o'chiq yoki yoniq bo'lishidan qat'i nazar, ikkinchi foydalanuvchiga ko'rinadi [23]. Buning yordamida taqsimlangan reyestr texnologiyasi ichida joylashgan ma'lumotlar ishonchli hamda barcha o'zgarishlar shaffofligi ta'minlanadi.

4. Kriptohimoya. Kriptohimoya, o'z navbatida, kriptografiya bilan bevosita bog'liq bo'lib, kriptografiyaning hozirgi kunda ma'lu-

motlar muhofazasi va himoyasini ta'minlashda eng ishonchli usul va vosita sifatida qarayotgani ham uning ahamiyatini bildiradi. Kriptografiya – axborotni himoya qilish, uni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish vositalarini o'rganadigan fan. Kriptografiyaning yana bir vazifasi – shifrlash yordamida uzatiladigan axborotning haqiqiyliги (haqiqiyliги va o'zgarmasliги)ni saqlab qolishdir. Bevosita, ma'lumotlarni kriptohimoyalashning tarixiga e'tibor qaratsak, odatda kriptografik tizimlarning paydo bo'lishi miloddan avvalgi uchinchi ming yillikka borib taqaladi deb qaraladi, ya'ni ular haqida birinchi qaydlarni qadimgi Misr iyerogliflari orasida topish mumkin. XX asrgacha mazkur faning klassik rivojlanish davri amalga oshirilgan [27]. Uning xarakterli xususiyati shundaki, o'sha davrda axborotni kriptografik himoyalash uchun monoalfabetik tizimlardan foydalanilgan. O'rta asrlarda ularga qo'shimcha ravishda polialfabetik tizimlarda qo'llana boshlandi. XX asr boshlarida mutaxassislar murakkab himoya vositalaridan foydalana boshladilar. Bu ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi, shuningdek, elektr energiyasining rivojlanishiga bog'lash mumkin. Polialfabetik shifrlar hali ham ma'lumotni yashirish uchun ishlatiladi, ammo rivojlanish bilan bir qatorda ma'lumotlarni kriptohimoyalashda oldinga katta qadam tashlandi, sababi, endi ma'lumotlar masofadan uzatilib, matn avtomatik ravishda shifrlanadigan bo'ldi. Shu o'rinda kriptografiyaning ma'lumotlarni himoya qilishdagi roli axborotni kriptografiya orqali himoya qilishida namoyon bo'ladi, axborotga nisbatan dostupni emas. Kriptografiya kompyuter tizimlari va tarmoqlarida zamonaviy axborot xavfsizligi tizimlarining metodologik asosi hisoblanadi [24]. Bu esa, o'z navbatida, ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar noqonuniy foydalanishining oldini olish maqsadida ularga mazkur ma'lumotlardan foydalanish imkoni yo'q qilib ko'rsatib himoya qilishga qaratilgan ma'lumotlarni

o'zgartirish usullarini kriptografiya taqdim etadi. Kriptografiyaning bu kabi imkoniyatlari ma'lumotlar muhofazasidagi uch asosiy muammoni bartaraf etishga yordam beradi. Ular doirasiga uzatiladigan yoki saqlanadigan ma'lumotlarning maxfiyligi; ma'lumotlarning yaxlitligi; kiritilgan ma'lumotlarning haqiqiylikini ta'minlash.

5. Anonimlik. Anonimlik (yunoncha: "nomsizlik" so'zidan olingan bo'lib) – biror narsa (yoki biror harakat) haqida yozayotgan (yoki qilayotgan) kishining ismini ko'rsatmasdan xabar berish. "Anonim" so'zi odatda u yoki bu shaxs uchun xabar berilayotgan manbasi noma'lum bo'lgan vaziyatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Anonimlik g'oyasi shaxsni aniqlash imkoniyatining mavjud emasligidan iboratdir. Anonimlik tushunchasi maxfiylik va erkinlik tushunchalari bilan bog'liqdir. Blokcheyn texnologiyasi foydalanuvchilar haqidagi ma'lumotlar bilan birga kiritilgan tranzaksiyalar haqida ham anonimlik saqlanishini ta'minlaydi. Misol uchun, texnologiya har qanday yurisdiksiyalar o'rtasida transchegaraviy tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyatini berishi, shu bilan bir qatorda, tranzaksiyalarning kim tomonidan qayerga yo'naltirilayotgani haqida axborotni anonim tarzda amalga oshiradi. Qolaversa, texnologiya muayyan mamlakat hukumatining irodasidan qat'i nazar, dunyoning istalgan nuqtasida xayriya, ta'lim va siyosiy tashkilotlarni moliyalashtirishga ham imkon beradi [25].

### **Tadqiqot natijalari**

Tadqiqot natijalari bo'yicha mazkur texnologiya o'zining bir qator xususiyatlari bilan ahamiyatlidir. Xususan, raqamli ma'lumotlarni saqlashda, ma'lumotlarning bevosita markazlashtirilmaganligi huquqni himoya qilish, uning muhofaza qilinishi va ta'minlanishining eng muhim omillaridan biridir [17]. Amaliyotga ko'ra, har qanday huquq himoya qilish mexanizmi bilan mustahkamlangan bo'lsagina, uni amalga oshirish mumkin. Shu bilan bir qatorda, shaxsga doir ma'lumotlarn-

ing bevosita internet bilan bog'liqligi ham barchamizga ayon. Bu esa ma'lumotlarga nisbatan hujumni kuchaytiradi. Shu sababli markazlashtirilmagan tizimning eng katta afzalligi bu kabi hujumlardan ma'lumotlarni muhofaza qilishidir. Markazlashtirilmagan tizimlarning yana bir xususiyati shundaki, tarmoqda tranzaksiyalar va uning tugash vaqti, qancha ishtirokchi va hamyon raqamlarini biron-bir usulda tuzatish, almashtirish yoki o'chirish imkoni mavjud emas, sababi ma'lumotlar markazlashtirilgan holda saqlanmasligi, ushbu holatga sharoit yaratmasligida. Shuningdek, jismoniy yoki yuridik shaxs markazlashtirilmagan tizimga ta'sir eta olmaydi. Mazkur tushuncha, o'z navbatida blokcheyn tushunchasi bilan birga qo'llanishi ommalashib bormoqda. Blokcheyn texnologiyasining o'zi markazlashtirilmagan tarzda ishlaydigan va foydalanuvchilar hamda bitimlar haqida ma'lumot va blok zanjirlarini saqlaydigan ma'lumotlar bazasidir [26]. Blokklar o'zaro bog'langan va tarmoqning har bir a'zosi qurilmalarida saqlanadi. Ushbu tarmoqning o'ziga xos xususiyati – foydalanuvchi ushbu ma'lumotlar bazasining to'liq nusxasiga ega bo'lishidir. Bevosita ma'lumotlarning yagona markazga birikmagani, foydalanuvchilar o'rtasida, ularning joylashuvidan qat'i nazar, zanjirdagi bloklarni ko'chirish imkonini beradi.

Bu esa vositachilardan foydalanish zaruriyatini yo'qotishi, ma'lumotlarning bir joydan ikkinchisiga ko'chirilishida vujudga keladigan xarajatlarning keskin kamayishiga, axborotlarning ishlab chiqilish jarayonini osonlashtirib, tezlashtirilishiga sababchi bo'ladi. An'anaviy ma'lumotlar bazasi bilan blokcheyn o'rtasidagi asosiy farq shuki, blokcheynda ma'lumotlar yagona markazda to'planmaydi. Mazkur texnologiyada ma'lumotlar almashinuvi tezligi va aniqligi hamda markaziy saqlash tizimi mavjud bo'lmasligi bilan ahamiyatga ega. Bevosita blokcheyn texnologiyalarining markazlashtirilgan saqlash tizimi mavjud bo'lmasligiga qaramasdan

mazkur markazlashtirilmagan bazada doimiy ravishda o'sib boruvchi bloklar, ya'ni tizimlashtirilgan ro'yxat saqlanadi. Yangi yozuvlar, tizim foydalanuvchilarining ko'pchilik ovozi bilan maqullangan holdagina kiritiladi hamda oldin muayyan vaqtda kiritilgan axborot o'zgartirilishining hamda tizimdan o'chirilishining imkoni mavjud emas.

Shu bilan bir qatorda, ta'kidlash joizki, axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlardir. Yuqorida ta'kidlangani kabi blokcheyn texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari uning ma'lumotlar muhofazasidagi rolini oshiradi. Texnologiyada saqlanayotgan ma'lumotlarning xavfsizligi yuqori darajada ta'minlanadi. Ushbu xavfsizlikka blokcheynda saqlanayotgan axborotlarning, yozuvlarning shaffof va o'zgarimas bo'lib qolishi tufayli erishiladi, bunga esa har bir yozuvni katta tarmoq bo'ylab bir nechta uzellarga taqsimlagan holda saqlash orqali erishiladi. Bir qator davlatlarning katta ma'lumotlarni "Big Data"da (Katta ma'lumotlar (ing. "big data") – maxsus kompyuter texnologiyalari yordamida analiz qilingan katta hajmli va sezilarli xilma-xillikdagi ma'lumotlar massivlari) saqlashda yutuqqa erishayotgani bilan bir qatorda, shaxsiy ma'lumotlarni saqlash bilan bog'liq qonunchilikka zid kelishi haqida ham ta'kidlanmoqda [9].

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Bevosita milliy qonunchiligimizda, xususan, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuniga binoan shaxsga doir ma'lumotlar – muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborotdir. Bevosita Yevropa Ittifoqining umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi nizomining shaxsga doir ma'lumotlar talablari ko'rib chiqsak, unda blokcheyn xavfsizligining mohiyati shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish

uchun zarur bo'lgan maxfiylikka zid keladi. Sababi, Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga binoan shaxsiy ma'lumotlar jismoniy shaxsga tegishli barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Jismoniy yoki yuridik shaxsga doir axborotni o'z ichiga olgan ma'lumotlar shaxsiy hisoblanadi. Blokcheyn texnologiyasi esa, o'z navbatida ma'lumotlarni qayta ishlaydi. Shu sababli shaxsga doir ma'lumotlarni saqlashda blokcheyn texnologiyasini tatbiq etish uchun Ittifoq shaxsga doir ma'lumotlar bilan bog'liq qonunchiligiga tegishli tartibda o'zgartish kiritishi mutaxassislar tomonidan maqsadga muvofiqligi ta'kidlanmoqda [27].

### **Xulosalar**

Demak, foydalanuvchilar tomonidan kiritilgan yangi ma'lumotlarni saqlash hamda aqlli kontraktlar kabi yangi ilovalarni yaratishga imkon beruvchi dasturlashtiriladigan platformaning yangi versiyasi hisoblanmish blokcheyn texnologiyasi ma'lumotlarning yagona markazi tomonidan boshqarilmasligi, kiritilayotgan ma'lumotlarning muhofazasi yuqori darajada ekanligi bilan boshqa markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasidan farq qiladi. Texnologiya ma'lumotlarning boshqa shaxslarning hujumidan, o'zgartishlardan, noqonuniy foydalanish va o'chirib yuborilishining oldini olishga xizmat qiladi desak adashmagan bo'lamiz.

Yuqoridagi tahliliy fikrlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash joizki, yirik banklar va ayrim davlat strukturalari "blokcheyn"dan yoki hatto taqsimlangan reyestrlar sifatida oddiy "blokcheyn"dan axborot saqlash va tranzaksiyalar amalga oshirish usulini keskin o'zgartirish uchun foydalanadi. Ular maqtovga loyiq maqsadlarni ko'zlaydi: tezlik va xavfsizlikni oshirish, qiymatni pasaytirish, xatolar sonini kamaytirish, ishdan chiqish va zaiflik markaziy nuqtalarini bartaraf qilish kabi. Blokcheyn texnologiyasi tashkiliy-texnik jihatdan bir qator xususiyatlari bilan boshqa texnologiyalardan farqlanadi. Xususan:

*Birinchi*dan, blokcheyn tizimida axborot almashinuvi reyestr foydalanuvchilari tomoni-



dan ishlab chiqilib tasdiqlanadi. Shu sababli tizimda blok zanjirlarining nusxalari saqlanadi. Ushbu texnologiyaning asosiy vazifasi axborotni saqlash uslubi bo'lgani sababli blokcheynda har qanday turdagi axborotlar, raqamli va raqamlashtirilayotgan ma'lumotlar zanjir ko'rinishida saqlanishi mumkin. Qisqa qilib aytganda, blokcheyn texnologiyalari axborot texnologiyalarini saqlash revolyutsiyasining boshlanishi deb baholanishi mumkin.

*Ikkinchidan*, taqsimlangan reyestr texnologiyasi foydalanuvchilarning ma'lumotlarini ishonchli himoyalashning narxini sezilarli darajada pasaytiradi. Taqsimlangan reyestrlardan foydalanish banklar, davlat idoralari, advokatlar, notarial idoralar va tartibga soluvchi organlarga qaramlikni kamaytirishga yordam beradi.

*Uchinchidan*, texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlari yuqorida ta'kidlangani kabi o'zgarmasdir, ya'ni bir marotaba kiritilgan ma'lumotlarni tegishincha o'zgartirib bo'lmaydi. Agar ma'lumotlarda o'zgarish kiritish talab etilsa, u haqdagi ma'lumotlar alohida kiritilib, eski va yangi ma'lumotlar tizimdan foydalanuvchilarda tegishli tartibda ko'rinadi. Ya'ni barcha amalga oshirilgan ko'chirmalar zanjir bloklar ko'rinishida saqlanib qolib, foydalanuvchilar ko'chirmalar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishlariga qaramasdan ularni amalga oshirgan foyda-

lanuvchining shaxsi haqida ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Texnologiya, unga kiritilgan ma'lumotlar ochiq va shaffof bo'lishi bilan bir qatorda, shaxsga doir ma'lumotlarni anonim tarzda saqlanishini ta'minlaydi.

*To'rtinchidan*, axborotni kriptografik himoya qilish vositalari – axborotni kriptografik o'zgartirish algoritmlarini amalga oshiradigan va aloqa kanallari orqali uzatish paytida ma'lumotlarni himoya qilish va (yoki) axborotni qayta ishlash va saqlash paytida ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan apparat, dasturiy va apparat-dasturiy vositalar, tizimlar hamda komplekslardir. Kriptografiyada barcha ko'chirmalar elektron raqamli imzo bilan imzolanadi hamda tasdiqlanadi. Blokcheynda kriptografik metodlardan foydalangan holda ma'lumotlarning shifrlanishi ta'minlanadi.

*Beshinchidan*, mazkur texnologiyada foydalanuvchilarning manzili sifatida 32 bitlik abstrak raqamlar qo'llanadi. Hozirgi kompyuterlarning imkoniyati bunday miqdordagi bitlarga ega bo'lgan ma'lumotlarni buzib kira olish qobilyatiga emas. Shu sababli ma'lumotlar muhofazasi sifatli ta'minlanadi. Biroq ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, texnika taraqqiyoti natijasida foydalanuvdagi kompyuterlarning dasturiy ta'minoti kuchaytiriladigan bo'lsa, abstrak raqamlar ustida ishlashini ham taqozo etishi kutiladi.

## REFERENCES

1. Intellektual mulk. Darslik [Intellectual property]. Eds. O. Oqyulov, N.E. Gafurova. Tashkent, TSUL, 2019, p. 588.
2. Afanas'yev A.V. Intellektual'naya sobstvennost' i avtorskoye pravo v Internetе [Intellectual property and copyright in the Internet]. Property Relations in the Russian Federation, 2006, no. 2. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/intellektualnaya-sobstvennost-i-avtorskoe-pravo-v-internete/> (accessed 11.04.2022).]
3. Yakubova I., Yakubov O. Shaxsiy hayot daxlsizligi masalalarining O'zbekiston hamda chet el mamlakatlari qonunchiligi bo'yicha qiyosiy tahlili [Comparative analysis of privacy issues under the legislation of Uzbekistan and foreign countries]. *Legal Journal*, 2021, vol. 2 (1), pp. 268–276. Available at: <https://www.yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/188/>.

4. Yuldashov A. Intellektual mulk bo'yicha milliy strategiyalarning ahamiyati va butunjahon intellektual mulk tashkilotining bu borada tutgan o'рни [The importance of national strategies for intellectual property and the role of the World Intellectual Property Organization in this respect]. *Legal Information*, 2020, no. 2. pp. 53–59.
5. Bakhramova M. The principles of International Arbitration. *Online Journal of Sustainability and Leadership Studies*, 2021, vol. 1 (6), pp. 124–133. Available at: <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/428/>.
6. Yuldashov A. Mualliflik huquqini xalqaro doirada muhofaza qilishning muhim jihatlari va shartnomaviy-huquqiy bazani rivojlantirish [Important aspects of copyright protection in the international arena and development of the contractual legal framework]. *Review of Law Sciences*, 2020, spec. no., p. 231.
7. Bakhramova M. Online Dispute Resolution: Digitalized Disputes and Their Legal Basis. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2022, vol. 1 (8), pp. 25–29. Available at: <http://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/962/>.
8. Mukhammedov T., Yakubova I. Obespecheniye prav na intellektual'nyuyu sobstvennost' (tovarnyye znaki i geograficheskiye ukazaniya) v ramkakh soglasheniya TRIPS [Ensuring of intellectual property rights (trademarks and geographical indications) under the TRIPS agreement]. *Society and Innovation*, 2021, vol. 2.5/S, pp. 532–540. Available at: <https://www.yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/188/>.
9. Abdugopirovich Y.A. Types of Legal Protection of a Trademark (Service Mark) in Foreign Countries: The Example of the Madrid System. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education*, 2021, no. 4, pp. 1068–1073.
10. Bahramovna B.M. Raqamli makonda onlayn nizolar tushunchasi va ularning huquqiy maqomi [The concept of online disputes in the digital space and their legal status]. *Journal of Sustainability and Leadership Studies Online*, 2022, pp. 163–168. Available at: <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/1634/>.
11. Blockchain technology. State of the art and key insights, pp. 10, 62.
12. Sal'nikova A. V. Tekhnologiya blokcheyn kak instrument zashchity avtorskikh prav [Blockchain technology as a tool for copyright protection]. *Actual Problems of Russian Law*. DOI: 10.17803/1994-1471.2020.113.4.083-090/.
13. Ruzakova O.A., Green E.S. Application of Blockchain technology to systematization of results of intellectual activity. *Vestnik of Perm University, Legal sciences*, 2017, p. 508.
14. Yakubova I. Ponimaniye kollektivnogo upravleniya avtorskikh prav v istoricheskom kontekste [Understanding Collective Copyright Management in Historical Context]. *Law Journal*, 2020, vol. 1.6, pp. 76–80. Available at: <https://www.yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/144/>.
15. Ponomarchenko A.E. Blockchain technology in the sphere of copyright. *Legal Concept, Legal Paradigm*, 2021, no. 4, pp. 148–152. DOI: 10.15688/lc.jvolsu.2021.4.20/.
16. Muhammad N., Mokhinur B. The role and importance of odr in modern business society. *Academia, An International Multidisciplinary Research Journal*, 2021, vol. 11 (4), pp. 1296–1304. Available at: <https://indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=4&article=220/>.
17. Yuldashov A., Choriev M. Contractual-legal relations in the field of copyright and liability for copyright infringement: national and foreign experience. *Society and Innovation*, 2020, vol. 1.1/s, pp. 511–522.
18. Yuldashov A.A. Government policies related to social protection of disabled persons in Uzbekistan: national and international aspects.
19. Okyulov O. Pravovoy status intellektual'noy sobstvennosti [Legal status of intellectual property]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2000.
20. To'raqulova N., Yo'ldoshev A. Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish mexanizmini takomillashtirishda xalqaro shartnomalarning roli va ahamiyati [The role and importance of international agreements in improving the mechanism of intellectual property rights protection]. *Proceedings of the Conference*. 2022, pp. 467–471.

21. Fedoskina N.I. Civil law methods of protection of copyright and related rights in the Russian Federation. PhD thesis. 12.00.03. Moscow, 2009.
22. Morgunova E. A. Collective management of property copyrights as a civil law institution. PhD thesis. Moscow, 2005.
23. Anderman S.D., Kallaughner J. Technology Transfer and the New EU Competition Rules: intellectual property licensing after modernisation. Oxford University Press, 2006.
24. Malbon J.E., Lawson C.G. Interpreting and Implementing the TRIPS Agreement: Is it fair? 1th ed. Law School, Monash University, Melbourne, Australia, 2008.
25. Abdixakimov I. Cyber Crimes in Digital Economy. *Elita.uz, Elektron ilmiy jurnal – Elita.uz, electronic scientific journal*, 2022, vol. 1 (1), pp. 1–5.
26. Yo'ldoshov A. Geografik ko'rsatkich tushunchasi va uning iqtisodiyotni mustahkamlashdagi ahamiyati [The concept of geographic indicator and its role in strengthening the economy]. *Lawyer Newsletter*, 2021, Tashkent, vol. 2, no. 1, pp. 249–257.
27. Yuldashov A. Vazhnyye aspekty mezhdunarodnoy okhrany avtorskogo prava i razvitiye dogovorno-pravovoy bazy [Important aspects of international copyright protection and the development of the legal framework]. *Review of Law Sciences*, 2020. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/vazhnyye-aspekty-mezhdunarodnoy-okhrany-avtorskogo-prava-i-razvitie-dogovorno-pravovoy-bazy/>.

UDC: 347.72.023+659.23(045)(575.1)

## MASLAHAT VA KONSALTING XIZMATLARI – NATIJAGA ASOSLANGAN XIZMATLAR(MI?)

**Asadov Shahriddin Faxriddin o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Fuqarolik huquqi kafedrası o'qituvchisi  
ORCID: 0000-0002-1603-266X  
e-mail: shahriddinasadov@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada turli sohalarda ko'rsatilayotgan maslahat va konsalting xizmatlari, ularni huquqiy tartibga solish masalalari, shuningdek, mazkur xizmatlarni ko'rsatish yuzasidan tuziladigan bitimlar va ulardan ko'zlangan maqsadlar haqida fikr yuritiladi. Bizga ma'lumki, fuqarolik huquqida ushbu huquq tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar doirasini belgilash jarayonida turli ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish bir-biridan farqlanadi. Shuningdek, ish va xizmatlarni bir-biridan ajratishga asoslangan tasnif asnosida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi va pudrat shartnomasiga oid munosabatlar alohida (boshqa-boshqa) normalar bilan tartibga solinishi belgilanadi. Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining bir turi sifatida baholanadigan maslahat va konsalting xizmatlari oxirgi yillardagi ilm-fan, raqamli texnologiyalar va internet tarmog'ining rivojlanishi natijasida tobora yangicha ko'rinish kasb etmoqda. Ushbu o'zgarishlar natijasida konsalting xizmatini ko'rsatish asosida turli ashyoviy ko'rinishdagi ishlarni bajarish holatlari ham kuzatilmoqda. Mazkur maqolada bevosita qator sohalarda ko'rsatiladigan maslahat va konsalting xizmatlarining misolida ushbu xizmatlarning haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi doirasidagi natijaga aloqador bo'lmagan "xizmat ko'rsatish"ga oid munosabatlar ekanligi yoki bevosita ko'zlangan natijaga qaratilgan "ishlar bajarish" yuzasidan vujudga keladigan munosabatlar ekanligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** konsalting xizmatlari, konsalting xizmatlari natijasi, xizmatlar foydalanuvchilari, xizmat taraflari.

## КОНСУЛЬТАЦИИ И КОНСАЛТИНГОВЫЕ УСЛУГИ – УСЛУГИ, ОРИЕНТИРОВАННЫЕ НА РЕЗУЛЬТАТ?

**Асадов Шахриддин Фахриддин угли,**  
преподаватель кафедры «Гражданское право»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** Данная статья дает представление о консалтинге и консультационных услугах, предоставляемых в различных областях, вопросах их правового регулирования, а также соглашениях о предоставлении этих услуг и преследуемых ими целях. Известно, что в гражданском праве, в процессе установления рамок отношений, регулируемых этим правом, выполнение различных работ и оказание услуг отличаются друг от друга. Также установлено, что классификация работ и услуг на основе их разделения регулируется отдельными нормами взаимоотношений, касающимися договора оказания услуг и договора подряда за плату. Консультативные услуги, которые предоставляются за плату, как вид сервисного контракта приобретают все более новый вид благодаря развитию в последние годы науки, цифровых технологий и сети Интернет. В результате этих изменений также наблюдаются случаи выполнения работ различного материального проявления на основе предоставления



консультационной услуги. В этой статье пример консультирования и консультационных услуг, предоставляемых непосредственно в ряде областей, дает представление о том, что эти услуги представляют собой отношения, связанные с предоставлением услуг, которые не связаны с результатом в рамках договора об оказании услуг за плату, или что работа, которую нужно выполнить, направлена непосредственно на предполагаемый результат, что является формирующимися отношениями.

**Ключевые слова:** консультационные услуги, результат консультационных услуг, пользователи услуг, участники услуги.

## ARE CONSULTING SERVICES RESULT-ORIENTED?

**Asadov Shahriddin Fahriddin ugli**

Lecturer, Department of Civil Law,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article gives an idea of consulting and advising services provided in various fields, issues of their legal regulation, as well as agreements on the provision of these services and their goals. We know that in civil law, in establishing the framework of relations regulated by this law, the performance of various works and the provision of services differ. It is also established that the classification of works and services on the basis of their separation is regulated by separate norms of relations concerning the contract for the provision of services and the contract for a fee. Consulting services, which are evaluated for a fee as a type of service contract, are becoming increasingly new due to the development of science, digital technologies, and the Internet in recent years. As a result of these changes, there are also cases of performing works of various material manifestations based on the provision of consulting services. In this article, an example of consulting and advising services provided directly in a number of areas gives the idea that these services are relations related to the “provision of services” that are not related to the result under a contract for the provision of services for a fee, or that the “work to be done” is aimed directly at the intended result is an emerging relationship.

**Keywords:** consulting services, the result of consulting services, service users, service participants.

### Kirish

Zamonaviy dunyodagi turli o'zgarishlar va taraqqiyot boshqa sohalarda bo'lgani kabi ma'lumotlar va ularga bog'liq munosabatlarni ham mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda tadbirkorlik faoliyatining ma'lum turi bilan shug'ullanish va sohada muvaffaqiyatga erishish uchun ushbu soha haqida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lishning o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Mavjud sharoitlar va ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar zamonaviy jamiyat kishisidan o'zi kirishayotgan munosabatlar yuzasidan imkon qadar batafsil ma'lumotga, shuningdek, ushbu ma'lumotlarni samarali qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishni talab qilmoqda. Insoniyatning ko'p yillik tajribasi shuni ko'rsatadiki, yakka shaxs yo-

xud yakka individ o'zi duch keladigan barcha munosabatlar va holatlar yuzasidan yuqori darajadagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi juda ko'p vaqt hamda harakat talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Hozirgi tezkor raqamli dunyoda esa vaqt har qachongidan ham qadrliroq va qimmatliroq ne'mat ekani e'tirof etilayotgani uni imkon qadar oqilona sarflash hamda kam vaqtda yuqori samaradorlikka erishish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Vaqtdan samarali foydalanish va imkon qadar oz vaqt sarflab ko'proq natijaga erishishga bo'lgan xohish hamda uni amalga oshirishdagi muammolar tajribali shaxslarning maslahati va yordamiga murojaat qilish orqali hal qilinishi mumkin. Jamiyatdagi qator munosabatlar yuzasidan kerakli tushuntirishlar va

zarur ma'lumotlarni olishga bo'lgan doimiy ehtiyoj mazkur munosabatlar yuzasidan tushuntirish va maslahatlar berish faoliyati bilan professional tarzda shug'ullanuvchi yangi xizmat ko'rsatuvchi qatlam – maslahat va konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar va ular tomonidan professional tarzda ko'rsatiladigan maslahat va konsalting xizmatlarini vujudga keltirdi.

### **Material va metodlar**

Maqolada mantiqiy, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, prognozlash kabi usullar hamda tizimli, funksional yondashuvlardan foydalanilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

Ushbu xizmatlarning vujudga kelishi esa mazkur munosabatlarni samarali huquqiy tartibga solish zaruratini keltirib chiqardi. Mazkur munosabatlarni samarali tartibga solish esa, o'z navbatida, ushbu munosabatlar tabiatini va xususiyatini to'g'ri belgilash bilan bevosita bog'liq. Fuqarolik huquqi nazariyasida ushbu munosabatlar haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasiga oid normalar asosida tartibga solinishi va ushbu munosabatlarning o'zi esa haq evaziga ko'rsatiladigan moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan munosabatlar sifatida ta'riflanadi. Fuqarolik kodeksi 38-bobida bevosita haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasiga oid normalar keltirib o'tiladi, ushbu bob sharhini keltirayotgan mualliflar esa quyidagicha fikr bildirishadi: sharhlanayotgan moddaning ikkinchi qismida xizmatlar hisoblangan va 38-bob bilan tartibga solinadigan muayyan harakat yoki faoliyat mazmuni yoritilgan. Bular – aloqa xizmati, tibbiyot, veterinariya, auditorlik, maslahat, axborot xizmatlari, ta'lim berish, sayyohlik xizmati [1]. Ushbu norma va unga berilgan sharhga ko'ra, maslahat xizmatlari va konsalting xizmatlarining turi bo'lgan auditorlik xizmatlari haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasiga oid normalar asosida tartibga solinadi. Fuqarolik huquqi nazariyasida mavjud nazariyaga ko'ra esa haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasiga oid munosa-

batlar ashyoviy ko'rinish kasb etmaydi [2]. Umuman olganda, fuqarolik huquqiy shartnomalar predmetiga ko'ra turli guruhlarga bo'linadi. Ushbu shartnomalar bajarishga oid shartnomalar, ashyoni topshirishga oid shartnomalar, intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish yuzasidan shartnomalar va xizmatlar ko'rsatish yuzasidan shartnomalarga bo'linadi. Ushbu shartnomalar turi bo'lgan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi doirasida bajariladigan ishlar sifatida esa aynan turli sohalarda ko'rsatiladigan maslahat xizmatlari ham ko'riladi [3].

Umuman olganda, hozirgi kunda turli sohalarda ko'rsatiladigan maslahat va konsalting xizmatlari tabiatiga ko'ra turli xususiyat kasb etishi mumkin. Ushbu xizmatlar doirasida asosan ma'lum bir xizmatlarni ko'rsatish bilan bir qatorda ba'zi hollarda turli ishlarni bajarish ham nazarda tutilishi mumkin. Hozirgi kunda konsalting bozorida ko'rsatilayotgan xizmatlarni tahlil qilish natijasida har birining o'ziga xos xususiyatlarini bilib olish mumkin. Jumladan, maslahat va konsalting xizmatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- moliya va buxgalteriya va audit sohasidagi sohasidagi konsalting xizmatlari;
- tibbiyot sohasidagi konsalting xizmatlari;
- axborot texnologiyalari, internet sohasidagi konsalting xizmatlari;
- marketing sohasidagi konsalting xizmatlari;
- biznes boshqaruvi sohasidagi konsalting;
- iqlim va tabiat muammolari bilan bog'liq masalalar;
- HR konsalting xizmatlari;
- huquqiy sohadagi konsalting va boshqalar [4].

Ushbu xizmatlarning deyarli barchasi qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, *moliya, buxgalteriya va audit sohasidagi konsalting xizmatlari*. Auditorlik firmalari tomonidan mijozlarga auditorlik xizmatlari

ushbu xizmatlarni ko'rsatish uchun belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu xizmatlar ko'rsatilishiga nisbatan qator talablar qonunchilikka muvofiq belgilanishi va ushbu xizmatlar ko'rsatilishiga nisbatan aynan belgilangan tartib nazarda tutiladi. Auditorlik xizmatlari tegishli auditorlik xizmati uchun belgilangan talablarga rioya qilingan holda amalga oshirilishi kerak [5]:

- auditor taxminlarga asosan fikr bildirishdan xoli bo'lishi va o'zining obro'sini tushiradigan faktlarga yo'l qo'ymasligi kerak;

- auditorlik tashkiloti mustaqilligiga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda auditorlik xizmatlari ko'rsatishni rad etishi kerak;

- auditor jamiyat manfaatlari ustuvorligiga rioya etishi, beg'araz bo'lishi va taxminlarga asoslanishi, manfaatlar to'qnashuvi yoki boshqa shaxslarning bosimlari sababli o'zining kasbga oid fikr-mulohazasida tavakkalchilik qilmasligi, auditorlik tashkilotining obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlarga yo'l qo'ymasligi kerak;

- auditor ushbu qonun talablariga rioya etishi, yetarli darajada chuqur kasbiy bilimga ega bo'lishi hamda kasbiy bilim va ko'nikmalarini auditorlik tashkiloti tarkibida sifatli auditorlik xizmatlari ko'rsatish uchun yetarli darajada saqlab turishi kerak.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Shuningdek, auditorlar o'z faoliyatida axborotning maxfiyligi prinsipi, auditorlik faoliyati standartlari kabi prinsiplarga ham rioya qilishi talab etiladi. Ushbu xizmatlar umumiy mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, auditorlik faoliyati asosan moddiy ko'rinishda bo'lmagan xizmatlarni bajarish bilan bog'liq. Biroq auditorlik xizmatlarini ko'rsatish mobaynida bajarilgan ishlar natijasini nazarda tutishi ham mumkin. Fuqarolik huquqidagi mavjud qarashlarga ko'ra, ushbu xizmatlar natijani topshirish bilan bog'liq bo'lsa, ishlarni bajarish va ularni topshirish bilan bog'liq normalar qo'llanishi mumkin [6].

Huquqiy xizmat ko'rsatish bo'yicha tuziladigan shartnomalar doirasida ko'rsatiladigan xizmatlar ham qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, advokat kasb etikasi qoidalariga yoki huquqiy konsalting xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha belgilangan qoidalarga muvofiq, xizmat ko'rsatuvchi o'ziga ayon bo'lgan ma'lumotlarni egasining rozilgisiz boshqa shaxsga oshkor qilmasligi nazarda tutiladi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish mobaynida rioya qilinishi lozim bo'lgan axloq normalari va tartib-qoidalar ham nazarda tutilishi mumkin. Bu, o'z navbatida, ushbu shartnomalar doirasida ijrochi tomonidan amalga oshiriladigan ishlarning natijasiga emas, balki sifatiga talab qo'yilganini anglatadi. Faqat mazkur xizmatlarni ushbu shartnoma doirasida ko'rsatiladigan va ma'lum bir ashyoviy shaklda bo'lgan natijalarni topshirish bilan bog'liq munosabatlardan farqlash lozim. Agar huquqiy xizmat ko'rsatishga oid munosabatlarda ma'lum bir ishni bajarish bilan birga uning moddiy ko'rinishda topshirilishi lozim bo'lsa, ushbu munosabatlar haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi doirasida emas, balki ishlarni bajarish va ularni topshirishga bog'liq qoidalar (pudrat shartnomasi) asosida tartibga solinishi mumkin.

Hozirgi kunda rivojlanayotgan konsalting xizmatlaridan biri sifatida HR ko'riladi. HR konsalting – har bir xodimning tashkilotni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va samaradorligi, ishlaydigan va yaxshi ishlaydigan xodimlarni boshqarish tizimini shakllantirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan inson resurslarini boshqarish sohasidagi maxsus faoliyat turi.

### **Xulosalar**

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, maslahat va konsalting xizmatlarining hozirgi kunda turli ko'rinishlari mavjud va ushbu xizmatlar o'z tabiatiga ko'ra faqat ungagina xos bo'lgan huquqiy tartibga solishni taqozo etadi. Ushbu ehtiyoj natijasi o'laroq konsalting xizmatlarining har biri uchun o'ziga xos holatlarni belgilash va huquqiy tartibga

solish mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim. Maslahat va konsalting xizmatlari sifatida qaraladigan xizmatlar hamda ushbu xizmatni ko'rsatishga ixtisoslashgan subyektlar tomonidan haqiqatda ko'rsatiladigan xizmatlar qator o'ziga xosliklarga ega. Jumladan, tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan xizmatlarning ham bir qanchasi faqat nomoddiy ko'rinishga ega bo'lgan xizmatlarda ifodalansa, boshqalari ma'lum bir ishlarni bajarish va ushbu ishlar natijasini topshirishni nazarda tutadi.

Bu bir qarashda maslahat va konsalting xizmatlariga o'xshaydigan, shuningdek, aynan maslahat va konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchilar tomonidan ko'rsatiladigan, biroq o'z tabiatiga ko'ra moddiy ko'rinishdagi natijaga aloqador bo'lmagan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan "xizmatlar"ga emas, biron-bir ishni bajarish va uning natijasini topshirishni nazarda tutadigan "ishlar bajarish"ga o'xshashlik kasb etadi. O'z navbatida, bu konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar va maslahat berish xizmati bilan shug'ullanuvchi subyektlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni moddiy ko'rinishda bo'lmagan haq evaziga xizmat ko'rsatishga oid bo'lgan munosabatlar, moddiy ko'rinishdagi natijani nazarda tutuvchi ishlar va ularning har ikkoviga xos belgilarni o'zida mujassamlashtiruvchi aralash munosabatlar sifatida tasniflash mumkinligini bildiradi.

Jumladan, *birinchi guruhga* psixologik maslahat xizmatlari, repetitorlik faoliyati doirasida ko'rsatiladigan xizmatlarni misol keltirish mumkin. Ushbu xizmatlar xizmat foydalanuvchilariga natijaga aloqador bo'lmagan va xizmatdan foydalanish mobaynida "singib ketadigan" xizmatlarni ko'rsatishni nazarda tutadi va bu munosabatlar aynan natijaga bog'liq bo'lmagan, haq evaziga xizmat ko'rsatishga oid normalar asosida tartibga solinadigan xizmatlarni nazarda tutadi. Psixologik maslahat xizmatlarida xizmat ko'rsatuvchi xizmat foydalanuv-

chisi tomonidan o'ziga taqdim etilgan ma'lumotlar asosida foydalanuvchiga rioya qilish majburiy bo'lmagan tushuntirish beradi va yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, mazkur maslahatlar ko'zlangan natijaga olib kelish yoki kelmasligi maslahat beruvchiga emas, xizmat foydalanuvchisining unga qanchalik to'g'ri rioya qilishiga bog'liqligi ham ushbu xizmatlarning natijaga aloqador bo'lmagan haq evaziga xizmat ko'rsatish doirasidagi munosabatlar ekanligining dalilidir.

*Nomoddiy ko'rinishdagi* xizmatlar xususiyati bilan bir qatorda xizmatlar natijasi mavjud bo'lishini ham nazarda tutadigan xizmatlar sifatida huquqiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi ba'zi xizmatlarni, audit va buxgalteriya xizmatlari ko'rsatish sohasidagi ayrim xizmatlarni misol keltirish mumkin. Huquqiy xizmat ko'rsatish qandaydir hujjat matnini shakllantirib berish yoki moliyaviy xizmatlar ko'rsatish moliyaviy hisobotlarni shakllantirishni nazarda tutgan hollarda ushbu xizmatlarning o'zigagina emas, balki ushbu xizmatlarning natijalariga nisbatan ham ma'lum talablar mavjudligi anglashiladi. Xizmat natijalarining ushbu talablarga javob bermasligi xizmat ko'rsatuvchisidan ushbu ishlarni qaytadan bajarishni talab qilishga yoki majburiyatni tegishli tartibda bajarmaganlik oqibatlarini qo'llashga asos bo'ladi.

*Aralash ko'rinishdagi* xizmatlar sifatida esa kontent provayderligi xizmati, ijtimoiy tarmoqlar menejeri faoliyati yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlarni misol keltirish mumkin. Ushbu xizmatlar doirasida nafaqat mavjud ijtimoiy tarmoq sahifasini yaxshilash yuzasidan maslahatlar beriladi, balki ijtimoiy tarmoq egalariga berilgan maslahat va ko'rsatmalarni amalda qo'llash, olingan bilim va ko'nikmalardan kelib chiqib postlar shakllantirishni ham nazarda tutishi mumkin. Umuman olganda, mazkur tadqiqotda sanab o'tilgan xizmatlar taraflar tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi, shuningdek, ushbu xizmatlarni ko'rsatish yuzasidan



ma'lum bir sifatlar ham belgilanishi mumkin. Agar ushbu xizmatlar sifatiga nisbatan talab qo'yilishi bilan birga natijasiga nisbatan ham talab qo'yiladigan bo'lsa, ushbu xizmatlar natijaga aloqador bo'lgan xizmatlar sifatida tavsiflanishi mumkin.

Umuman olganda, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasini huquqiy jihatdan tartibga solishga nisbatan pudrat to'g'risidagi

umumiy qoidalar va maishiy pudrat to'g'risidagi qoidalar haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasiga oid qoidalarining umumiy mazmuniga zid bo'lmasa qo'llanishi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida mavjud qoidaga asosan, konsalting xizmatlari natijaga qaratilgan bo'lishi, shuningdek, sof xizmatlar ko'rsatish tabiatiga ham ega bo'lishi mumkin.

## REFERENCES

1. Campbell R.W. Rethinking regulation and innovation in the US legal services market. *NYUJL & Bus.*, 2012, no. 9, p. 1.
2. Sitdikova L.B. Legal aspects of Consulting Services. *Russian Law: theory and practice*, 2007, no. 2, pp. 156–162.
3. Ivanova O.A. Standard and legal regulation of the consulting services market (The history of the development of consulting services market). *Contemporary Problems of Social Work*, 2017, no. 3 (2), pp. 15–23.
4. Andriianova M. Peculiarities of consulting services market regulation in Russia. *Global Science. Development and novelty*, 2017, pp. 5–8.
5. Ivanova O.A., Vinogradova M.V. Algorithm of development of management decisions on rendering consulting services in retail. *Contemporary Problems of Social Work*, 2017, no. 3 (4), pp. 28–36.
6. Baker D.C., Bufka L.F. Preparing for the telehealth world. Navigating legal, regulatory, reimbursement, and ethical issues in an electronic age. *Professional Psychology: Research and Practice*, 2011, no. 42 (6), p. 405.
7. Cho M.K., Tobin S.L., Greely H.T., McCormick J., Boyce A., Magnus D. Strangers at the benchside: Research ethics consultation. *The American Journal of Bioethics*, 2008, no. 8 (3), pp. 4–13.
8. Mirzoyev P. Civil Law Issues in Rendering Consulting Services in the Field of Investment Activity. Topical Problems of Philology and Didactics: Interdisciplinary Approach in Humanities and Social Sciences. Proceedings of the International Conference, TPHD 2018. Atlantis Press, 2019, April, pp. 280–283.
9. Herawati T., Herwastoeti M., Isrok M. Online Health Consultation Services In Indonesia Law Perspective. Proceedings of the 3rd International Conference on Indonesian Legal Studies, ICILS 2020, July 1<sup>st</sup>, 2020, Semarang, Indonesia. European Alliance for Innovation, 2021, January, p. 464.
10. Adigamova F.F., Tufetulov A.M. Training of tax consultants: Experience and prospects. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, 2014, vol. 152, pp. 1133–1136.
11. Pavlova K.S., Knyazeva N.V. Artificial Intelligence Technologies in Tax Consulting and Forensic Tax Expertise. Digital Transformation of the Economy: Challenges, Trends, New Opportunities. Proceedings of the International Scientific Conference. Springer, Cham, 2021, April, pp. 291–300.
12. Drljača Z., Muminović E. Tax Consulting as a Special Type of Service Activity. *Annual of the Faculty of Law/Godisnjak Fakulteta Pravni Nauka*, 2021, no. 11 (11).
13. Rahmonqulov H. Fuqarolik huquqining sub'ektlari [Subjects of civil law]. Tashkent, O'zbekiston Publ., 2008, 170 p.
14. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi [Civil law]. Tashkent, TSIL Publ., 2006. 384 p.
15. Greiner L.E., Metzger R.O. Consulting to management. Englewood Cliffs, NJ, Prentice Hall, 1983.
16. Procurement and Contracting. Available at: <https://www.mckinsey.com/business-functions/operations/how-we-help-clients/capital-excellence/mckinsey-major-project-delivery/procurement-and-contracting/>.

17. Asadov Sh.F. Konsul'tatsionnyye uslugi kak uslugi, okazyvayemyye na vozmezdnom osnove [Consulting services as services provided on a reimbursable basis]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2022, no. 2 (7), pp. 716–723.

18. Beckhard R., Harris R.T. Organisational transitions: Managing complex change. MA, Addison-Wesley, 1977.

19. Koryogdiyev B.U. Bitimni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo'llash fuqarolik huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida [Declaring the transaction invalid and suspending its consequences as a means of protecting civil rights]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2021, no. 1 (11), pp. 211–225.

20. Colb D.A., Frohman A.L. An organisation development approach to consulting. *Sloan Management Review*, 1970, Fall, vol. 12, no. 1.

UDC: 347.78(045)(575.1)

## KIBERMAKONDA AVATARLARNING INTELLEKTUAL MULK OBYEKTI SIFATIDA TUTGAN O'RNINI

**Norqulov Akbar Uroqovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0000-0001-9550-4698  
e-mail: akbarnorqulov@92gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kibermakon, uning paydo bo'lishi, rivojlanish asoslari va ijtimoiy tarmoqlar bilan o'zaro bog'liq jihatlari atroflicha o'rganib chiqilgan. Kibermakondagi huquqiy tartibga solish tartib-taomillari, uning huquqiy tabiati, kibermakon haqida olimlarning fikr-mulohazalari ilmiy tahlil qilib o'tilgan. Kibermakondagi ijtimoiy munosabatlar, internet olamidagi yangi munosabatlar, ularning tushunchasi, mazmun mohiyati hamda ahamiyati, kibermakondagi ijtimoiy munosabatlarning yangi obyektlari hisoblanmish avatarlarga alohida urg'u berilgan. Avatarlarning virtual dunyo, umuman kibermakon bilan bog'liq jihatlari, bu borada olimlarning keltirgan fikr va tavsiyalari maqolada o'z aksini topgan. Shuningdek, avatarlarning kibermakondan qonuniy foydalanish chegaralari va usullari ilmiy tahlil qilingan. Bu boradagi statistik materiallar ham keltirib o'tilgan. Kibermakonda nomoddiy ne'matlarning himoya qilinishi, tartibi va turlari, usullari yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda, avatarlarning intellektual faoliyat natijasi ekanligi, intellektual mulk obyekti hisoblanishi, ularning asosi sifatida olimlar tomonidan berilgan ilmiy ta'riflar tahlil qilingan. Bundan tashqari, avatarlarning intellektual mulk obyekti hisoblanishi xalqaro va milliy normalar asosida o'rganib chiqilgan. Kibermakonda avatarlarning intellektual mulk obyekti sifatida bevosita tartibga solishga qaratilgan mexanizmni yaratish hamda bu borada raqamli huquqni yanada rivojlantirish kerakligi haqida fikrlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** kibermakon, avatar, raqamli huquq, ijtimoiy tarmoq, internet.

## РОЛЬ АВАТАРОВ КАК ОБЪЕКТОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ

**Норкулов Акбар Уракович,**  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье подробно изучается киберпространство, его возникновение, основы развития и аспекты, связанные с социальными сетями. Научно проанализированы процедуры правового регулирования киберпространства, его правовая природа, мнения ученых о киберпространстве. Особое внимание уделено социальным отношениям в киберпространстве, новым отношениям в мире Интернета, их понятию, сущности и значению, а также аватарам, которые являются новыми объектами социальных отношений в киберпространстве. В статье отражены аспекты аватаров, связанные с виртуальным миром, киберпространством в целом, мнения и рекомендации ученых на этот счет. Также научно анализируются пределы и способы легального использования аватаров в киберпространстве. В связи с этим приводятся статистические данные. Объясняются порядок, виды и методы защиты нематериальных

благ в киберпространстве. Кроме того, проанализирован тот факт, что аватары являются результатом интеллектуальной деятельности, считающиеся объектом интеллектуальной собственности, изучены научные определения, данные учеными в качестве их основы. Кроме того, аватары рассмотрены как объекты интеллектуальной собственности на основе международных и национальных норм законодательства. Высказано мнение о необходимости создания механизма прямого регулирования аватаров как объекта интеллектуальной собственности в киберпространстве и дальнейшего развития цифрового права в этой связи.

**Ключевые слова:** киберпространство, цифровой мир, общение, социальные сети, аватар, Интернет.

## THE ROLE OF AVATARS IN CYBERSPACE AS AN OBJECT OF INTELLECTUAL PROPERTY

**Norqulov Akbar Uroqovich,**  
Independent Researcher,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article discusses cyberspace in detail, its appearance, the basics of development, and aspects related to interaction with social networks. A scientific analysis of the legal regulation of maintaining order in cyberspace was carried out, and its legal nature and scientists' reviews of cyberspace were analysed. Special emphasis is paid to avatars, which are considered means of social relations in cyberspace, their concept, essence, and significance of content, and new objects of social relations in cyberspace. The article reflects the characteristics of avatars associated with the virtual world, cyberspace in general, and the opinions and recommendations of scientists in this regard. There was also a scientific analysis of the characteristics of avatars associated with cyberspace, as well as the limits and methods of their legitimate use. In this regard, statistical materials conducted by scientists were also cited. Protection, order, types, and methods of intangible benefits are distinguished in cyberspace. Alternatively, the fact that avatars are the result of intellectual activity, and considered objects of intellectual property, scientific definitions given by mature scientists as their basis are analyzed, in addition, the calculation of avatars as objects of intellectual property is studied on the basis of international and national norms. In cyberspace, opinions were expressed on the need to create a mechanism aimed at the direct regulation of avatars as an object of intellectual property, as well as the further development of digital law in this regard.

**Keywords:** cyberspace, avatars, digital world, communication, social network, internet.

### Kirish

Bugungi axborot dunyosining shiddat bilan rivojlanib borishi insonlar o'rtasidagi turli munosabatlarni o'rnatish uchun asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy muloqotning tobora rivojlanib borishi bilan insoniyat o'rtasidagi ko'plab jarayonlar, jumladan, kishilar o'rtasidagi turli bitimlar, davlat organlari bilan bo'ladigan ko'pgina muloqot jarayonlari ham aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, fuqarolarning ma'lum bir qonun loyihalariga nisbatan fikrlari, kons-

truktiv takliflari, garchi ular ijtimoiy tarmoqlar orqali bildirilayotgan bo'lsa-da, inobatga olinmoqda.

T. Teylorning bildirishicha, kibermakondagi biron-bir vizual tasvirga ehtiyoj shaxsning o'z virtual belgisini yaratishga undaydi [1].

E. Rassolning fikricha, kibermakon bizni o'rab turgan yangi raqamli dunyo va u huquqsiz mavjud bo'la olmaydigan alohida olam sifatida ta'riflanadi [2].

Bundan ko'rinib turibdiki, kibermakon deb atalmish yangi virtual dunyoni ochish



uchun insoniyat har qachongidan ko'proq harakat qilishi kerak. Kibermakon bor va u yildan yilga rivojlanib bormoqda.

Ahamiyatli jihati bugungi kundagi transchegaraviy hisoblangan kibermakondagi yangi munosabatlar, masalan, avatarlar, ulardan foydalanish chegaralari va ularga bo'lgan huquqlarni aniqlash hali to'liq o'rganilmagan va mazkur vazifa olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishining asl maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda avatarlar kibermakon foydalanuvchilari tomonidan turli ijtimoiy tarmoqlarda, platformalarda, messenjerlarda, chatlarda foydalaniladigan obyektlardan biriga aylanib bormoqda.

Bilish mumkinki, axborot telekommunikatsiyalari tobora rivojlanib borayotgan davrda har bir inson o'zi istab yoki istamasdan turli ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Kibermakondagi ijtimoiy tarmoqda munosabatga kirishishdan oldin shaxsiy kabinetida biron-bir surat joylashtirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur holatda turli ijtimoiy tarmoqlarda surat joylashtirgandan so'ng munosabatga kirishish kerak degan qoida mavjud emas, balki surat joylashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri shaxsiy kabinet egasi tomonidan yuborilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligi yoki askincha ekanligiga ta'sir ko'rsatadi.

Kibermakonning ramziy belgisiga aylanib borayotgan avatarlar – kibermakonda yashovchi insonlar, uy hayvonlari yoki boshqa xayoliy belgilarni tasvirlaydigan haqiqiy yoki xayoliy moslashtirilgan shaxsiy belgilar hisoblanadi.

### **Material va metodlar**

Mazkur sohada tadqiqotni amalga oshirish davomida tadqiq etilgan soha sifatida kibermakon, kibermakondagi munosabatlar, obyektlar va ular bilan bog'liq huquqiy tomonlar o'rganildi.

Yig'ilgan ma'lumotlar doirasida kibermakon, virtual olamdagi barcha ijtimoiy muno-

sabatlar va ularni huquqiy tartibga solishga qaratilgan huquqiy yechimlar birma-bir tahlil qilindi.

Tadqiqot ishida tizimli tahlil qilish, tarixiy holatlarni xalqaro mansablar asosida taqqoslash, ilmiy asoslantirish va isbotlash, tizimli-mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya usullari tahlil qilingan.

Xususan, mavzu predmeti bo'yicha va tadqiqot obyekti sifatida xalqaro huquqiy normalar va milliy huquqiy normalar asosida tizimli tahlil etilgan.

Mavjud holatlar kibermakon, kibermakondagi ijtimoiy munosabatlar, avatarlar, ularning kelib chiqish tarixi, rivojlanish va intellektual mulk obyekti sifatida baholanishining asosiy mezonlari tahlil qilib o'tilgan.

Ilgari surilgan fikrlar, yondashuvlar milliy va xorijiy manbalar asosida o'rganib chiqilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

Bugungi kundagi axborot texnologiyalari sohalarining rivojlanib borishi bilan kibermakon, undagi ijtimoiy munosabatlar, ulardan foydalanish chegarasi, shuningdek huquqiy nuqtayi nazardan tartibga solish ilmiy ishning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi.

Kibermakon haqida dastlabki qarashlar 1984-yilga borib taqaladi. 1984-yilda amerikalik yozuvchi U. Gibsonning jamiyat va raqamli texnologiyalar haqidagi "Neyroman" romanida keltirilgan [3].

Kibermakon, virtual dunyo degan tushunchalar bugun kirib kelgan yangi termin sifatida baholanmaydi. O'tgan davr mobaynida axborot davrining rivojlanishi kibermakon haqida yanada ko'proq ma'lumotlar olish zaruriyatini qo'yimoqda.

Y. Dobrinskaya zamonaviy dunyoda kibermakon faqat axborotlar va texnologiyalar to'qnashadigan joyga nisbatan ishlatilishini aytib o'tgan [4].

N. Jeyk, R. Berkmanlarning ta'kidlashicha, kibermakon bizni o'rab turgan muhit-

ning elektron ko‘rinishi hisoblanib, bugungi zamonaviy dunyoning barcha jihatlarini o‘zgartirib o‘ziga moslashtirayotgan parallel dunyo sifatida ishlash, sayohat qilish, muloqot, ma’lumotlarni jo‘natish va saqlash, savdo qilish, ko‘ngilochar va insoniyat hayotining boshqa jabhalarini raqamli tarzda tashkil etishdir [5].

L. Yefemovanning ta’rificha, kibermakon qonuniy ravishda mavjud bo‘lgan va barcha mamlakatlarda har kuni millionlab operatsiyalar bilan ta’minlagan gallyutsinatsiyadir. Kibermakon bugungi kunda elektron obyektlar o‘rtasidagi o‘zaro katta hajmdagi ma’lumotlar tarqatish, tiklash, almashish va boshqarish imkoniyatini yaratib beradigan dunyo hisoblanadi [6].

Kiberdunyo deb atalmish makonda yangi muhit, insonlar uchun yangilangan sharoit sifatida yildan yilga rivojlanib sayqal topib bormoqda. Tabiiyki, insonlar ham rivojlanayotgan kibermakonda munosabatlar qatnashchisiga aylanmoqda.

D. Bilayevaga ko‘ra, insonlarning kibermakonda ishtirokini quyidagicha asoslash mumkin [7]:

- muloqot jarayoni;
- ish jarayoni.

Kibermakonda sodir bo‘ladigan barcha munosabatlar mazkur ikki umumiy holat bo‘yicha birlashadi.

Kibermakon transchegaraviy hisoblangani bois turli munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, undagi munosabatlarni huquqiy himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda mualliflarning huquq va manfaatlarini belgilangan tarzda himoya qilishni ochib berish olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kibermakon o‘zida ko‘plab munosabatlarni jamlagan keng dunyo hisoblanadi. Undagi ayrim munosabatlar huquqiy jihatdan haligacha o‘z yechimini topgani yo‘q. Shunday tartibga solinmagan munosabatlardan biri avatarlar. Avatarlardan foydalanishning tegishli

tartibda qonuniy himoya qilish asoslari hali o‘rnatilmagan.

J. Greysning ta’kidlashicha, **“avatar”** so‘zi qadimgi sanskrit tilidagi **“avatara”** so‘zidan olingan bo‘lib, **“tushish”** degan ma’noni anglatadi. Qadimgi hindshunoslikda “o‘lmas mavjudotning mujassamlanishi”ni bildiradi. Hindlarda o‘z ishonuvchilarining insonlarga ko‘mak berish maqsadida yerga kelishiga ishoniladi [8].

D. Bilyevaga ko‘ra, zamonaviy dunyoda avatarlar shaxsiy belgining yaratilishi hisoblanadi [9].

J. Belislining izohlashicha, avatar eng umumiy ma’noda “kompyuter texnologiyalari” orqali yaratilgan grafik tasvir hisoblanadi [10].

Y. Antonova va S. Deminovanning ta’kidlashicha, avatarlar foydalanuvchining kibermakonda boshqa bir shaxsning diqqatini tortuvchi, jalb qiladigan vosita sifatida qaraladi [11].

D. Pogonsevning keltirishicha, avatarlar ijtimoiy tarmoqlarda muloqotga kirishishdan oldin shaxsning o‘zligini yashirish uchun ishlatiladigan surat hisoblanadi [12].

D.V. Pyatkov, M.D. Pyatkova va A.A. Serebryakovlarning aytishicha, avatarlarning bir qator ko‘rinishlari mavjud, xususan, o‘yin personaji; foydalanuvchining surati; algoritmi; raqamli obyekt; ramziy belgi kabilarda ishlatilishi mumkinligi isbotlab berilgan [13].

Bundan ko‘rinib turibdiki, avatar rasm ko‘rinishida kibermakonda foydalaniladigan predmetdir. Avatardan ijtimoiy tarmoqlarda foydalanishdan asosiy maqsad o‘zini namoyon qilishdir.

Ijtimoiy tarmoqlarda avatarlardan foydalanuvchining ichki dunyosini ochib berishda foydalanib kelinmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda avatarlardan taxallus sifatida qo‘llashda ham foydalanib kelinadi. Uning taxallus sifatida foydalanilishi shaxsning mulki bilan, jumladan, intellektual mulki bilan bog‘liq jihatidan ham tahlil qilish ham mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, avatarlar ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchi tomonidan o'zini namoyon qilish uchun ishlatilgan rasm, kartinka ko'rinishida bo'lishi mumkin. Avatarlar nafaqat rasm yoki kartinka ko'rinishlari bilan, balki yozuv ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.

Bundan ko'rinadiki, avatarlar rasm sifatida tasniflanadigan bo'lsa, bu to'g'ridan to'g'ri intellektual mulk obyekti hisoblanishini bildiradi.

1971-yil 24-iyuldagi Adabiy va badiiy asarlarni huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi, 1967-yilda Stokholmda qabul qilingan Butun jahon intellektual mulk tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi konvensiyada intellektual mulk huquqi obyektlari doirasi belgilab berildi.

O. Oqyulov Butun jahon intellektual mulk tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi konvensiyaning qabul qilinishi bilan intellektual mulk tushunchasi ma'lum ma'noda huquqiy asosga ega bo'lganini aytib o'tdi [14].

Keltirilgan holatlardan aniqlash mumkinki, kibermakondagi avatarlar ham intellektual mulk obyekti hisoblanishini yana bir bor isbotlab beradi. 1883-yilgi Sanoat mulkini himoya qilish to'g'risidagi Parij konvensiyasi, 1971-yilgi Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi, 1970-yilgi Madaniy boyliklardan noqonuniy ravishda foydalanish, olib ketish va ularga bo'lgan egalik huquqini o'zgaga berishni rad etish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Parij konvensiyasi, 2006-yilgi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunlarda intellektual mulk natijalarini qonuniy himoya qilish holatlari aniq ko'rsatib o'tilgan.

Shu o'rinda avatarlar ham mazkur intellektual mulk obyekti hisoblanishi mumkinmi, degan savol paydo bo'lishi mumkin.

Kibermakondagi ijtimoiy tarmoqlarning asosiy yuziga aylanib borayotgan avatarlar ham shaxsning intellektual faoliyati natijasi hisoblanadi.

Intellektual faoliyat natijalari inson faoliyatining oliy ko'rinishi, uning ijodiy faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Intellektual mulk natijalariga quyi-dagilarni keltirib o'tish mumkin. Ular quyi-dagilar:

- Fan, adabiyot, san'at asarlari, eshittirish yoki ko'rsatuv tashkilotlarining mahsulotlari;

- Ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;

- Seleksiya yutuqlari;

- Oshkor etilmagan axborot, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) va boshqalarni keltirib o'tish mumkin [15].

Keltirilgan ushbu holatlardan aniqlash mumkinki, kibermakondagi avatarlar ham intellektual mulk obyekti hisoblanishini yana bir bor isbotlab beradi.

Intellektual mulk natijasiga badiiy asarlarni, ijod namunalarini kiritib o'tish mumkin [16].

Kibermakonda yaratilgan avatarlarni ham asar sifatida tasniflab o'tishimiz mantiqiy holat hisoblanadi.

Bir so'z bilan aytganda kibermakonda foydalanuvchining o'zligini namoyon qilish uchun ishlatiladigan raqamli fotosurat hisoblanadi. Avatarlar raqamli dunyoning ajralmas qismi hisoblanadi. Bilamizki, raqamli dunyo (Kibermakon) – to'liq tartibda kompyuter texnologiyasi orqali muloqotga asoslangan ijtimoiy hayot tushuniladi.

Intellektual mulkning yangi obyektlari sifatida fan va texnikaning aynan qanday yutuqlari tan olinishi lozimligi, aqliy ijodiy faoliyatning yangi turlarini va natijalarini huquqiy maqomini belgilash maqsadga muvofiq holat hisoblanadi [17].

Bundan bilish mumkinki, intellektual mulk obyektlarini turlarga batafsil ajratgan holda ularning huquqiy maqomini belgilashning aniq mezonlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu ijtimoiy muloqotlarda foydalanuvchilar avatarlar deb atalib kelinadigan

turli grafik modellar orqali bir-birlari bilan o'zaro aloqada bo'lishadi. Mazkur ijtimoiy hayotdagi avatarlar kompyuter grafiklari orqali tasvirlanadigan rasmlar yoki boshqa bir ko'rinishdagi suratlar hisoblanadi. Foydalanuvchilar o'z avatarlarini istalgan vaqtda va har qanday usulda o'zlari bemaol boshqaradilar.

Avatarlar anonimlikka asoslangani uchun kibermakonda ikki kishi o'rtasidagi muloqotning ham anonim bo'lishini ta'minlab beradi. Avatarlarning xatti-harakati va tashqi ko'rinishi ularni profilga yoki ijtimoiy tarmoqqa joylashtirgan shaxsning harakatlariga bog'liq bo'ladi [15].

Bunda foydalanuvchi avatarni istalgan shaklda namoyon qilib berishi mumkin. Istasa, biron-bir mashhur insonning suratini yoki qandaydir bir hayvonning rasmini joylashtirib anonim shaklda muloqotini davom ettirishi mumkin.

Aksariyat hollarda ko'plab internet foydalanuvchilari, ijtimoiy tarmoq faollari hamda blogger-jurnalistlar o'z platformalarida tarqatayotgan ma'lumotlarining yanada ishonchililigini oshirish maqsadida turli avatarlarning o'rniga o'z fotosuratlarini joylashtiradilar. Kibermakonda avatlardan foydalanish emodzi singari foydalanuvchining diqqat e'tiborini tortish hisoblanadi.

Masalan:



**1-qarash**  
(fotosuratni to'g'ri qabul qilish)

Buyum, suviner, sovg'a oq, qizil rang, mexanik, qimmatbaho

**2-qarash**  
(taxmin qilingan shaxs bilan bog'liqligi)

Boy, sevimli, hashamdor, yaxshi did, kiborlik

1-rasm

Keltirilgan mazkur avatarga bo'lgan ikki xil qarashni ko'rishimiz mumkin.

*Birinchi izohda* soatning oddiy buyumlighi, faqat insonlar uchun ekanligi, rangi va boshqa tashqi belgilariga e'tibor berilgan.

*Ikkinchi izohda* esa avatarda butunlay boshqacha ma'noni ko'rishimiz mumkin. Bunda esa yoshi katta kishi ekanligi, yuksak did sohibi ekanligi, kiborligi hamda boy ekanligini ko'rish mumkin [16].

Mazkur holatdan bilib olishimiz mumkin, kibermakondagi avatarni aniqlab olishning ikki xil usuli mavjud.

*Birinchi usul:* Ijtimoiy tarmoqlarning obyektiga aylanib borayotgan avatarlarning aynan nima ekanligini tushunib olish talab etiladi. Bunda asosiy e'tibor uning shakliga qaratiladi. Misol uchun, qo'yilgan avatar fotosurat yoki kichik formatdagi video (GIF) ekanligiga e'tibor beriladi.

*Ikkinchi usul:* foydalanuvchi tomonidan joylangan avatar o'rganilish natijasida shaxs haqida tasavvurlar paydo bo'lishni boshlaydi.

Bu holat bo'yicha rus olimlari tomonidan kichik eksperiment o'tkazilgan. Bunda bir guruh talabalar (anchadan beri bir-birlari bilan tanish bo'lgan talabalar) ma'lum bir saytdan boshqa bir kursdosh do'stlari tomonidan tayyorlab qo'yilgan avatarlarni olib ularni tahlil qila boshlagan. Maqsad avatarlarni tayyorlagan insonlarni aniqlash va ularga ta'rif berish kerak edi. Avatarlarni olgan talabalar ularni birma-bir tahlil qilishi natijasida ushbu avatarni qaysi do'sti tayyorlaganini taxmin qilishdi va ularning aksariyat taxminlari to'g'ri chiqdi. Bundan avatlar kibermakonning asosiy ishtirokchilaridan hisoblangan shaxslarning barcha jihatlarini ochib berishi mumkinligini bilib olish mumkin.

Kibermakonda sodir bo'ladigan munosabatlarining kengayib ketishi natijasida avatlarga bo'lgan huquqlarni huquqiy jihatdan tartibga solishni taqozo etadi [17].

Mazkur holatdan bilish mumkinki, avatlar orqali shaxs o'zini namoyon qilishni qolganlarga bildirib o'tmoqchi bo'ladi.



Kibermakonda avatardan foydalanishning o'ziga xos xususiyati – shaxs virtual muloqotga kirishganda ijtimoiy mavqeyidan, yoshi, kasbi va boshqa holatlaridan xoli bo'lgan holda faoliyatini davom ettirishi mumkin. Mazkur holatning asosiy jihati avatar taxallus sifatida ham namoyon bo'ladi.

Rus tadqiqotchilari Y.A. Antonovoy, S.A. Deminoy o'z ilmiy izlanishlarida 600 ga yaqin avatlardan iborat profillarni o'rganganda, ularning atigi 2,7 % qismida o'z fotosuratlaridan foydalanganini kuzatilgan [18].

Shu o'rinda kibermakonda avatardan qonuniy foydalanishni qanday amalga oshirish mumkin? Degan savol tug'ilishi mumkin.

Bu esa ulardan muallifning rozilgisiz foydalanish mumkin emasligini, qonuniy nuqtayi nazardan ham, amaliy nuqtayi nazardan ham ruxsatsiz foydalanish mumkin emasligini bildiradi.

Shuni qo'shimcha qilish kerakki, kibermakonda avatlardan foydalanishda turli ruxsatnomalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Transchegaraviy hisoblangan kibermakonda avatlardan qonuniy foydalanishda qo'llanadigan yo'llardan biri ruxsatnoma yoki litsenziyani olish hisoblanadi. Mazkur holatda butun dunyo tan olgan ayrim turdagi litsenziyalardan foydalaniladi. Masalan [22]:

- *Public Domain Dedication (CCO)* – ushbu litsenziyani olgandan so'ng suratdan istalganidek foydalanishi mumkin;

- *CC Attribution (CC-BY)* – suratdan istalganidek foydalanishi mumkin, lekin muallifning ismini va manbasini keltiradi;

- *CC Attribution — Noncommercial (CC-BY-NC)* – mazkur litsenziya orqali olingan fotosuratlarini o'zgartirishi va notijoriy maqsadlarda foydalanishi mumkin bo'ladi;

- *CC Attribution No Derivatives (CC-BY-ND)* – bunda fotosuratlarini o'zgartirmasdan foydalanish kerak bo'ladi;

- *CC Attribution Non-Commercial No Derivatives (CC-BY-NC-ND)* – mazkur litsenziya 3 ta shartni o'z ichiga oladi. Rasmdan o'zgartirishsiz, notijoriy maqsadlarda va

muallifni ko'rsatish yo'li bilan foydalanish mumkin.

Keltirilgan holatlardan anglashiladiki, kibermakonda avatlardan foydalanishda qonuniy usulni ikki turga bo'lish mumkin.

Birinchisi: muallifning oldindan roziligi olgan holda foydalanish.

Ikkinchisi: turli litsenziyalar orqali fotosuratlardan tegishli shartlar asosida foydalanishi mumkin.

Mazkur holatdan aniqlab olish mumkin, yuqoridagi holat bo'yicha kiberdunyoda avatlardan qonuniy foydalanish chegarasi tegishli tartibda muallifning roziligini olish bilan belgilanadi. Bu esa undan qonuniy foydalanish asosini yaratib beradi.

### **Xulosalar**

Keltirilgan holatlardan xulosa qilish mumkin, tobora rivojlanib borayotgan bugungi kun axborot texnologiyalari, ular bilan bog'liq rivojlanib borayotgan kibermakon va yangi turdagi munosabatlar, yangi obyektlarini tahlil qilish, ularning huquqiy tartibga solish mexanizmlarini yaratish olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Kibermakondagi yangi obyektlar sifatida avatlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Avatlar yuqorida keltirilganidek virtual dunyoning ijtimoiy tarmoqlarida keng qo'llanib kelinadigan vositalaridan hisoblanadi. Shaxsning kibermakondagi o'zini identifikatsiya qilishga yordam beradigan rasm, surat, kartinka sifatida tasniflashimiz mumkin.

Avatlardan kibermakondan foydalanishda ikkita asosiy jihatga e'tibor beriladi.

Birinchidan, shaxs o'zini to'la himoyalangan shaxs sifatida oshkor qilmasdan namoyon bo'lishi mumkin. Bunda shaxsning yoshi, kasbi, millati, dini, erkidan qat'i nazar o'zining olamini qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shunday namoyon etishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zi xohlaganidek rasmni tayyorlab joylashtirib foydalanishi mumkin.

Ikkinchidan, shaxs aynan o'zligini boshqa insonlarning fotosuratini joylashtirish orqali ham namoyon qilishi mumkin. Bun-

da shaxs boshqa biron-bir mashhur insonning fotosuratini, o'z tanishining suratini tarmoqqa joysh tiradi.

Ikkala holatda ham avatlardan foydalanish intellektual mulk obyekt i ekanligiga ishora qilinmoqda. Sababi, ikkala holatda shaxs o'z ijod namunasi sifatida rasm, suratni tayyorlashi mumkin.

Kibermakonda foydalaniladigan rasm, suratlar ham intellektual mulk obyekt i sifatida baholanishi uchun bir qator milliy va xorijiy qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan.

Shuningdek, kibermakon transchegaraviy ahamiyat kasb etishi, undagi aso-

siy tartib-qoidalalar foydalanuvchilar tomonidan belgilanib kelinayotganligi tabiiy holat hisoblanadi. Huquqiy tartibga solinmagan munosabatlarga kirishganda kibermakon miqyosida foydalanuvchilar o'z qonunlarini o'rnatishni boshlaydi. Aynan mazkur holatlardan kelib chiqqan holda avatlarning intellektual mulk obyekt i hisoblanishi, u bilan bog'liq munosabatlarning huquqi tartibga solinishi bir qator huquqi sohalari orqali, jumladan, mualliflik huquq, turdosh huquqlar, patent huquqi va boshqalar bilan tartibga solish maqsadga muvofiq.

## REFERENCES

1. Ochoa T.T. Who Owns an Avatar? Copyright, Creativity, and Virtual Worlds, *Vanderbilt Journal of Entertainment and Technology Law*, 2020, no. 14, p. 961.
2. Rassolov I.M. Pravo i kiberneticheskoye prostranstvo [Law and cybernetic space]. 2nd ed. Moscow, 2016, 232 p.
3. Gibson W. Neuromancer. New York, Berkeley Publishing Group, 1984, p. 51.
4. Dobrinskaya D.Ye. Moscow, MGU.
5. Berkman J.N., Berkman L.R. The Laws of Cyberspac. 1999, p. 32.
6. Yefemova L.G. Vidy pravootnosheniy, voznikayushchikh na platforme v Blockchain [Types of legal relations that appear on Blockchain platforms]. Moscow.
7. Vylyeva D.S. Avatar kak individualnyy vybor sredstva samoidentifikatsii [Avatar as an individual choice of means of self-identification]. *Scientific and technical statements of St. Petersburg State Pedagogical University, Humanitarian and social sciences*.
8. Ahn S.J.-G. Avatars. University of Georgia, 2011, p. 5.
9. Belisle J.-F., Onur B.H. Avatars as information: Perception of consumers based on their avatars in virtual worlds. *Psychology & Marketing*, 2010, vol. 27, iss. 8, pp. 741–765.
10. Antonova Yu.A., Demina S.A. Avatar kak element samoprezentatsii v sotsialnoy seti [Avatar as an element of self-presentation in a social network]. *Lingvokulturology*, 2010, no. 4, pp. 15–20
11. Pyatkov D.V., Pyatkova M.D., Serebryakov A.A. Pravovyye problemy ispol'zovaniya chuzhikh proizvedeniy iskusstva dlya oformleniya akkaunta v sotsial'nykh setyakh [Legal problems of using other people's works of art to create an account on social networks]. DOI: 10.14258/ralj(2022)2.6/.
12. Oqyulov O. Intellektual mulk huquqi [Intellectual property rights]. Tashkent, 2005, pp. 17–20.
13. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi [Civil rights]. TSUL, 2009, p. 71.
14. Oqyulov O., Egamberdiyev E., Baratov M.X., Kuldashv N.A et al. Fuqarolik va oila huquqi [Civil and family law]. Tashkent, 2022, 278 p.
15. Intellektual mulk huquqi: rivojlanish istiqbollari [Intellectual property rights: development prospects]. Ed. A. Gafurov. Tashkent, Adolat Publ., 2012, p. 172.

16. Wu J. Choosing My Avatar & the Psychology of Virtual Worlds: What Matters? *Kaleidoscope*, 2013, vol. 11, Article 89.

17. Zaytseva Yu.Ye. Obraz samoprezentatsii (avatara) kak faktor formirovaniya pervichnogo doveriya-nedoveriya k sub'yektu internet-kommunikatsii [Image of self-presentation (avatar) as a factor of primary trust/distrust in Internet communication]. *Vestnik Sankt-Peterburgskogo Universiteta* – *Bulletin of St. Petersburg University*, 2012, pp. 134–143.

18. Antonova Yu.A., Demina S.A. Avatar as an element of self-presentation in a social network. 2010, no. 4, pp. 15–20.

UDC: 349.222(045)(575.1)

# MEHNAT SHARTNOMASINI TARAFLAR IXTIYORIGA BOG'LIQ BO'LMAGAN HOLATLAR BO'YICHA BEKOR QILISHGA OID MDH DAVLATLARI MEHNAT QONUNCHILIGINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

**Murodullayev Dostonjon Nigmatullo o'g'li,**Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0001-7313-9706

e-mail: doston.murodullayev@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilishga oid MDH davlatlari mehnat qonunchiligi qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. MDH davlatlarining Mehnat kodekslarini ishlab chiqishda ularning iqtisodiyot modeliga e'tibor berilgan. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksini ishlab chiqishda ham O'zbekiston tomonidan tanlangan bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tishning "o'zbek modeli"ning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lgan. MDH davlatlarining mehnat qonunchiligida xodimning yoki jismoniy shaxs bo'lgan ish beruvchining vafot etishi, shuningdek, sud tomonidan xodimning yoki jismoniy shaxs bo'lgan ish beruvchining vafot etgan yoki bedarak yo'qolgan deb topilishi mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilish mumkin. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Mehnat kodeksiga ko'ra, faqatgina xodimning vafoti munosabati bilan mehnat shartnomasini ushbu asos bilan bekor qilish mumkin. Ayrim MDH davlatlarida lavozimga saylanmaslik (shu jumladan, tanlov asosida ham) mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilish asosi hisoblanadi. Yangi muddatga saylanmagani (tanlov bo'yicha o'tmagani) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etgani munosabati bilan mehnat shartnomasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Mehnat kodeksining 97-moddasi oltinchi bandi bilan bekor qilinadi. Chunki ushbu holat mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy asoslaridan biri sanaladi.

**Kalit so'zlar:** Mehnat kodeksi, mehnat shartnomasi, taraflarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar, harbiy xizmat, ishga tiklash, lavozimga saylanmaslik, xodimning vafoti.

## СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ТРУДОВОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА СТРАН СНГ В ОТНОШЕНИИ ПРЕКРАЩЕНИЯ ТРУДОВОГО ДОГОВОРА ПО ОБСТОЯТЕЛЬСТВАМ, НЕ ЗАВИСЯЩИМ ОТ ВОЛИ СТОРОН

**Муродуллаев Достонжон Нигматулло угли,**

самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье проводится сравнительно-правовой анализ трудового законодательства стран СНГ в части прекращения трудового договора в случаях, не зависящих от воли сторон. Отмечено, что при разработке трудовых кодексов стран СНГ отдельное внимание уделялось их экономической модели. В разработке Трудового кодекса



Республики Узбекистан особое значение имела роль избранной Узбекистаном «узбекской модели» поэтапного перехода к рыночной экономике. В трудовом законодательстве стран СНГ смерть работника или работодателя, являющегося физическим лицом, а равно признание судом работника или работодателя, являющегося физическим лицом, умершим или безвестно отсутствующим являются обстоятельствами, не зависящие от воли сторон заключенного трудового договора. Согласно действующему Трудовому кодексу Республики Узбекистан, трудовой договор может быть расторгнут на этом основании только в связи со смертью работника. В некоторых странах СНГ неизбрание на должность (в том числе по конкурсу) является основанием для прекращения трудового договора по обстоятельствам, не зависящим от воли сторон. В связи с неизбранием на новый срок (непрохождением по конкурсу) либо отказом от участия в выборах (конкурсе) трудовой договор прекращается в соответствии с пунктом шестым статьи 97 Трудового кодекса Республики Узбекистан, так как данная ситуация является одним из общих оснований для прекращения трудового договора.

**Ключевые слова:** Трудовой кодекс, трудовой договор, обстоятельства, не зависящие от воли сторон, военная служба, восстановление, не быть избранным на должность, смерть работника.

## COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF THE LABOR LEGISLATION OF THE CIS STATES REGARDING THE TERMINATION OF EMPLOYMENT CONTRACT DUE TO CIRCUMSTANCES BEYOND THE CONTROL OF THE PARTIES

**Murodullayev Dostonjon Nigmatullo ugli,**  
Independent Researcher,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article provides a comparative legal analysis of the labor legislation of the CIS countries in terms of termination of employment contracts due to circumstances beyond the control of the parties. When developing the Labor Codes of the CIS countries, attention was paid to their economic model. In the development of the Labor Code of the Republic of Uzbekistan, the role of the "Uzbek model" chosen by Uzbekistan for a phased transition to a market economy was of particular importance. In the labor legislation of the CIS countries, the death of an employee or employer who is an individual, as well as the recognition by the court of an employee or employer who is an individual, dead or missing, are circumstances beyond the control of the will of the parties regarding the conclusion of an employment contract. According to the current Labor Code of the Republic of Uzbekistan, an employment contract can be terminated on this basis only in connection with the death of an employee. In some CIS countries, non-election to a position (including by competition) is the basis for termination of an employment contract due to circumstances beyond the control of the parties. In connection with non-election for a new term (failure to pass through the competition) or refusal to participate in elections (competition), the employment contract is terminated in accordance with paragraph six of Article 97 of the current Labor Code of the Republic of Uzbekistan. Because this situation is one of the general grounds for the termination of the employment contract.

**Keywords:** Labor Code, employment contract, circumstances beyond the control of the parties, military service, recovery, non-election to position, the death of an employee

### Kirish

Mamlakatimizda shu kunga qadar birinchi sohani isloh qilishdan oldin xorijiy mamlakatlarda shu soha qanday tartibga

solingani o'rganib kelingan bo'lib, ularning tajribasi va amaliyotini, shuningdek, qonunchiligini tahlil qilmasdan, yangi qonun hujjatlari, yangi dasturlar va boshqa shu kabi is-

lohotlar amalga oshirilishida asos bo'luvchi qoidalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq emas.

Shu sababli mehnat qonunchiligida ham islohotlar qilish, Mehnat kodeksi normalarini takomillashtirish uchun eng avvalo xorij tajribasiga tayanish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda avvalo MDH davlatlari mehnat qonunchiligini tahlil qilish va O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi normalari bilan qiyoslash tadqiqot ishini yanada takomillashtirishga yordam beradi. MDH davlatlarining Mehnat kodekslarini ishlab chiqishda ularning iqtisodiyot modeliga e'tibor berilgan [1]. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksini ishlab chiqishda ham O'zbekiston tomonidan tanlangan bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tishning "o'zbek modeli"ning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

E'tiborimizni jalb qiladigan asosiy masala shuki, MDH davlatlari ichida birinchilardan bo'lib mustaqil Mehnat kodeksini ishlab chiqqan davlat O'zbekiston hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan bo'lib, MDH davlatlari tomonidan qabul qilingan kodekslar uchun asos bo'lgan desak, mubolag'a emas. Ammo ayrim MDH davlatlarining Mehnat kodekslari birmuncha takomiliga yetkazib ishlab chiqilgan. Shu sababdan ushbu mamlakatlarning mehnat qonunchiligini o'rganish va tahlil qilish natijasida milliy qonunchiligimizni takomillashtirish uchun takliflar berish mumkin.

Xorijlik olimlardan J. Doroxina tomonidan Belarus va Qozog'iston Respublikalari [2], E. Kochkarova tomonidan AQSh va Qirg'iziston Respublikasi [3], V. Vasilyeva tomonidan Avstriya va Fransiya Respublikasida [4] mehnat shartnomasini bekor qilishni huquqiy tartibga solish tajribasi tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilish instituti mehnat

shartnomasini bekor qilish asoslaridan biri sifatida o'rganilgan.

Shuningdek, milliy huquqshunos olimlardan Sh. Ismoilov tomonidan yangi Mehnat kodeksida mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari [5], M. Raximov tomonidan xodimlar huquqlarini himoya qilishda mehnat shartnomasi instituti [6], M. Karimjonov tomonidan intizomiy jazo sifatida mehnat shartnomasini bekor qilish [7], M. Xojabekov tomonidan G'arb davlatlarining mehnat qonunchiligi [8], A. Xaqberdiyev tomonidan xorijiy elchixona xodimi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish [9], N. Yusupov tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishda taraflarning moddiy javobgarligi masalasi [10], S. Shoislomova tomonidan rivojlangan davlatlar mehnat qonunchiligida masofadan turib ishlovchi xodimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilish [11] masalalari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

O'zbekistonda mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilish masalalari va bu asosni qo'llashda yuzaga keladigan muammolar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinmagan.

### **Material va metodlar**

Tadqiqot jarayonida ikkita savolga javob berishga harakat qilindi: 1) MDH davlatlari mehnat qonunchiligida mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilishning qanday asoslari belgilangan; 2) MDH davlatlari mehnat qonunchiligida mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilishning alohida xususiyatlari mavjudmi?

Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilishning bir qator muhim xususiyatlari alohida ta'kidlandi. Ushbu maqola xorijiy keng tarqalgan usullarni konseptual, nazariy, konstitutsiyaviy-huquqiy va amaliy tushunishga qaratilgan. Tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil,

umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Taraflarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilishning tartibi MDH davlatlarining qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan bo'lsa-da, mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilish asoslarini Mehnat kodekslarida keltirilgan normalar asosida qiyoslash tadqiqotning asosiy maqsadiga to'g'ri keladi [12].

Ushbu qiyosiy-huquqiy tahlildan ko'zlangan maqsadga erishish uchun MDH davlatlarining kodifikatsiyalangan qonunlarini xronologik tarzda (qabul qilingan vaqtiga asosan) o'rganamiz: 1997-yil 15-mayda (2016-yil 23-iyulda yangi tahrirda) qabul qilingan Tojikiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 1999-yil 26-iyulda qabul qilingan Belarus Respublikasi Mehnat kodeksi, 1999-yil 1-fevralda qabul qilingan Ozarbayjon Respublikasi Mehnat kodeksi, 2001-yil 30-dekabrda qabul qilingan Rossiya Federatsiyasining Mehnat kodeksi, 2003-yil 28-martda qabul qilingan Moldova Respublikasining Mehnat kodeksi va 2015-yil 23-noyabrda qabul qilingan Qozog'iston Respublikasining Mehnat kodeksi shular jumlasidandir.

Yuqoridagi davlatlarda 90-yillarda, ya'ni bir paytda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingani diqqatga sazovordir. Chunki ushbu davlatlarning oldingi mehnat qonunlari 1970-yillarda qabul qilingan edi va ularning barchasi 1971-yil 9-dekabrda qabul qilingan RSFSR Mehnat qonunlari kodeksiga asoslangan bo'lib, unifikatsiyalangan va bir xil shakl hamda tartibga ega bo'lgan [13].

MDH davlatlari tomonidan qabul qilingan hozirgi Mehnat kodekslari tuzilishi va mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ular o'rtasida tegishli farqlar ham mavjud. Buni I.Y. Kiselev ham ta'kidlaydi: "Qirg'izis-

ton, Ozarbayjon, Belarus, Tojikiston, Moldova, Ukrainaning Mehnat kodeksi, Qozog'iston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonuni, MDHning boshqa respublikalari va Rossiyaning Mehnat kodekslari ko'p umumiylikka ega, shu bilan birga, har birining mehnat munosabatlarini hal qilishda o'ziga xos xususiyatlari bor" [14].

O'zbekiston Respublikasi bilan MDH davlatlarining Mehnat kodeksidagi taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarini qiyosiy-huquqiy tahlil qiladigan bo'lsak, eng avvalo Tojikiston Respublikasi Mehnat kodeksidagi normalarni ilmiy jihatdan o'rganish tahlilning xronologik kechishiga zamin yaratadi.

Tojikiston Respublikasi Mehnat kodeksi tahlilini 39-moddaga to'xtalib o'tish bilan boshlash zarur [15]. Chunki ushbu moddada mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy asoslari o'z aksini topgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: taraflar kelishuvi bilan, xodim tashabbusi bilan, ish beruvchining tashabbusi bilan, muddatning tugashi bilan, taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish.

Mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda bekor qilish asoslari esa Tojikiston Mehnat kodeksining 48-moddasida ko'rsatilgan va ular:

- xodimning harbiy xizmatga chaqirilishi yoki o'tashi;
- vakolat muddatining tugashi;
- shu ishni ilgari bajarib kelgan xodimning ishga tiklanishi;
- sud hukmi qonuniy kuchga kirgan bo'lsa, unga asosan xodim yoki ish beruvchi – jismoniy shaxs ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan bo'lsa, sudning shaxsni muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi qarori mehnat munosabatlarini davom ettirishni istisno qilgan hollarda;
- xodim yoki ish beruvchi – jismoniy shaxs vafot etganligi, shuningdek, sud tomonidan

xodim yoki ish beruvchi – jismoniy shaxs vafot etgan deb e'lon qilingan yoki sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilganligi munosabati bilan;

- ishga qabul qilishning belgilangan qoidalarini buzilgan taqdirda;

- Tojikiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Ushbu asoslar O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksidagi asoslar bilan bir xil bo'lsa-da, kamchiliklarga ham ega. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 106-moddasida taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari aniq belgilanibgina qolmay, ushbu asoslarni istisno qilishi mumkin bo'lgan holatlar ham yoritib berilgan. Ya'ni ishga qabul qilishda belgilangan qoidalarning buzilishi agar xodim tomonidan ishni davom ettirishga to'sqinlik qilsagina, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinadi. Tojikiston Mehnat kodeksida bu hol nazarda tutilmaganligi xodimlarning mehnat qilish huquqlarini cheklashi tabiiy hol.

Shu bilan birga, aytib o'tishimiz joizki, Tojikiston Mehnat kodeksida xodimning harbiy xizmatga chaqirilishi yoki harbiy xizmatni o'tashi u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga asos bo'ladi deyilgan. Bundan kelib chiqadiki, harbiy xizmatga chaqirilish bilan uni o'tash bevosita farqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida esa xodimning harbiy xizmatga chaqirilishigina asos sifatida keltirib o'tilgan. Muammo shundaki, harbiy xizmatga chaqirilgan har bir fuqaro harbiy xizmatni o'tamasligi ham mumkin.

Belarus Mehnat kodeksining 44-moddasi bevosita mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda bekor qilish asoslariga bag'ishlangan bo'lib, [16] unga ko'ra, quyidagi holatlarning mavjud bo'lishi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasining bekor bo'lishiga olib keladi, bular:

- 1) xodimni harbiy xizmatga chaqirish, xodimni muqobil xizmatga yuborish;

- 2) shu ishni ilgari bajarib kelgan xodimning ishga tiklanishi;

- 3) ishga qabul qilishning belgilangan qoidalarining buzilganligi;

- 4) lavozimga saylanmaslik (shu jumladan, tanlov asosida ham);

- 5) xodimni jazoga mahkum qiluvchi sud hukmining yoki davlat himoyasida bo'lgan bolalarni moddiy ta'minlash uchun davlat tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash maqsadida xodimni ishga joylashtirish to'g'risidagi sud qarorining kuchga kirishi, agar bu xodimning o'z ishini davom ettirishga to'sqinlik qilsa;

- 6) xodimning vafoti, uning sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb tan olinishi yoki vafot etgan deb e'lon qilinishi munosabati bilan, shuningdek, jismoniy shaxs bo'lgan ish beruvchi (ishga yollovchi)ning vafot etishi.

Ko'rinib turibdiki, Belarus Mehnat kodeksida ham berilgan asoslar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, ushbu davlat mehnat qonunchiligiga asosan, lavozimga saylanmaslik yoki tayinlanmaslik mehnat shartnomasini bekor qilishning taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan asosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida esa ushbu asos 97-moddada belgilangan bo'lib, mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy asoslaridan biridir. Demak, ushbu masalani tahlil qilish va amaldagi Mehnat kodeksidagi shunday holatlarni yanada chuqurroq o'rganish talab etiladi.

Shu bilan birga, Belarus Mehnat kodeksida xodimning faqatgina vafot etishi emas, balki uning sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi ham, bedarak yo'qolgan deb topilishi ham u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga olib kelar ekan.

Shuningdek, agar ish beruvchi jismoniy shaxs bo'lsa ham uning vafot etishi xodimlar bilan mehnat munosabatlari tugatilishiga olib kelishi nazarda tutilgan. Ammo vorislik masalasi bo'lishi mumkinligi kodeksda aniqlashtirilmagan.



Ayrim xorijiy mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Ispaniya)da xodimning va ish beruvchining (agar u jismoniy shaxs bo'lsa) vafoti mehnat shartnomasining umumiy asoslarda bekor bo'lishiga sabab bo'ladi [17].

Ozarbayjon Mehnat kodeksida esa mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda bekor qilish asoslari 74-moddada o'z aksini topgan bo'lib [18], unga ko'ra mehnat shartnomasi taraflarning ixtiyori va xohishiga bog'liq bo'lmagan quyidagi hollarda bekor qilinadi:

1. Xodimning harbiy yoki muqobil xizmatga chaqirilishi.

2. Shu ishda (lavozimda) ilgari ishlagan xodimni ishga (lavozimga) tiklash to'g'risidagi sud qarorining kuchga kirishi munosabati bilan.

3. Xodimning uzluksiz olti oydan ortiq muddatgacha mehnat qilishga butunlay layoqatsiz bo'lib qolganligi sababli mehnat vazifalarini bajarish imkonining yo'qligi, agar qonunchilikda bundan uzoqroq muddat belgilangan bo'lmasa.

4. Xodimni transport vositasidan foydalanish huquqidan mahrum qilish, muayyan mansabni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish, ma'lum muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolariga mahkum qiluvchi sud hukmining kuchga kirishi.

5. Xodimning muomalaga layoqatsizligi kuchga kirgan sud qarori bilan tasdiqlanishi.

6. Xodimning vafot etishi, qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan uni bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb e'lon qilish.

7. Agar ushbu tashkilotda ilgari ishlagan xodim muddatli harbiy xizmatdan zaxiradan bo'shatilishi munosabati bilan ilgarigi ishlagan ish joyini qaytarish huquqidan foydalansa.

8. Qonun hujjatlarida bunday faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlangan shaxs bilan pedagogik faoliyat uchun mehnat shartnomasini tuzish fakti aniqlanganda.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida esa g'ayriqonuniy tarzda ishdan bo'shatilgan xodimni ishga tiklash masalasi va u sud qarori bilan ishga tiklanganda unga oldingi ish joyi (lavozimi) yoki shunga teng ish joyi (lavozimi) berilishi lozimligi qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan. Bunda uning ish joyini band qilgan xodimni ishdan bo'shatishda unga beriladigan kafolatlar ushbu qismda yoritilmagan.

Shuningdek, Ozarbayjon Mehnat kodeksidagi bu asoslar kengaytirilgan shaklga ega ekanligi ham diqqatga sazovor.

E'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, xodimning mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi, muomala layoqatini yo'qotishi va, shu bilan birga, transport vositasidan foydalanish huquqidan mahrum bo'lishi ham u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishiga olib kelishi bevosita o'z aksini topgan. Bunda yuqoridagi holatlar yuzasidan tibbiy xulosa, shuningdek, sud qarori bo'lishi talab etiladi.

Ushbu davlatning qonunchiligida ham ijobiy jihatlar ko'p bo'lib, shu asosda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tegishli normalar bilan to'ldirish zarur ekanligini bildiradi.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Rossiya Federatsiyasining Mehnat kodeksida taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari boshqa MDH davlatlari mehnat qonunchiligidagi asoslardan ancha farq qiladi.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining 83-moddasida taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari belgilangan [19]. Ular quyidagicha:

1) xodim harbiy xizmatga chaqirilishi yoki uning o'rnini bosuvchi muqobil fuqarolik xizmatiga yo'llanishi;

2) shu ishni ilgari bajarib kelgan xodimning davlat mehnat inspeksiyasi yoki sud qarori bilan ishga tiklanishi;

3) lavozimga tayinlanmaslik;

4) xodimning qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan ishini davom ettirishga to'sqinlik qiluvchi jazoga mahkum qilinishi;

5) federal qonunlar yoki Rossiya Federatsiyasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida o'rnatilgan tartibda berilgan tibbiy xulosaga asosan xodimning to'liq mehnatga layoqatsiz deb topilishi;

6) xodimning yoki jismoniy shaxs bo'lgan ish beruvchining vafot etishi, shuningdek, sud tomonidan xodimning yoki jismoniy shaxs bo'lgan ish beruvchining vafot etgan yoki bedarak yo'qolgan deb topilishi;

7) mehnat munosabatlarini davom ettirishga to'sqinlik qiluvchi favqulodda holatlar (harbiy harakatlar, talafotlar, tabiiy ofatlar, katta halokatlar, epidemiya va boshqa favqulodda holatlar)ning yuzaga kelishi, agar ushbu holatlar Rossiya Federatsiyasi hukumati yoki boshqa tegishli davlat hokimiyati organi subyektlarining qarori bilan tasdiqlangan bo'lsa, shuningdek, ish beruvchi – jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsning yagona ta'sis-chisi (ishtirokchisi) bo'lgan, bir vaqtning o'zida ushbu yuridik shaxsning yagona ijro etuvchi organi vakolatlariga ega bo'lgan ish beruvchining Rossiya Federatsiyasi Prezidenti tomonidan e'lon qilingan safarbarlik bo'yicha harbiy xizmatga chaqiruvi (agar bunday ish beruvchi harbiy safarbarlik xizmatini o'tash davrida boshqa shaxsga o'z huquqlarini amalga oshirish va ish beruvchi sifatida o'z vazifalarini bajarishga ruxsat bermagan bo'lsa);

8) xodimning mehnat shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarish imkoniyatini istisno qiladigan diskvalifikatsiya yoki boshqa ma'muriy jazo qo'llanishi;

9) federal qonunlar yoki Rossiya Federatsiyasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga asosan, faoliyat muddati tugatilishi, faoliyat muddati ikki oydan ortiq muddatga to'xtatilishi yoki xodimning maxsus huquqdan (litsenziya, transport vositalarini boshqarish huquqi, qurol olib yurish huquqi, boshqa maxsus huquqlar) mahrum qilinishi,

agar bu xodimning mehnat shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarish imkoniyati yo'qolishiga olib kelsa;

10) davlat siriga kirish huquqining bekor bo'lishi, agar bajarilgan ish bunday kirishni talab qilsa;

11) xodimni ishga tiklash to'g'risidagi davlat mehnat inspeksiyasining qarori bekor bo'lishi (noqonuniy deb topilishi) yoki sud qarorining bekor bo'lishi;

12) ushbu kodeks yoki boshqa federal qonunda belgilangan tartibda xodimning mehnat shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarish imkoniyatini istisno qiladigan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishining cheklanishi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan 2-, 8-, 9-, 10-, 12-asoslar bilan mehnat shartnomasi agar xodimni ish beruvchida mavjud ishga, ya'ni xodim sog'lig'ining imkoniyatlaridan kelib chiqib bajarishi mumkin bo'lgan ishga, uning yozma roziligi bilan o'tkazishning imkoni bo'lmagan taqdirdagina bekor qilinadi. Shu sababli ish beruvchi xodimga o'zida mavjud bo'sh ish o'rinlarini taklif qilishi kerak.

Ta'kidlash joizki, Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksida ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar buzilgani munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilish tараflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari-ga kirmaydi, ushbu holat alohida asos sifatida Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksida belgilangan.

Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksi-ning 84-moddasiga ko'ra, mehnat shartnoma-si kodeksda yoki boshqa Federal qonunlarda belgilangan qoidalar buzib tuzilgan bo'lsa, bekor qilinadi, agar ushbu qoidalarni bu-zish quyidagi holatlarni o'z ichiga olib, ishni davom ettirish imkoniyatini istisno qilsa:

- mehnat shartnomasi muayyan shaxs-ning ma'lum bir lavozimda ishlashini yoki ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishini cheklaydigan sud hukmini buzib tuzilgan bo'lsa;

- mehnat shartnomasi tibbiy xulosa asosida shaxsning sog'lig'iga to'g'ri kelmaydigan ishni bajarishni nazarda tutib tuzilgan bo'lsa;

- xodimning ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjati yo'qligi, agar xodim tomonidan bajariladigan vazifa uchun federal qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjatlar tegishli mutaxassislikni talab qilsa;

- ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rishga vakolatli sudya, organ, mansabdor shaxsning mehnat shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiladigan diskvalifikatsiya yoki boshqa ma'muriy jazo to'g'risidagi qarorini buzgan holda mehnat shartnomasini tuzish;

- ushbu kodeksda, boshqa federal qonunlarda belgilangan mehnat faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun cheklovlarni buzgan holda mehnat shartnomasini tuzish;

- federal qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlar.

Shuningdek, ushbu normaga ko'ra, agar xodimni uning yozma roziligi bilan ish beruvchida mavjud boshqa ishga o'tkazish imkoni bo'lmasagina, mehnat shartnomasi yuqorida keltirilgan asoslar bilan bekor qilinadi.

Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksidagi ushbu norma batafsil bayon qilingan bo'lib, xodimga qo'shimcha kafolatlar ham belgilab berilganini e'tirof etish lozim.

Ko'rinib turibdiki, Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksida belgilangan taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari aniq va izchillikda o'rnatilgan. Shuningdek, bunda xodim uchun berilgan kafolatlar alohida ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, ayrim Yevropa mamlakatlarida Rossiya Federatsiyasidan farqli ravishda mehnat shartnomasi bekor bo'lishiga olib keladigan favqulodda holatlarning yuz berishi fuqarolik huquqi bilan tartibga solinib, mazkur jarayonda xodim va ish beruvchi bir-biriga nisbatan hech qanday majburiyatga ega bo'lmaydilar. Xususan, Ispaniyada favqulodda vaziyatlar yuzaga keladigan

bo'lsa, Mehnat organining roziligini olmasdan turib mehnat shartnomasini bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi [14].

Moldova Respublikasi Mehnat kodeksi-ni o'rganish jarayonida ushbu davlat mehnat qonunchiligida "mehnati shartnomasi" tushunchasi emas, "yakka mehnat shartnomasi" tushunchasi (termini) qo'llanishini ko'rish mumkin [20]. Shu bilan birga, Moldova mehnat qonunchiligida mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda bekor qilish asoslarining o'zgacha ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Boshqa MDH davlatlaridan farqli ravishda xodim va ish beruvchining vafoti, ularning sud tomonidan vafot etgan yoki bedarak yo'qolgan deb tan olinishi, sud instansiyasi qarori bilan mehnat shartnomasining haqiqiy emas deb topilishi, mehnat shartnomasi asosida korxonada faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning vakolatli davlat organi tomonidan chaqirib olinishi, xodimning sud instansiyasi qarori asosida korxonada mehnat qilishini cheklaydigan jinoiy jazoga tortilishi, muddatli mehnat shartnomasi muddati tugashi, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishning bajarib bo'linishi, mavsumiy ishlar uchun mavsumning tugashi, davlat, mahalliy korxonalar, shu jumladan, davlat mablag'i asosida shakllantirilgan korxona rahbarlarining 65 yoshga to'lishi, mehnat munosabatlarini davom ettirishga to'sqinlik qiladigan belgilangan tartibda tasdiqlangan fors-major holatlarining mavjudligi, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlar mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda bekor qilish asoslari hisoblanadi (82-modda).

Ushbu davlatning mehnat qonunchiligida muddatli mehnat shartnomalari, biror ishni bajarish muddatiga tuzilgan mehnat shartnomalari va mavsumiy ishlar uchun tuzilgan mehnat shartnomalarining muddati tugashi ham taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari hisoblanishi o'ziga xoslikka ega

bo'lsa-da, ushbu turdagi shartnomalarni bunday asoslarga kiritish maqbul emas. Chunki bu holatda mehnat shartnomasini tuzayotganda taraflar mehnat shartnomasini bekor qilish vaqtini oldindan kelishib olgan bo'lishadi. Binobarin, taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holda mehnat shartnomasi bekor qilinganda esa, taraflarning kelishuvi ham, irodasi ham hech qanday rol o'ynamaydi.

E'tiborli jihati shundaki, Moldova Mehnat kodeksida mehnat shartnomasini tuzish qoidalariga rioya qilmaslik sifatida kodeksda belgilangan mehnat shartnomasini tuzish shartlariga rioya qilmaslik hollari nazarda tutilgan. Boshqa birorta MDH mamlakatida ushbu qoida ko'zga tashlanmaydi. Shu sababli Moldova mehnat qonunchiligini o'rganish va milliy qonunchilikni takomillashtirishda uning tajribasiga tayanish mumkin.

Qozog'iston Respublikasining Mehnat kodeksi normalarini tahlil qiladigan bo'lsak, eng avvalo, aytib o'tish joizki, Qozog'iston Mehnat kodeksiga shu yilga qadar ko'plab o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, 2015-yil 23-noyabrda yangi tahrirda qabul qilingan va 2016-yil 1-yanvardan kuchga kirgan.

Qozog'iston Respublikasining Mehnat kodeksining 57-moddasiga ko'ra, quyidagi holatlar mehnat shartnomasining taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holda bekor bo'lishiga asos bo'ladi [21]:

- mahalliy ijro organlari tomonidan xorijiy ishchilarga ishga joylashish uchun berilgan ruxsatnomaning qaytarib olinishi;

- xodimni yoki ish beruvchi – jismoniy shaxsni jazoga mahkum qilgan sud hukmining kuchga kirishi, agar bu mehnat munosabatlarining davom ettirilishiga to'sqinlik qilsa;

- xodim yoki ish beruvchi – jismoniy shaxsning vafot etishi, sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi yoki bedarak yo'qolgan deb topilishi;

- sud tomonidan xodimning muomalaga layoqatsiz deb topilishi yoki muomala layoqati cheklangan deb topilishi va buning nati-

jasida xodim mehnat munosabatlarini davom ettirish imkonini yo'qotsa;

- shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim ishga tiklangan taqdirda;

- xodimning muddatli harbiy xizmatga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xizmatiga yoki boshqa maxsus davlat organlari xizmatiga chaqirilishi (kirishi), bunday holda bu haqda xodimda tegishli hujjat mavjud bo'lgan kundan e'tiboran uch kun ichida mehnat shartnomasi bekor qilinishi kerak.

Shuningdek, Qozog'iston Respublikasida ham mehnat shartnomasi uni tuzish qoidalari buzib tuzilgani shartnomani bekor qilishning alohida asosi sifatida kodeksning 60-moddasida belgilangan. Bunda qanday holatlar shartnoma tuzish qoidalarini buzish hisoblanishining ham ko'rsatilgani alohida ahamiyatga ega.

### **Xulosalar**

Mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hollarda bekor qilish uchinchi shaxslarning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishdir.

Huquqshunos S.Y. Filchakova esa o'zining ilmiy ishida uchinchi shaxs sifatida davlatni ham tushunish kerakligini aytadi, bunda davlat o'zining vakolatli organlari: harbiy komissariat, mehnat inspeksiyasi yoki sud orqali ishtirok etadi.

Bundan tashqari, mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan asoslar bilan bekor qilish har doim ham uchinchi shaxslarning tashabbusi bilan bo'lmaydi. Bunda hatto davlat organlari ham tashabbuskor bo'lmasligi mumkin. Masalan, xodim vafot etishi va uning vafotini tasdiqlovchi guvohnomaning mavjudligi u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga asos bo'luvchi yuridik fakt hisoblanib, bunda hech qanday uchinchi tarafning tashabbusi ham, irodasi ham rol o'ynamaydi.

MDH davlatlari mehnat qonunchiligini tahlil qilish va O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi normalari bilan qiyoslash quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:



Birinchidan, MDH davlatlarining mehnat qonunchiligida xodimning yoki jismoniy shaxs bo'lgan ish beruvchining vafot etishi, shuningdek, sud tomonidan xodimning yoki jismoniy shaxs bo'lgan ish beruvchining vafot etgan yoki bedarak yo'qolgan deb topilishi mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilish mumkin. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Mehnat kodeksiga ko'ra, faqatgina xodimning vafoti munosabati bilan mehnat shartnomasini ushbu asos bilan bekor qilish mumkin. 2023-yil 30-aprelda kuchga kiradigan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga jismoniy shaxs bo'lgan ish beruvchi vafot etganda, shuningdek, jismoniy shaxs bo'lgan ish beruvchi sud tomonidan vafot et-

gan yoki bedarak yo'qolgan deb e'tirof etilganda mehnat shartnomasi bekor qilingan deb hisoblanishi aniq belgilab qo'yilgan.

Ikkinchidan, ayrim MDH davlatlarida lavozimga saylanmaslik (shu jumladan, tanlov asosida ham) mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilish asosi hisoblanadi. Yangi muddatga saylanmagani (tanlov bo'yicha o'tmagani) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etgani munosabati bilan mehnat shartnomasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Mehnat kodeksining 97-moddasi oltinchi bandi bilan bekor qilinadi. Chunki ushbu holat mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy asoslaridan biri sanaladi.

## REFERENCES

1. Fil'chakova S.Yu. Prekrashcheniye trudovogo dogovora po obstoyatel'stvam, ne zavisyashchim ot voli storon [Termination of an employment contract due to circumstances beyond the control of the parties]. PhD thesis. Moscow, 2003, p. 12.
2. Dorokhina J.Yu. Trudovoy dogovor po zakonodatelstvu Rossiyskoy Federatsii i otdelnykh gosudarstv-uchastnikov SNG: na primere Respubliki Belarus i Respubliki Kazakhstan [Employment contract under the legislation of the Russian Federation and individual CIS member states: on the example of the Republic of Belarus and the Republic of Kazakhstan]. PhD thesis. Moscow, 2009, p. 27.
3. Kochkarova E.A. Sravnitel'nyy analiz trudovogo dogovora po zakonodatelstvu o trude Kyrgyzskoy Respubliki i SShA [Comparative analysis of the employment contract under the labor legislation of the Kyrgyz Republic and the USA]. PhD thesis. Moscow, 2001, p. 24.
4. Vasilyeva V.I. Obshchaya kharakteristika trudovogo dogovora po zakonodatelstvu Rossii, Avstrii i Fransii [General characteristics of the employment contract under the laws of Russia, Austria and France]. PhD thesis. Moscow, 2006, p. 31.
5. Ismoilov Sh.A. New tendencies of liberalization of labor legislation of the Republic of Uzbekistan. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 2021, vol. 9 (12), pp. 582–589. Available at: <https://www.internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/746/>.
6. Aktamovich R.M. Some aspects employment law of Uzbekistan. *World Bulletin of Management and Law*, 2022, no. 15, pp. 116–118.
7. Karimjonov M. A disciplinary responsibility by the labor legislation of the Republic of Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, vol. 3 (5), pp. 121–129.
8. Khozhabekov M. Analiz teorii dopolnitel'noy raboty po trudovomu zakonodatel'stvu zapadnykh stran [Analysis of the theory of additional work on the labor legislation of Western countries]. *Society and Innovation*, 2022, vol. 3.7/S, pp. 310–318.
9. Khakberdiev A. The process of termination an employment contract with an employee of a foreign embassy. *Science and Innovation*, 2022, no. 1 (C7), pp. 303–306.

10. Abdusalilovich Y.N. Legal regulation of working time in the Republic of Uzbekistan and their peculiarities. *JournalNX*, pp. 393–396.
11. Shoislomova S. Legal regulation of the disciplinary responsibility of the employee. *World Bulletin of Management and Law*, 2022, no. 15, pp. 119–124.
12. Murodullayev D. Znachenije mezhdunarodno-pravovykh standartov v oblasti okhrany truda [Importance of international legal standards in the field of labor protection]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 4, spec. iss., pp. 82–87.
13. Kiselev I.Ya. Sravnitelnoye i mezhdunarodnoye trudovoye pravo [Comparative and international labor law]. Moscow, 1999, pp. 370–371.
14. Kiselev I.Ya. Trudovoye pravo Rossii i zarubezhnykh stran [Labor law of Russia and foreign countries]. Moscow, EXMO, 2005, p. 353.
15. National Center for Legislation under the President of the Republic of Tajikistan. Available at: <http://ncz.tj/legislation/>.
16. National Legal Internet Portal of the Republic of Belarus. Available at: <https://pravo.by/>.
17. Hardly S., Butler M. European Employment Laws: a comparative guide. 3rd ed. Great Britain, Ltd by Short Run Press, 2016, pp. 113–142.
18. National Legal Internet Portal of the Republic of Azerbaijan. Available at: <https://republic.preslib.az/>.
19. Scientific Center for Legal Information under the Ministry of Justice of the Russian Federation. Available at: <http://www.scli.ru/>.
20. Official website Parliament of the Republic of Moldova. Available at: <https://www.parlament.md>.
21. Information and legal system of normative legal acts of the Republic of Kazakhstan. Available at: <https://adilet.zan.kz/>.

UDC: 343.851(045)(575.1)

## JAZO MAQSADLARIGA ERISHISHDA PENITENSIAR SIYOSAT

**Salayev Nodirbek Saparbayevich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga  
qarshi kurashish kafedrası professori,  
yuridik fanlar doktori  
ORCID: 0000-0002-2147-8762  
e-mail: n.salayev@tsul.uz

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada penitensiar siyosatning jinoiy jazo qo'llashdan ko'zlangan maqsadlarga erishishdagi roli huquqiy jihatdan tahlil etilgan. Muallifning fikricha, jamiyatning yashash sharoitlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, huquqbuzarliklardan jamiyatning o'zini o'zi himoya qilish vositasi sifatida jazo zarurdir. Ko'plab davlatlarda va umuman hozirgi zamon jinoyat huquqi doktrinasida jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish, ijtimoiy adolatni tiklash hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llanadi. Maqolada xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi hamda huquqshunos olimlarning davlat boshqaruvi shakliga oid bu boradagi yondashuvlari tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, muallif tomonidan penitensiar siyosat asosiy yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga ham huquqiy jihatdan baho berilgan.

**Kalit so'zlar:** penitensiar tizim, mahkum, jazo maqsadi, jazoni ijro etish, differentsiatsiya.

### ПЕНИТЕНЦИАРНАЯ ПОЛИТИКА В ДОСТИЖЕНИИ ЦЕЛЕЙ НАКАЗАНИЯ

**Салаев Нодирбек Сапарбаевич,**  
доктор юридических наук, профессор кафедры  
«Уголовное право, криминология и противодействие коррупции»  
Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** В данной статье с правовой точки зрения анализируется роль пенитенциарной политики в достижении целей уголовного наказания. По мнению автора, наказание необходимо как средство самозащиты общества от нарушений вне зависимости от условий жизни данного общества. Во многих странах и в современной уголовно-правовой доктрине в целом наказание используется для исправления нравственности осужденного, недопущения продолжения им преступной деятельности, восстановления социальной справедливости, предотвращения совершения нового преступления как осужденным, так и другими лицами. В статье автор проанализировал передовой опыт зарубежных стран и подходы ученых-правоведов к форме государственного управления в этом отношении. Кроме того, автор дал правовую оценку основным направлениям пенитенциарной политики.

**Ключевые слова:** пенитенциарная система, осужденный, назначение наказания, исполнение наказания, дифференциация.

## PENITENTIARY POLICY IN ACHIEVING THE GOALS OF PUNISHMENT

**Salaev Nodirbek Saparbaevich,**

Professor, Department of Criminal Law,  
Criminology and Anti-Corruption,  
Tashkent State University of Law,  
DSc in Law

**Abstract.** *This article analyzes the role of penitentiary policy in achieving the goals of criminal punishment from a legal point of view. According to the author, punishment is necessary as a means of self-defence of society from violations, regardless of the living conditions of society. In many countries and in the modern criminal law doctrine as a whole, punishment is used to correct the morality of the convict, to prevent him from continuing his criminal activity, to restore social justice, and to prevent both the convict and other persons from committing a new crime. In the article, he analyzed the best practices of foreign countries and the approaches of legal scholars to the form of public administration in this regard. In addition, the author gave a legal assessment of the main directions of penitentiary policy.*

**Keywords:** *penitentiary system, convict, sentencing, execution of punishment, differentiation.*

### Kirish

Insoniyat sivilizatsiyasida o'zining aniq va mufassal javobini kutayotgan muammolar talaygina. Shular qatorida asrlar davomida fuqarolar, olimlar, siyosatchilar, sotsiologlar, davlat arboblari, umuman jamiyat va davlat oldida turgan eng serqirra va murakkab muammolardan biri – jinoiy jazo va uni ijro etishdir.

Shu bilan birga, jazoning asl mohiyatini aks ettirish va undan ko'zlangan maqsadga erishishda uni to'g'ri tayinlash, tayinlangan jazoning esa oqilona ijro etilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan hozirda dunyo bo'ylab ko'plab mutaxassislarning davlatning jinoyat-huquqiy siyosati samarasizligi sabablarini jazo siyosatidan emas, balki aynan penitensiar siyosatdan izlashga urinayotganligi ham bejiz emas.

Davlatda jinoiy jazo tizimi turlicha bo'lishi mumkin: og'ir, yengil, liberal yoki repressiv va hokazo. Ammo u odilona va to'g'ri tayinlanmasa, bu masala umuman ahamiyat kasb etmaydi. Xuddi shunday, tayinlangan jazo, u qanday jazo turi bo'lishidan qat'i nazar, oqilona ijro etilmasa, har qanday mantiq chippakka chiqishi muqarrar.

Zotan, ko'plab davlatlarda va umuman hozirgi zamon jinoyat huquqi doktrinasida jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish, ijtimoiy adolatni tiklash hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llanadi. Ya'ni mahkum axloqan tuzalgan bo'lsa, shuningdek, mahkum va boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldi olingan bo'lsagina, jazodan ko'zlangan maqsadga erishilgan deb hisoblanishi mumkin. Mazkur yakuniy natija esa tayinlangan jazoning qay darajada ijro etilishi, ushbu mexanizmning qonuniyligi, adolatlilik, eng muhimi, jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, jinoiy jazoni ijro etish tizimining oqilona yo'lga qo'yilishi – jazoning maqsadiga erishishda muhim va yagona omil hisoblanadi.

### Material va metodlar

Mazkur tadqiqot ishida quyidagi masalalar tahlil qilindi: birinchidan, O'zbekistonda penitensiar sohada amalga oshirilgan islohotlarni tahlil qilish; ikkinchidan, jinoiy jazolarni ijro etishni differentsiatsiya qilish



va individuallashtirishning ahamiyatini tadqiq qilish; uchinchidan, bu boradagi milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarga javob topish maqsadida mazkur tadqiqot ishida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

O'zbekiston hududida penitensiar tizimning asosiy rivojlanish fazasi O'zbekistonning mustaqillik yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda O'zbekistonda jinoiy jazolarni ijro etish yo'nalishida qator qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ularni shartli ravishda 4 bosqichga ajratish mumkin:

1-bosqich – 1991–2001-yillar. Bu davrda jinoiy jazolarni ijro etishning huquqiy asoslari yaratildi. Avvalo, 1992-yilda O'zbekiston Respublikasining "Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati to'g'risida"gi qonuni, 1997-yilda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi qabul qilinganligini alohida e'tirof etish joiz.

Mazkur kodeks O'zbekistonda nafaqat jinoiy jazolar, balki boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ham ijro etishning huquqiy asosini o'zida aks ettirgan kodifikatsiya qilingan normativ-huquqiy hujjat bo'lib, aynan jinoiy jazoni ijro etish tizimini kompleks qamrab olishi bilan avvalgi jazoni ijro etish qonunchiligidan tubdan farq qiladi. Jumladan, 1970-yil 24-iyundagi Axloq tuzatish mehnat kodeksida jinoiy jazolarning faqat axloq tuzatish bilan bog'liq bo'lgan jazolarning huquqiy asosi nazarda tutilgan bo'lib, jinoiy jazolarning boshqa turlari turli xildagi normativ-huquqiy aktlar bilan tartibga solinar edi. Lekin jinoiy jazolarning boshqa axloq tuzatish ishlari bilan bog'liq bo'lmagan bir necha turlari ham mavjud edi. Yangi JIK jinoiy jazolarning barcha turlari, shu bilan bir

qatorda, jazo bilan bog'liq bo'lmagan boshqa huquqiy ta'sir choralari ham ijro etish qoidalarini belgilab berdi.

Shu bilan birga, yangi Jinoyat-ijroiya kodeksi inson manfaatlari ustun qo'yilgan, milliy qonunchilik tamoyillari bilan yo'g'rilgan va xalqaro andozalarni ham inobatga olgan holda qabul qilingan. Qonun davlat manfaatlaridan ko'ra mahkumlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga asoslangan. Avvalgi qonunlar siyosiy mafkuraning manfaatlari negizida bo'lganligi uchun ham doimiy ravishda butun jahon tan olgan xalqaro tashkilotlarning tanqidida bo'lib kelgan edi.

Jinoyat-ijroiya kodeksini ishlashda jinoyatchilikka qarshi kurash, jinoiy jazolarni qo'llash va mahkumlar bilan muomala qilishning insoniylik tamoyillarini hisobga olgan holda huquqiy siyosatga asoslanildi. Bunday yondashuvga butun jinoiy jazolarni ijro etish tizimida jazolarni ijro etish organlari va muassasalarining ishlarini tashkil etishning normativ ba'zasini yaratishda ham tayanildi.

2-bosqich – 2001–2009-yillar. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolarni ijro etish mexanizmlarini belgilovchi qator qonun hujjatlarining qabul qilinishi bu sohani yangi bosqichga olib chiqdi. Jumladan, 2001-yilda O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonuni, 2006-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-458-sonli qarori qabul qilindi, 2001-yil 17-noyabrda Ichki ishlar vazirligining 298-sonli buyrug'i bilan Axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish tartibiga oid yo'riqnoma tasdiqlandi.

3-bosqich – 2009–2017-yillar. 2009-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Ijro ishini yuritish takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi munosabati bilan sud hujjatlari, shu jumladan, jinoiy jazolarni ijro etish tizimida samarali yangiliklar joriy etildi. Shuningdek, bu davrda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2012-yil 29-dekabrda 174-sonli buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidolari, 2014-yil 27-iyulda 103-sonli buyrug'i bilan "Mahkumlarni jazoni ijro etish muassasasiga jo'natish hamda ularni bir muassasadan boshqasiga ko'chirish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi.

4-bosqich – 2017-yildan to hozirga qadar. 2018-yil 7-noyabrda "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilinib, jinoiy jazolarning ijrosini ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirishning yettita ustuvor yo'nalishlari belgilandi hamda ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida yangi tahrirdagi Jinoyat-ijroiya kodeksi loyihasi ishlab chiqilishi vazifasi yuklatildi. Qarorda belgilangan mahkumlar huquqlariga so'zsiz rioya etilishi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishini ta'minlashning sifat jihatidan yangi mexanizmlarini joriy etish, umum e'tirof etilgan xalqaro standartlarga mos ravishda mahkumlar huquqlari doirasini yanada kengaytirish kabi ustuvor vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda Jinoyat-ijroiya kodeksining yangi tahriri ustidagi yakuniy ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 625-sonli qonuni ham Jinoyat-ijroiya kodeksidagi bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

Ushbu qonunga asosan, Jinoyat-ijroiya kodeksining 11-, 67-, 76-, 79-, 102-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, ushbu kodeks 1021-modda (Rag'batlantirish choralari qo'llash tartibi) bilan to'ldirildi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar bugungi kunda O'zbekistonda jinoiy jazolarni ijro etishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirish prinsipi sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va uni sodir etishning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda jazoni ijro etishni tashkil qilishni anglatadi. Shu prinsipning muhim ko'rinishi tarzida mahkumlarga nisbatan majburlov choralari oqilona mezonlarda qo'llash, ayni vaqtda uning namunaviy xulq-atvorini e'tiborga olib rag'batlantirish alohida ahamiyatga ega ekanligi JIKning muayyan moddalarida nazarda tutilgan. Ularni amalga oshirish har bir jazoni o'tayotgan mahkumning kundalik xulq-atvori hamda turli vaziyatlarda qonunga itoatkorligini kuzatishga bog'liq.

Shu bilan birga, jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishning har biri o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar, maqsad va vazifalarga ega.

Jazoni ijro etishda differentsiatsiya – mahkum va u sodir etgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi, ushbu shaxsning ilgari ham jinoyat sodir etib, jazo o'tab chiqqanligi, retsidivligiga ko'ra ajratishni anglatadi [1]. Mazkur tamoyil bo'yicha turli mahkumlar bir-biridan ajratilgan holda saqlanadi, ularga nisbatan turli xildagi tarbiyaviy va majburlov choralari qo'llanadi.

Jazoni ijro etishda individuallashtirish – jazoni ijro etishda mahkumni axloqan tuza-tishga qaratilgan, mahkum va sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligiga ko'ra ajrat-

gan holda har bir mahkumga individual yondashib, ularni otryad va brigadalarga taqsimlashni anglatadi. Jazoni ijro etishda individuallashtirish orqali mahkumlarni alohida nazorat qilish va hisobga olish, ular bilan yakka tartibda, guruh bilan va ommaviy shaklda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni belgilash, rejalashtirish, ularga nisbatan qo'llanadigan aniq majburlov choralari aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Jinoiy jazolarni differentsiatsiya qilish va individuallashtirish masalasi ko'plab xalqaro hujjatlarda alohida belgilangan. Jumladan, Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalarining 8-bandiga ko'ra [2], mahkumlarning turli toifalari ularning jinsi, yoshi, avval sudlanganligi, hibsga olishning huquqiy sabablari va u bilan muomala qilish qanday belgilab qo'yilganligini hisobga olgan holda turli muassasalar yoki bir muassasaning turli qismlarida saqlanadi. Shuningdek, 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 10-moddasida [3] favqulodda vaziyatlar mavjud bo'lmagan holatlarda ayblanayotganlar mahkumlardan alohida saqlanadi va ularga sud tomonidan hukm qilinmaganligi maqomiga javob beradigan alohida tartib taqdim etiladi. Voyaga yetmagan ayblanuvchilar voyaga yetganlardan ajratiladi va eng qisqa muddatda sudga hukm chiqarilishi uchun yetkaziladi. Voyaga yetmaganlarga yoshi hamda huquqiy maqomiga javob beradigan tartib joriy etiladi.

Qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi JIKning 6-moddasida jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish prinsipi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining prinsiplaridan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, kodeksning 97-moddasida mahkumlar bilan tarbiyaviy ish olib borish tartibi nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, jazoni ijro etish muassasalarida ma'naviy, huquqiy, jismoniy va boshqa tarbiyaviy ishlar olib boriladi. Tarbiyaviy ish yakka tartibda, guruh bilan va ommaviy shaklda

amalga oshiriladi. Tarbiyaviy ish differentsiatsiya asosida, muassasa turi, jazo muddati va saqlash sharoiti, shuningdek, mahkum shaxsining xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Shuningdek, kodeksda mazkur prinsipning realizatsiyasi sifatida mahkumlar turli koloniyalarga joylashtirishi, ularga turli tartib-qoidalar qo'llanishi, tegishli saqlash sharoitlari yaratilishi va shunga monand imtiyozlar berilishi nazarda tutilgan. Jumladan, kodeksning 45-moddasida jazoni ijro etish muassasalarining turlari keltirilgan bo'lsa, 2-kichik bo'limda ushbu koloniyalar va turmalarda jazoni o'tash tartibiga oid qoidalar belgilangan. Bundan tashqari, kodeksning 61-moddasida mahkumlarni saqlash sharoitini o'zgartirishga doir normalar mustahkamlangan.

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari tahlili jinoiy jazolarni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishning quyidagi mexanizmlari joriy etilganligini ko'rsatadi:

birinchidan, mahkumlarga axloqan tuza-tish vositalari jazo turi, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, shuningdek, mahkumning shaxsi va xulq-atvorini inobatga olgan holda qo'llanadi (JIKning 7-moddasi);

ikkinchidan, mahkumlarning huquq va majburiyatlari muayyan jazo turini ijro etish tartibi hamda shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi (JIKning 8-moddasi);

uchinchidan, jazolar va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etuvchi muassasalar va organlar doirasi hamda ularni ijro etish tartibi jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari turini inobatga olgan holda belgilangan (JIKning 14–15-moddalari);

to'rtinchidan, voyaga yetgan va voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan majburlov choralari tegishliligiga ko'ra alohida belgilangan (JIKning 15-moddasi);

beshinchidan, jazoni ijro etish muassasasining turiga qarab mahkumlarning huquq-

lari, jumladan, mahkumlarning oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olishi, uchrashuvlari, telefon orqali so'zlashuvlari, yozishmalari, posilkalar, yo'qlovlar, banderollar va pul jo'natmalarini olish hamda yuborishi, moddiy-maishiy ta'minoti va ularga tibbiy xizmat ko'rsatish, mehnatga jalb etish shartlari turlicha belgilangan (JIKning 36–44-moddalari va boshq.). Jumladan, JIKning 42-moddasiga ko'ra, qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar qamoq uyining xo'jalik xizmatiga oid ishlarga haftasiga to'rt soatgacha bo'lgan muddatga haq to'lamagan holda jalb etilishi mumkin;

oltinchidan, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini amalga oshiruvchi muassasalar mahkumning shaxsi (voyaga yetgan yoki voyaga yetmagan, ayol yoki erkak, ilgari sudlangan yoki retsidivist va h.k.) va u tomonidan sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga (ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar) ko'ra turlicha belgilangan (JIKning 50-moddasi, JIKning 45-moddasi);

yettinchidan, voyaga yetmagan shaxslar, ayollar, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, sudlar va huquq-tartibotni muhofaza qilish organlarining sobiq xodimlariga mansub mahkumlarga alohida tartiblar belgilangan (JIKning 53-, 58-moddalari). Jumladan, JIKning 58-moddasiga ko'ra, jazoni ijro etish muassasalarida erkaklar va ayollar, voyaga yetmaganlar va katta yoshlilar, ozodlikdan mahrum etishga birinchi marta hukm qilingan shaxslar va ilgari bu jazo turini o'tagan mahkumlar alohida-alohida saqlanadi. Quyidagilar boshqa mahkumlardan batamom ajratilib, shuningdek, alohida-alohida saqlanadi: 1) o'ta xavfli retsidivistlar; 2) umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan mahkumlar; 3) mahkum ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar; 4) sud va huquq-tartibotni muhofaza qiluvchi organlarning sobiq

xodimlariga mansub mahkumlar; 5) turli yuqumli kasalliklarga chalingan mahkumlar;

sakkizinchidan, tayinlangan jazo turi-ga ko'ra, shuningdek, mahkumning shaxsini inobatga olib, mahkumlarga turli rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llaniladi (JIKning 44-, 102-, 105-, 109-moddalari). Jumladan, JIKning 109-moddasiga ko'ra, intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish tariqasidagi intizomiy jazo I guruh nogironlari hamda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod etilgan, shuningdek, yonida emizikli bolasi bor ayollarga nisbatan qo'llanilmaydi;

to'qqizinchidan, jazoni ijro etish jarayonida mahkumning xulqi inobatga olingan holda turli mexanizmlar qo'llanadi. Jumladan, JIKning 112-moddasiga ko'ra, rejimni ashaddiy buzuvchi yengillashtirilgan saqlash sharoitiga, manzil-koloniya o'tkazilmaydi, shuningdek, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish hamda jazoni yengilrog'i bilan almash-tirishga taqdim etilmaydi;

o'ninchidan, mahkumning shaxsini ino-batga olgan holda ularga turli saqlash sha-roitlari belgilanadi. Jumladan, JIKning 122-moddasiga ko'ra, homilador ayollar va yonida emizikli bolasi bor ayollar, shuningdek, I va II guruh nogironlari turmalarda ja-zoni yengillashtirilgan saqlash sharoitida o'taydilar.

Yuqorida qayd etilgan mexanizmlarning barchasi orqali mahkumning shaxsiga ta'sir ko'rsatiladi, xulqi ijobiylashadi, u yangi ji-noyat sodir etishga qarshi tarbiyalanadi. Bu esa jazoning maqsadlariga erishishda differ-ensiatsiya va individuallashtirishning ahami-yatini ko'rsatadi.

#### *Muammo, yechim va samara*

O'zbekistonda yuqorida qayd etilgan ijo-biy holatlar mavjud bo'lsa-da, sud-tergov va qonunni qo'llash amaliyoti tahlili jinoiy jazolarni ijro etish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlarining jinoyatchilikning oldini olish-dagi samarasi yetarli darajada emasligi, bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlar taj-ribasini o'rganish va milliy qonun hujjat-



lariga implementatsiya qilish, bunda jinoiy jazolarni ijro etish hamda differensiatsiya va individuallashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurati mavjudligini ko'rsatmoqda.

Jumladan:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida jinoiy jazoni ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlari kodifikatsiya qilingan bo'lsa-da, so'nggi yillarda jinoiy jazolarni ijro etish hamda jazolarni ijro etishni differensiatsiya va individuallashtirishni tartibga soluvchi bir qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Shu sababdan hozirda mazkur sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlarini tizimlashtirish, kodifikatsiyalashtirish masalasini qayta ko'rib chiqish muammosi yuzaga kelgan. Boshqacha aytganda, O'zbekistonda jinoyat-ijroiya qonunchiligini inventarizatsiya qilish orqali uni takomillashtirish va qonun normalari o'rtasidagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etib borish zarur.

Ikkinchidan, Jinoyat-ijroiya kodeksida jazoni ijro etishda differensiatsiya va individuallashtirishga rioya etish jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining prinsiplari sifatida sanalgan bo'lsa-da, kodeksda ularning mazmuni, ularga rioya qilish shartlari aniq belgilanmagan.

Qabul qilinayotgan qonunlar, ularga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarning yetarli samara bermasligiga, birinchidan, ushbu qonunlarda ulardagi normalarni amalga oshirish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilmaganligi, ikkinchidan, mazkur qonunlarning samarali ishlashiga yordam beradigan tegishli qonunosti hujjatlari chiqarilmayotganligi sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, qonunda uni hayotga real tatbiq etish imkoniyatlarini nazarda tutuvchi normalar belgilanishi lozim.

Shu sababdan O'zbekiston Respublikasi JIKga "jazoni ijro etishda differensiatsiyaga rioya etish" hamda "jazoni ijro etishda individuallashtirishga rioya etish"ga oid alohida normalar kiritish, ularda ushbu prinsiplar-

ning aniq mazmuni, tatbiq etiluvchi subyektlar, amalga oshirish shakllari va mexanizmini aks ettirish lozim.

Uchinchidan, jinoyatchini o'ziga o'xshash jinoyatchilar muhitiga joylashtirish jazoni ijro etish jarayonidagi eng salbiy omillardan biri hisoblanadi. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida jinoyatchilar o'z maktabini tashkil qiladilar va bunda davlat ularga qaysidir ma'noda "yordam" beradi. Bu yerda mahkumlar bir-birlari bilan jinoiy tajriba almashadilar. Mohiyat e'tibori bilan ularning ayrimlari uchun jazoni o'tash o'ziga xos "malaka oshirish kursi"ga aylanadi. Shu bois mazkur chigal muammoni yumshatishning muayyan samarali mexanizmini ishlab chiqish davr talabidir. Bunda jinoiy jazoni ijro etishda differensiatsiya va individuallashtirish maqsadida jazoni o'tash uchun yuborilgan shaxslarni o'rganish va ularni differensiatsiya qilish tizimini takomillashtirish, shuningdek, "axloqan tuzalish yo'liga o'tgan", "axloqan tuzalish yo'liga o'tayotgan" va "axloqan tuzalish yo'liga o'tmagan" mahkumlarini ajratib saqlash vositalari va ular bilan ishlash mexanizmlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu borada Belarus Respublikasidagi mavjud tajribani ijobiy holat deb hisoblaymiz. Ya'ni Belarus Respublikasi JIKning 116-moddasiga ko'ra, mahkumlarning axloqan tuzalish ro'yxati belgilangan. Ro'yxatga asosan, mahkumlar "axloqan tuzalish yo'liga o'tishi mumkin bo'lgan", "axloqan tuzalish yo'liga o'tishi qiyin bo'lgan" hamda "axloqan tuzalish yo'liga o'tganligini isbotlagan" mahkumlarga ajratiladi [4]. Mazkur mexanizmni joriy etish va to'g'ri yo'lga qo'yish orqali mahkumlarning "axloqan tuzalish lifti" [5] yaratiladi.

To'rtinchidan, jazoni ijro etish muassalarida yuqorida qayd etilgan ro'yxatni shakllantirish, mahkumlarni guruhlariga ajratish maqsadida ularning xulq-atvorini o'rganuvchi va baholovchi maxsus ruhshunoslar jalb qilish [6] hamda alohida komissiya tashkil etish, mahkumlar bilan ishlash-

ning yangi psixologik va pedagogik metodlarini ishlab chiqish lozim.

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi JIKning 45-moddasiga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini jazoni ijro etish muassasalari amalga oshiradi. Jazoni ijro etish muassasalariga quyidagilar kiradi: 1) jazoni ijro etish koloniyalari; 2) tarbiya koloniyalari; 3) turmalar.

Bungi zamon talabi, shuningdek, jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish maqsadi jazoni ijro etishning boshqa shakllarini tashkil etish zaruratini ko'rsatmoqda.

Oltinchidan, mahkumlarning jinsi, yoshi, ma'lumoti, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, mehnat bilan bandlik bo'yicha differentsiatsiya va individuallashtirish choralari ko'rib chiqish zarur.

Soha mutaxassislari [7] o'tkazgan tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar ishlab chiqarish faoliyati mahkumlar axloqan tuzalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish bo'yicha xorijiy mamlakatlar (ayniqsa, Finlandiya [8], GFR [9] va boshqa Yevropa davlatlari) tajribasini tadqiq etish asosida mazkur mamlakatlarda ushbu muassasalarning asosiy faoliyati u yerda saqlanayotgan mahkumlarni o'qitish, ularda yuksak kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, natijada bu shaxslar jazoni o'tab bo'lgach, davlat va jamiyat uchun foydali, maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassis sifatida hayotlarini davom ettirishga erishish ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning psixologik xizmatlar rahbarligida faoliyat olib boruvchi Germaniyadagiga o'xshash jamoalar tashkil etilsa, mahkumlar yashash, ishlash, kasb-kor o'zlashtirish, ozodlikdagi hayotga tayyorgarlik ko'rish bilan shug'ullinishlari uchun imkoniyat yaratadigan reabilitatsiya markazlari yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yettinchidan, belgilangan maqsadlarga erishishda xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqurroq o'rganish, tahlil qilish zarurati mavjud. Bu orqali mamlakatda jazoni ijro etish tizimining eng samarali mexanizmlarini joriy qilish imkonini yuzaga keladi. Jumladan, Germaniyada jazoni ijro etish muassasalaridagi ikki holat diqqatga sazovor. Birinchisi – mahkumni "ochiq" turmaga o'tkazish tizimi; ikkinchisi – mahkumni ozodlikka chiqarishga tayyorlash tizimi. Mazkur tizim mamlakatimizda ham jinoyat-ijroiya qonunchiligi bilan tartibga solingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi JIKga ko'ra, og'ir jinoyat sodir etgan shaxs tayinlangan jazoning to'rtidan bir qismini, o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxs esa tayinlangan jazoning uchdan bir qismini o'tab bo'lgandan so'ng manzil koloniyasiga o'tkazilishi mumkin (JIKning 113-moddasi ikkinchi qismi). Shu bilan birgalikda, mahkumni ozodlikka chiqarishga tayyorlash tizimi ham JIK orqali tartibga solingan (JIKning 114-moddasi). Ammo bu normalarni takomillashtirish lozim va bu borada Germaniya [10] va Fransiyada [11] mavjud tajribalardan foydalanish mumkin.

### **Xulosalar**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, jinoiy jazolarni ijro etishni differentsiatsiya va individuallashtirish yetarli darajada tartibga solinib, qonun ijrosi amalda to'liq ta'minlanmas ekan, jazo ijrosini so'zning o'z ma'nosida ta'minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning imkoniyati mavjud emas. Bu esa, o'z navbatida, tayinlangan jazoning samarasizligiga, natijada jazodan ko'zlangan maqsadga erishilmasligiga olib keladi. Zotan, aybdor shaxsga adolatli jazo tayinlash hamda uning ijrosini tashkil etish va ta'minlash, ularni ijro etishni differentsiatsiya va individuallashtirish bir butunlikda jazodan ko'zlangan maqsadga erishish imkonini beradi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi [Legal encyclopedia of Uzbekistan]. Resp. ed. N. Toychiev. Tashkent, Adolat Publ., 2011, p. 164.
2. Bakaeva F., Lankevich E., Toshboev S. et al. Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari [Minimum standard rules for dealing with prisoners]. Prisoners' rights: international and national standards. Resp. ed. A. Saidov. Tashkent, Tafakkur Publ., 2011, p. 98.
3. International Covenant on Civil and Political Rights. Human Rights: Collection of International Treaties, universal agreements. New York, UN, 2002, vol. 1, part 1, p. 20. Available at: <http://www.un.org/>.
4. Penal Code of the Republic of Belarus. Available at: <http://etalonline.by/>.
5. Yanchuk I.A. Ob ispol'zovanii otsenki stepeni ispravleniya osuzhdennykh k lisheniyu svobody v protsesse differentsiatsii i individualizatsii ispolneniya nakazaniya [On the use of the assessment of the degree of correction of convicts sentenced to deprivation of liberty in the process of differentiation and individualization of the execution of punishment]. *Bulletin of the Federal Penitentiary Service of Russia*, 2016, no. 1, p. 52.
6. Vasil'yev V.L. Yuridicheskaya psikhologiya [Legal Psychology]. St. Petersburg, Peter Publ., 2010, p. 575.
7. Shlykov V.V. Organizatsionno-pravovyye osnovy proizvodstvennoy deyatel'nosti ispravitel'nykh koloniy v tselyakh ispravleniya i trudovoy adaptatsii osuzhdennykh [Organizational and legal foundations of the production activities of correctional colonies for the purpose of correction and labor adaptation of convicts]. PhD thesis. Ryazan, 2007, pp. 73–74.
8. Lappi-Seppala T., Kimmo N., Sakari M., Merita H. Penal policy and criminal justice in Finland and other Nordic countries. Introduction to Finish law and legal culture. Helsinki, Unigrafia, 2012, pp. 215–236.
9. XX asrning 90-yillari boshida Germaniyada "Xavf ostidagilarga yordam" degan rasmiy nom ostida muassasalarning butun bir tarmog'i tashkil etilgan [In the early 90s of the 20th century, a whole network of institutions was established in Germany under the official name "Help for the vulnerable"].
10. Gavrishkiv B. V nemetskoy tyurme [In German prison]. *Crime and Punishment*, 2000, no. 1, p. 44.
11. Aleksandrov YU. Penitentsiarnaya sistema Frantsii [Penitentiary system of France]. *Crime and Punishment*, 1999, no. 11, p. 41.
12. Najimov M.Sh. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashning huquqiy asoslari va takomillashtirish muammolari [Legal basis of imprisonment and problems of improvement]. PhD thesis. Tashkent, TSIL, 2010, p. 112.
13. Andreev N.A., Morozov V.M., Kovalev O.G., Debolsky M.G., Morozov A.M. Resotsializatsiya osuzhdennykh v penitentsiarnykh uchrezhdeniyakh FRG (sotsial'no-psikhologicheskii aspekt) [Resocialization of convicts in penitentiary institutions of Germany (social and psychological aspect)]. Moscow, Human Rights, 2001, p. 26.
14. Prestupleniya i nakazaniya v Anglii, SSHA, Frantsii, FRG, Yaponii [Crimes and punishments in England, USA, France, Germany, Japan]. General part of criminal law. Moscow, 1991, p. 67.
15. Salaev N., Khamidov N. Qualification of Smuggling: Uzbek Legislation and Foreign Experience. *Ilkogretim Online – Elementary Education Online*, 2021, no. 20 (3), pp. 1661–1667. DOI: 10.17051/ilkonline.2021.03.189/.

UDC: 343.01(045)(575.1)

## JAZO TAYINLASH UMUMIY ASOSLARINING NAZARIY TAHLILI

**Rozimova Qunduz Yuldashevna,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga  
qarshi kurashish kafedrası dotsent v. b.,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
ORCID: 0000-0003-4475-0455  
e-mail: q.rozimova@gmail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jazo tayinlash sodir etilgan jinoyatning yakuniy bosqichi ekanligi, buni faqat mazkur jarayonda qatnashuvchi taraflarning o'zaro farqlari bilan ajratib olish mumkinligi qayd etilgan. Shuningdek, jazo tayinlashning umumiy asoslari bilan bog'liq masalalar qadimgi milliy olimlarimizning asarlaridan keltirilgan misollar asosida ko'rsatilgan. Jazo tayinlash bilan bog'liq masalalarda sodir etilgan jinoyat uchun faqatgina bitta jazo tayinlanishiga oid misollarga alohida e'tibor berilgan va jinoyat qonuni qoidalariga muvofiq har bir jinoyat faqat bitta asosiy jazoning qo'llanishini taqozo etishi shartligi, bu masalaning o'zgacha hal etilishi insonparvarlik va adolat prinsiplariga to'g'ri kelmasligi qayd etilgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada jazo tayinlashning umumiy asoslari, unda hisobga olinadigan holatlar borasidagi xorijiy va milliy olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilingan. Jazo tayinlashning umumiy asoslari sud tomonidan majburlov choralarini qo'llashda hisobga olinishi lozim bo'lgan jinoyat qonuni talablari ekanligi ta'kidlangan. Mazkur maqolada jazo tayinlashning umumiy asoslariga oid normalarni takomillashtirish zarurati mavjudligi sud amaliyoti materiallari va bugungi kunda jazo tayinlashning umumiy asoslarini nazariy jihatdan tahlil qilish va jinoyat qonuni normalarini takomillashtirishga ehtiyoj borligidan dalolat berayotganligi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** jazo, jazo tayinlash, ayb shakli, jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar, qilmish, javobgarlik, prinsip, jinoyat sodir etish usuli, motivi, yetkazilgan zarar miqdori, qilmishning xavflilik darajasi, xususiyati.

### ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБЩИХ ОСНОВ НАЗНАЧЕНИЯ НАКАЗАНИЯ

**Розимова Кундуз Юлдашевна,**  
доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
и. о. доцента кафедры «Уголовное право,  
криминология и противодействие коррупции»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В статье указано, что назначение наказания является заключительным этапом совершенного преступления, и различить его можно только по взаимным признакам сторон, участвующих в данном процессе. Также вопросы, связанные с общими основаниями назначения наказания, изложены на примере трудов отечественных ученых. В вопросах о назначении наказания отдельное внимание уделено назначению только одного наказания за совершенное преступление и отмечено, что в соответствии с положениями уголовного права каждое преступление должно требовать применения только одного основного наказания,



и особое решение этого вопроса не соответствует принципам гуманности и справедливости. Кроме того, в данной статье анализируются теоретические взгляды зарубежных и отечественных ученых на общие основания назначения наказания, обстоятельства, учитываемые в нем. Отмечено, что общими основаниями для назначения наказания являются требования уголовного права, которые должны учитываться судом при применении мер принуждения. Констатируется необходимость на сегодняшний день совершенствования норм общих принципов назначения наказания, о чем свидетельствуют материалы судебной практики, теоретического анализа общих принципов назначения наказания и совершенствования норм уголовного права.

**Ключевые слова:** наказание, назначение наказания, форма вины, смягчающие и отягчающие обстоятельства наказания, деяние, ответственность, принцип, способ совершения преступления, мотив, размер причиненного ущерба, степень опасности деяния, характер.

## THEORETICAL ANALYSIS OF THE GENERAL FOUNDATIONS OF SENTENCING

**Rozimova Kunduz Yuldashevna**

Senior Lecturer,  
Tashkent State University of Law,  
PhD in Law

**Abstract.** This article notes that the appointment of punishment is the final stage of the crime committed, which can only be distinguished by the differences between the parties involved in this process. Also, issues related to the general foundations of the imposition of punishment are indicated on the basis of examples from the works of our ancient national scientists. Particular attention was paid to examples of the appointment of only one punishment for a crime committed in matters related to the appointment of punishment, and it was noted that in accordance with the provisions of criminal law, each crime is obliged to require the application of only one basic punishment, the special resolution of this issue does not coincide with the principles. In addition, this article analyzes the general foundations of the imposition of punishment, and the theoretical views of foreign and national scientists on the circumstances to be taken into account in it. It is emphasized that the general basis for the appointment of punishment is the requirements of criminal law, which must be taken into account when applying coercive measures by the court. This article states the need to improve the norms of the general principles of sentencing, as evidenced by the materials of judicial practice and the need for a theoretical analysis of the general principles of sentencing today and the improvement of the norms of criminal law.

**Keywords:** punishment, sentencing, a form of guilt, mitigating and aggravating circumstances of punishment, act, responsibility, principle, method of committing a crime, motive, amount of damage caused, degree of danger of the act, specific feature and other circumstances, etc.

### Kirish

Jinoyat sodir etgan shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishi va unga nisbatan adolatli jazo tayinlanishi mamlakatda jinoiy-huquqiy siyosatning pirovard maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Jazo tayinlashning umumiy asoslari bilan bog'liq masalalarni qadimgi milliy olimlarimizning asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Chunonchi, mashhur faylasuf Abu

Nasr Forobiy jazo tayinlash asoslari borasida o'z qarashlarini bayon etar ekan, jinoyat uchun jazo tayinlashda asosiy e'tiborni qilmishning jamiyat uchun ijtimoiy xavfli darajasiga, keltiradigan zarariga qarata adolatdan ekanini, zero, qonunlar ijrosini kuzatuvchilarning asosiy maqsadi ham adolat bo'lishini, garchi adolatni qaror top-tirish uchun kaltaklash, qatl kabi usullar qo'llansa-da, ular adolatni qaror toptirishda

o'z-o'zicha ajoyib usullar hisoblanmasligini ta'kidlab o'tadi [1].

Yana bir qimmatli manba hisoblangan "Temur tuzuklari"da ham jazo tayinlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Unda jinoyat sodir etganlarga nisbatan qo'llanadigan jazo har tomonlama puxta ishlab chiqilishi, xususan, jazo tayinlashda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmasligi haqida so'z boradi.

Tuzukda o'g'illar, nabiralar, qavm-qarindoshlar, amirlar va vazirlarni jazolash yo'li bilan saltanatda intizom saqlash haqida shunday deyiladi: "Saltanat saroyining ishonchli va e'tiborli kishilari saltanat ishlarida xiyonat qilsalar va saltanatni ag'darishga jazm etgan bo'lsalar ham, ularni o'ldirishga shoshilmasinlar. Avvalambor, ularni ayblovchi va xabar yetkazuvchilarning kimligini tekshirib ko'rsinlar. Qoralovchilar da'volarining rost-yolg'onligini mahak toshi (kumush va oltinning tozaligini aniqlab beradigan qora tusli bir tosh)ga urib sinab ko'rsinlar. Chunki ko'p hollarda hasadchilar va g'iybatchilar yo ko'rolmay, yoki tamagirlik bilan yolg'on to'qib, uni chinday qilib ko'rsatadilar hamda maqsadlariga erishadilar. Qishloq oqsoqoli va shahar ulug'lari kichikroq darajadagi odamga zulm qilsalar, o'sha zulmga yarasha har kimning ko'tarishicha jarima solsinlar. Agar dorug'alar va hokimlar xalqqa jabr-zulm etib, ularni xarob qilgan bo'lsalar, ishlariga loyiq jazo berilsin. Biron kimsaning gunohi isbotlangandan keyin undan jarima olsalar, so'ng yana darra bilan urmasinlar. Agar darra urish bilan jazolasalar, undan jarima olmasinlar" [2].

Guvoh bo'lganimizdek, dastlab jazo tayinlash bilan bog'liq masalalarda sodir etilgan jinoyat uchun faqatgina bitta jazo tayinlanishiga alohida urg'u berilgan.

Jazo tayinlashning umumiy asoslari borasida huquqshunos olimlarda xilma-xil qarashlarni uchratish mumkin. Bunday qarashlar nafaqat milliy, balki xorijiy huquqshunoslar o'rtasida ham uchrashini ta'kidlash joiz. Aksariyat hollarda jazo tayinlashning umumiy asoslariga ta'rif berishda nazariyotchi olim-

lar o'z qarashlarini bevosita jinoyat qonunida keltirilgan ta'rif bilan bog'laydilar.

Xususan, M. Rustamboyev jazo tayinlashning umumiy asoslari eng avvalo jinoyat qonunining prinsiplari bilan bog'liqligi, O'zbekiston Respublikasi JKning 10-moddasida "Qilmishda jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart" deyilganini ta'kidlab, Jinoyat kodeksining 4–10-moddalaridagi prinsiplari bilan jazo tayinlash bevosita bog'liq degan xulosaga keladi. Buni jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanadigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona, ya'ni jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerakligini, jazo tayinlashning umumiy asoslari sudning Jinoyat kodeksi maxsus qismining jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddasida belgilangan doirada umumiy qism qoidalariga muvofiq jazo tayinlashning bir qator masalalarini etiborga olishi bilan asoslaydi [3].

Yana bir huquqshunos olim M. Usmonaliyev jazo tayinlashning umumiy asoslari: birinchidan, avvalo jinoyat qonunining umumiy prinsiplari bilan bog'liqligini; ikkinchidan, jazo tayinlashning umumiy asoslari sudning Jinoyat kodeksi maxsus qismining jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddasida belgilangan doirada umumiy qism qoidalariga muvofiq jazo tayinlashini; uchinchidan, tayinlanayotgan jazolar uchun jazoning jinoyat qonunchiligi umumiy qism normalariga rioya etgan holda tayinlanishi lozimligini ta'kidlaydi [4].

Huquqshunos olimlar D.J. Suyunova va B.D. Axrorovlar jazo tayinlash muammolarini tahlil qilar ekan, bunda, avvalambor, jazo tayinlashda jinoiy javobgarlikning barcha prinsiplari, jumladan, qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratiyaviylik, insonparvarlik, odillik, javobgarlikning muqarrarligiga amal qilinishi lozimligini qayd etadilar [5].

Boshqa bir guruh olimlar esa jazo tayinlashning umumiy asoslarini jinoyat qonunida belgilangan umumiy normalarga havola qil-

ish bilan cheklanadilar. Bunda ular jazo tayinlashning umumiy asoslari deganda muayyan qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan jazo tayinlashda e'tiborga olinadigan jinoyat va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar hamda ushbu shaxsning aybini og'irlashtiruvchi, yengillashtiruvchi, jinoyat sodir etish usuli, motivi, yetkazilgan zarar miqdori, hajmi, qilmishning xavflilik darajasi, xususiyati va boshqa holatlarning majmui, degan xulosaga keladilar [6].

### **Material va metodlar**

Yuqorida keltirilgan ta'rifda jazo tayinlashning umumiy asoslari sifatida jinoyat va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalarning inobatga olinishi haqidagi g'oya bilan kelishib bo'lmaydi. Chunonchi, ushbu g'oyada jazo tayinlashda boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan biron-bir qoidaning inobatga olinishi anglashilmoqda.

Shu o'rinda bir holatga e'tibor qaratsak. Amaldagi Jinoyat kodeksining 54-moddasida jazo tayinlashning umumiy asoslariga umumiy ta'rif keltirilgan.

Bunda aksariyat hollarda milliy huquqshunos olimlar jazo tayinlashning umumiy asoslari tushunchasiga ta'rif berishda jinoyat qonunida belgilangan ta'rif bilan cheklanadilar.

Bizningcha, jazo tayinlashning umumiy asoslari tushunchasiga nazariy ta'rif berishda faqatgina jinoyat qonuni normasi bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas. Zero, har qanday qonun normasi ham ijtimoiy munosabatlar singari o'zgaruvchidir.

Amaldagi Jinoyat kodeksi 1994-yil 22-sentabrda qabul qilinib, 1995-yilning 1-aprelidan kuchga kirgan bo'lsa, o'tgan davr mobaynida unga 110 marotabadan ortiq qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Biroq Jinoyat kodeksining jazo tayinlashning umumiy asoslariga bag'ishlangan 54-moddasiga biror marotaba qo'shimcha va o'zgartirish kiritilgani yo'q.

### **Tadqiqot natijalari**

Jazo tayinlashning umumiy asoslariga oid normalarni takomillashtirish zarurati

mavjudligini sud amaliyoti materiallari ham namoyon etmoqda va bu bugungi kunda jazo tayinlashning umumiy asoslarini nazariy jihatdan tahlil qilish va jinoyat qonuni normalarini takomillashtirishga ehtiyoj borligidan dalolat beradi. Quyida ushbu zaruratni batafsil ko'rib chiqamiz.

Jazo tayinlashning umumiy asoslari borasidagi xilma-xil yondashuvni chet el huquqshunos olimlarining asarlarida ham uchratish mumkin.

T.V. Nepomnyashiy, jinoyat huquqining insonparvarlik, odillik, qonuniylik prinsiplari jazo tayinlashning umumiy asoslariga mansub deb hisoblaydi [7].

O'z navbatida mazkur olimning yuqoridagi fikriga qo'shilgan holda jazo tayinlashning umumiy asoslari faqatgina jinoyat huquqining prinsiplari bilan cheklanmasligini qayd etish joiz.

Ayrim xorij manbalarida jazo tayinlashning umumiy asoslari alohida kategoriya sifatida ajratib ko'rsatilmaydi. Masalan, Rossiya Jinoyat kodeksiga sharhlarda jazo tayinlashning umumiy asoslari sharhlanganda qonunda nazarda tutilgan umumiy asoslar bilan sud tomonidan jazo tayinlashda hisobga olinishi lozim bo'lgan holatlarni sharhlash bilan chegaralanadi [8].

Bunday holatni boshqa huquqshunos olimlarning asarlarida ham uchratish mumkin. Masalan, A.I. Rarog sud tomonidan hisobga olinadigan holatlarga jazoni individuallashtirish nuqtayi nazaridan yondashishni ta'kidlasada, jazo tayinlashda hisobga olinadigan holatlarga ta'rif bermaydi [9].

Ayrim huquqshunos olimlar jazo tayinlashning umumiy asoslari deganda sud tomonidan sudlanuvchiga jazo tayinlashda majburiy amal qilishi lozim bo'lgan qonunda belgilangan asosiy talablar sifatida ta'rif berilib, bunda jazo tayinlashning umumiy asoslari qonuniylik, jazoning odilligi va individualligi ekani tan olinishi ta'kidlanadi hamda jazo tayinlashning umumiy asoslari sifatida quyidagi holatlar sanab o'tiladi:

- jazoning maksimal muddati muayyan jinoyat uchun belgilangan chegaradan oshmasligi;

- jazoning individuallashtirilgani, ayni paytda ushbu guruhga mansub olimlar mazkur holatlarga sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakteri, aybdorning shaxsi, shuningdek, barcha ijtimoiy xususiyatlari, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar, aybdor shaxsning oilaviy sharoitlari.

Ba'zi olimlar jazo tayinlashning umumiy asoslari deganda – jazo tayinlashda inobatga olinadigan barcha asoslarni tushunish maqsadga muvofiq, degan xulosaga keladilar [10]. Masalan, N.P. Pechnikov va V.N. Chernishovlar quyidagi omillarni jazo tayinlashning umumiy asoslari sifatida ko'rsatadilar:

- faqat sud tomonidan shaxsning aybdorlik masalasi hal etilishi;

- jinoyat qonunining tegishli moddasida nazarda tutilgan jazo turlaridan birining tayinlanishi;

- jazo tayinlashda jinoyat qonunining barcha normalari, xususan, prinsiplari (odillik, javobgarlikning muqarrarligi, insonparvarlik va b.) inobatga olinishi;

- jazo tayinlashda jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasining inobatga olinishi;

- yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi;

- aybdor shaxsning oilaviy ahvoli.


V. Duyunov jazo tayinlashning umumiy asoslarini sudning jinoyat qonunida belgilangan jinoyat uchun har qanday turdagi jazoni tayinlashda qat'iy ahamiyatga ega bo'lgan qoidalar majmui sifatida ta'riflaydi.

M.I. Bajanov jazo tayinlashning umumiy asoslariga jinoyat ishi bo'yicha sud tomonidan jazo tayinlashda rioya etilishi majbur hisoblangan mezon sifatida ta'rif beradi [11].

V.P. Malkov jazo tayinlashning umumiy asoslariga alohida muayyan holatda jazo tayinlashda sud amal qilishi lozim bo'lgan, amaldagi jinoyat qonunchiligida shakllantirilgan boshlang'ich qoida sifatida ta'rif beradi.

G.S. Gaverov jazo tayinlashning umumiy asoslari tushunchasini jazo tayinlashda sud tomonidan inobatga olinishi lozim bo'lgan jinoyat qonunida belgilangan talablar sifatida tavsiflaydi [12].

S.A.Veliyev jazo tayinlashning umumiy asoslariga ketma-ketlik bilan rioya qilinishi, qonunning bir xilda qo'llanishi va sud amaliyoti barqarorligi ta'minlashi sud tomonidan adolatli hukm chiqarilishiga xizmat qilishi kerakligini ta'kidlab o'tsa-da, ushbu tushunchaga alohida ta'rif bermaydi [13].



Rasm. Jazo tayinlash amaliyoti, 2021



Guvoh bo'lganimizdek, jazo tayinlash borasida milliy va xorijiy huquqshunos olimlar o'rtasida yagona yondashuv mavjud emas.

O'z navbatida, jazo tayinlash tushunchasiga ta'rif berish uchun unga xos asosiy belgilarni tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Jazo tayinlash tushunchasiga nazariy ta'rif berishda dastlab uning belgilarini tahlil qilish maqsadga muvofiq [14].

Bunda jazo tayinlashga xos bo'lgan quyidagi bir qator belgilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) jazo tayinlash birgina jinoyat huquqi fani bilan cheklanmaydi. Xususan, jazo tayinlash bilan bog'liq normalar nafaqat jinoyat, balki jinoyat-protsessual huquqi normalari bilan ham tartibga solinadi. Chunonchi, jazo tayinlash bilan bog'liq moddiy normalar (jazo tushunchasi, turlari, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar va b.) bevosita jinoyat huquqi fani doirasida o'rganiladi. Bunda jinoyat qonuni mazkur masalalarni tartibga soluvchi huquq manbayi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, jazo tayinlashning protsessual jihatlarini (hukm chiqarish vaqtida sud hal qiladigan masalalar doirasi, sudlanuvchining ruhiy holati buzilganligi va aqli norasoligi masalasini muhokama qilish, jazo tayinlashda sudyalarning

maslahatlashish tartibi va b.) bevosita jinoyat-protsessual huquqi fani doirasida ham hal etiladi. O'z navbatida, mazkur masalalarni hal qilishda Jinoyat-protsessual kodeksi huquqning manbayi bo'lib xizmat qiladi.

b) jazo tayinlanganda shaxsning jinoiy xulqi bilan tegishli jazo turi va hajmi o'rtasidagi muvofiqlik belgilanadi. Ushbu belgi Jinoyat kodeksining 8-moddasida belgilangan odillik prinsipi bilan bog'liq. Bunda jinoyat sodir etishda aybdor shaxsga nisbatan qo'llanadigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir-yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Shu sababli ham ikki shaxs tomonidan sodir etilgan ayni bir jinoyat uchun bir xil jazo tayinlashning imkoni yo'qdir [15].

#### **Xulosalar**

Umuman olganda, jazo tayinlashning umumiy asoslari tushunchasini tahlil qilar ekanmiz, uning sud tomonidan majburlov choralari qo'llashda hisobga olinishi lozim bo'lgan jinoyat qonuni talablari ekanligini ta'kidlash joiz.

Guvoh bo'lganimizdek, jazo tayinlashning umumiy asoslari borasida ilgari surilayotgan fikrlar deyarli o'xshash bo'lib, ular bir-biridan katta farq qilmaydi.

#### **REFERENCES**

1. Muhiddinova F. Forobiyning huquqiy qarashlarida jinoyat va jazo masalalarining aks etishi [Reflection of the issues of crime and punishment in Farobi's legal views]. *TSIL Bulletin*, 2006, no. 1, p. 88.
2. Temur tuzuklari [Timur's rules]. Tashkent, Sharq, 2005, pp. 87–89.
3. Rustamboyev M.X., Toxirov F. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Tashkent, 2002, p. 76.
4. Usmonaliyev M. Jazo tayinlash [Punishment]. Tashkent, TSUL Publ., 2004, pp. 9–11.
5. Suyunova D.J., Akhrarov B.D. Problemy naznacheniya nakazaniya [Problems of sentencing]. Tashkent, TSIL, 2007, p. 25.
6. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Tashkent, TSUL Publ., 2021, 111 p.
7. Skryabin M.A. Obshchiye printsipy naznacheniya nakazaniya i ikh primeneniye k nesovershennoletnim [General principles of sentencing and their application to minors]. Kazan, 1988, p. 14.
8. Duyunov V.K. et al. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii (postateyny) [Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation (article by article)]. Ed. L.L. Kruglikov. Moscow, Wolters Kluwer, 2005, p. 52.

9. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation]. 2nd ed., revised. and added. Ed. A.I. Rarog. Moscow, TK Velby, Prospekt Publ., 2004, p. 53.
10. Pechnikov N.P., Chernyshov V.N. Ugolovnoye pravo [Criminal law]. Tambov, Tambov State Technical University Publ., 2006, pp. 30–31.
11. Bazhanov M.I. Naznachenie nakazaniya po sovetskomu ugolovnomu pravu [Appointment of punishment under Soviet criminal law]. Kiev, 1980, pp. 23–24.
12. Gaverov G.S. Obshchiye nachala naznacheniya nakazaniya po sovetskomu ugolovnomu pravu [General principles of sentencing in Soviet criminal law]. Irkutsk, 1976, p. 7.
13. Veliyev S.A. Printsipy naznacheniya nakazaniya [Principles of sentencing]. Moscow, 2017, p. 382.
14. Rozimova Q. Some features of improving the penal institution for several crimes in the criminal law of Uzbekistan in the fight against corruption. *Journal of Adv. Research in Dynamical & Control*, 2020, vol. 12, iss. 02. DOI: 10.5373/JARDCS/V12SP2/SP20201071/.
15. Rozimova Q. Jazo tayinlash [Punishment]. Tashkent, TSUL, 2022, 104 p.

UDC: 343.9(045)(575.1)

## SUBJECTIVE SIGNS OF LEGALIZATION OF REVENUE RECEIVED FROM CRIMINAL ACTIVITIES

**Fazilov Farkhod Maratovich,**  
Tashkent State University of Law,  
Department of Criminal law,  
criminology and fight against corruption,  
Acting Associate Professor, PhD in Law  
ORCID: 0000-0001-8603-1948  
e-mail: f.fozilov@tsul.uz

**Abstract.** The article analyzes the general concept of money laundering. All over the world, the international community, including the United Nations, recognizes the legalization of proceeds from crime as one of the most widespread and dangerous transnational crimes. The growing danger of the legalization of criminal proceeds in the modern world is of concern to the vast majority of countries in the world community. According to experts, "in recent years, the proceeds from various kinds of crimes in the field of money laundering have been from 2 to 5% of the total world gross product, that is, from 1 to 3 trillion US dollars". With the globalization of the world financial system, the question arises of the need to coordinate the efforts of states to combat money laundering at the international level. In the world, special importance is attached to the fight against crime, the imposition of sentences by the courts for crimes committed in accordance with the principle of justice, and the liberalization of criminal legislation. Thus, special attention is paid to conducting research in the field of determining responsibility for the legalization of proceeds from crime and preventing the causes and conditions that contribute to its occurrence, the correct qualification of this crime, and strengthening the implementation of international standards in this area in national legislation.

**Keywords:** crime, criminal liability, proceeds of crime, money laundering, legalization, punishment

### JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNING SUBYEKTIV BELGILARI

**Fazilov Farxod Maratovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi  
dotsent v. b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning umumiy tushunchasi tahlil qilingan. Dunyoda xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan jinoiy daromadlarni legallashtirish eng keng tarqalgan va xavfli transmilliy jinoyatlardan biridir deb topilgan. Zamonaviy dunyoda jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishda ortib borayotgan jamoat xavfi dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, "so'nggi yillarda jinoiy daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq turli xil jinoyatlardan keladigan daromadlar global yalpi mahsulotning 2–5 foizi, ya'ni 1–3 trillion AQSh dollarini tashkil etadi". Jahon moliyaviy tizimining globallashtirish sharoitida pullarni legallashtirishga qarshi kurashishdagi davlatlar sa'y-harakatlarini xalqaro miqyosda muvofiqlashtirish zarurati tug'iladi. Jahonda jinoyatchilikka

*qarshi kurash, sudlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun odillik prinsipiga asosan jazo tayinlash, jinoyat qonunchiligini liberallashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda, jumladan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish uchun javobgarlikni belgilash hamda unga imkon bergan sabab va sharoitlarning oldini olish, ushbu jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish hamda uni sodir etganlik uchun javobgarlikni takomillashtirish, bu boradagi xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiyasini kuchaytirish sohasida tadqiqotlar o'tkazishga alohida ahamiyat berilmoqda.*

**Kalit so'zlar:** jinoyat, jinoiy javobgarlik, jinoiy daromadlar, pul yuvish, legallashtirish, jazo.

## СУБЪЕКТИВНЫЕ ПРИЗНАКИ ЛЕГАЛИЗАЦИИ ДОХОДОВ, ПОЛУЧЕННЫХ ОТ ПРЕСТУПНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Фазилов Фарход Маратович,**

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

и. о. доцента кафедры «Уголовное право,

криминология и противодействие коррупции»

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В статье анализируется общее понятие отмыывания денег. Во всем мире международным сообществом, в том числе Организацией Объединенных Наций легализация доходов, полученных от преступной деятельности, признается одним из самых распространенных и опасных транснациональных преступлений. Нарастающая в современном мире общественная опасность легализации преступных доходов вызывает озабоченность подавляющего большинства стран мирового сообщества. По оценкам экспертов, в последние годы доходы от различного рода преступлений в сфере отмыывания денег составляют от 2 до 5 % всего мирового валового продукта, то есть от 1 до 3 трлн долларов США. По мере глобализации мировой финансовой системы встает вопрос о необходимости координации усилий государств по противодействию отмыыванию преступных доходов на международном уровне. В мире особое значение придается борьбе с преступностью, назначению судами наказаний за совершенные преступления согласно принципу справедливости, либерализации уголовного законодательства. Так, особое внимание уделяется проведению исследований в сфере определения ответственности за легализацию доходов, полученных от преступной деятельности, и предупреждению причин и условий, способствующих ее возникновению, правильной квалификации данного преступления, усилению имплементации в национальное законодательство международных стандартов в этой области.

**Ключевые слова:** преступление, уголовная ответственность, преступные доходы, отмыывание денег, легализация, наказание

### Introduction

In the domestic science of criminal law, the subject of a crime is a naturally sane person who has committed a crime and has reached the age established by criminal law. The absence of at least one of these elements (signs) means the absence of the subject of the crime and, accordingly, the absence of the crime itself [1].

According to V. G. Pavlov, the subject of a crime is a legal concept and determines

the legal characteristics of the person who committed the crime; it is limited only by the signs (individual, age, sanity) that are necessary for the onset of criminal liability concerning the person who committed a socially dangerous act, which constitute only a small part of the signs of the person who committed the crime [2, p. 270].

In the theory of criminal law, the subjects of crime are traditionally classified into the following types.



General subject - having all the characteristics specified in Article 17 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.

A special subject of a crime is a person who, along with the general characteristics of the subject (reaching the age of criminal responsibility and sanity) also meets additional special features specified in the disposition of the articles of the Special Part of the Criminal Code, which are subject to a mandatory establishment when qualifying and limiting the circle of persons who may be liable under this article. A special subject must be defined by criminal law [3, p. 104].

There is an opinion of several local scientists, such as R. Kabulov, A. A. Otajonov, and I.A. Sattiev, that if a common subject participates in crime along with a special subject, then the special subject will be the performer, and the general one will be the organizer, instigator or accomplice based on the acts [4, p. 87].

Analyzing the studied corpus delicti – the legalization of revenue received from criminal activities, it can be concluded that the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan does not specify a special subject, and this in turn suggests that the subject of legalization of revenue received from criminal activities can be sane individuals who have reached the age of 16.

In domestic science, there are no controversial discussions regarding the definition of general and generic objects of the corpus delicti provided in the Article 243 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.

It can be seen that the number of facts of crimes committed and the data on the share of legalization (laundering) changed abruptly throughout the study period, but there is a clear tendency to reduce the number of crimes in recent years by more than 2 times.

Uzbekistan has a high share of the shadow economy: when estimating the share of the

shadow economy at 50%, GDP loss amounts up to 16-17 billion US dollars.

### **Materials and methods**

General scientific methods such as historical, comparative legal, and logical (analysis and synthesis) methods were used in the framework of the article.

### **Research results**

Studying the legislation of foreign countries, one can see that this crime possesses different approaches to the object.

Thus, in the Criminal Code of Kazakhstan [5], criminal liability for money laundering is enshrined in Article 218, which contains both a general and a special subject. Special subjects here are, for instance, persons who have committed this crime using their official position, officials, and persons holding a responsible public position.

A special subject is also singled out separately in the Criminal Code of the Russian Federation [6] in the dispositions of Articles 174 and 174.1, persons who have committed a crime using their official position are indicated.

In the CIS countries, the Republic of Moldova has an interesting example of a special subject.

The Article 243 of the Criminal Code [7] of this country provides criminal liability for money laundering for legal entities, and as a punishment, provides large fines, and deprivation of the right to engage in certain activities or liquidation of this legal entity.

In the Criminal Code of the Netherlands [8], Article 51 is devoted to this issue, stating criminal acts committed by both individuals and legal entities.

Currently, more than 70 countries provide criminal liability for legal entities [9, p. 9].

Considering the fact that such theorists of criminal law as A.B. Naumov and A.V. Brilliantov believe that public relations that regulate the established procedure for carrying out an entrepreneurial activity or other economic activity [10]

are considered under the direct object of legalization, this judgment gives us the right to draw conclusions about the possibility of recognizing such participants in entrepreneurial activity as subjects of crime.

Let's analyze the subjective side of crime.

M.Kh. Rustambayev points out that this is the mental attitude of the perpetrator to the socially dangerous act committed by him, regarded as a crime by the criminal law, characterized by guilt, motive, purpose and emotions. generally speaking, I agree with M. Usmonaliev [11], R. Kabulov, A.A. Otajonov [12], and B.J. Matmuratov [13, p. 3].

The subjective side of the crime is an internal (relative to the objective side) characteristic of the crime. In the scientific literature, the subjective side is defined as the internal, mental attitude of a person to a socially dangerous act committed by him [14, p. 15].

The subjective side of the crime is formed prior to the commission of the crime in the form of motives and goals and then accompanies it until the criminal result occurs, representing a kind of self-control over the actions performed [16, p. 227].

According to a majority of researchers, the subjective side of the crime includes a set of mental processes that determine and justify the illegal act committed by the perpetrator. In science, it is generally accepted that any mental process can be described by considering the three aspects that form it: cognitive, volitional and emotional [15, p. 45].

In fact, the authors clearly define the form of guilt as direct intent in all the comments to the relevant norms of the Criminal Code.

At present, the question of the subjective side of the crime prescribed in Article 243 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan does not seem to be completely clear to us. The disposition of the Article does not contain an indication of the purpose of performing the actions provided in it,

despite the fact that the corresponding term legalization is used in its name. A person who is aware that he is making a financial transaction or other transaction cannot but wish to make this transaction (operation) of a legitimate nature. Criminal acts are committed on the intent of the person. That is, in our opinion, the direct intent of the occurrence of criminal consequences of legalization, (namely, giving the received income the appearance of legal origin) should be covered by the intent of the subjects of the crime.

Based on this, it is necessary to consider the possibility of committing a crime with indirect intent under the Article 243 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.

The nature of the crime in the form of legalization of revenue received from criminal activities is associated with financial and economic values, and in this case, the mercenary component is obvious, but the legislator does not accentuate this, unlike the elements of crimes related to the theft of other people's property. In this regard, it is necessary to clarify the concept of the motive of the crime in general and in the commission of the crime under consideration in particular.

P.S. Dagel and D.P. Kotov define the motive of a crime as "a conscious and evaluated motivation generated by the system of needs, which is the ideal basis and justification for a socially dangerous act". A.I. Rarog defines the motive of a crime as internal motives caused by certain needs and interests, which cause a person to resolve to commit a crime and which guide him when committing it [17].

As it is obvious from the disposition, there is no indication of proof of knowledge, when this term is present to describe the forms of legalization of criminal revenue by some CIS countries (Russia, Armenia, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan). It seems that this is due to the fact that in the

design of legal norms establishing liability for the laundering of criminal proceeds, some regulatory legal acts adopted by the Inter-Parliamentary Assembly of the CIS member states could be taken into account.

For example, Article 15 (legalization of revenue received from criminal activity) of The Recommendation Legislative Act “On Combating Organized Crime”, adopted by the resolution of the Inter-Parliamentary Assembly of the CIS Member States on November 2, 1996, formulated the concept of legalization. It is understood as the concealment or non-disclosure of illegal sources and the nature of the origin, location, placement, movement or actual ownership of funds or other property or rights to property knowingly obtained by criminal means. This term is used in paragraph 2 of Article 2 of the Model Law “On Countering the Legalization (“Laundering”) of Illegally Obtained Revenue”, which defines the characteristics of income obtained knowingly illegally [18].

In particular, in the Criminal Code of the Republic of Belarus [19], this term is used in Article 235 (legalization (“laundering») material values obtained by criminal means): “The commission of financial transactions with funds obtained knowingly by criminal means, in order to give a lawful form to the possession, use and (or) disposal of these funds for the purpose of concealing or distorting the origin, location, placement, movement or actual ownership of these funds.”

It is important to note that a number of international documents mention the signs of the subjective side of money laundering.

For example, in accordance with the provision of paragraph 2 of Article 5.2.1 (Criminal Offence of Money Laundering) of The Model Legislation on Money Laundering and the Financing of Terrorism, prepared by the United Nations Office on Drugs and Crime in conjunction with the International

Monetary Fund (2003) [20], states that “the conclusion of knowledge, wish or intent as a necessary element of an offence can be inferred from objective factual circumstances”.

Article 6, paragraph 2 (Criminalization of Laundering of revenue received from criminal activities) of the United Nations Convention against Transnational Organized Crime (2000) [21] states that “awareness, intent or purpose as elements of the offence referred in paragraph 1 of this article may be established from the objective factual circumstances of the case”.

The actions listed in the Article 243 of the Criminal Code relate to the formal elements of the crime, the form of intent is direct.

In domestic criminal legislation, there is no special indication of the motive and purpose of the crime. The purpose of money laundering is specified in the Criminal Codes of Armenia, the Republic of Belarus, Moldova, and Azerbaijan [22, pp. 463–492].

### Conclusions

The state policy in the field of combating money laundering is based on the international legal obligations of the Republic of Uzbekistan and the interest of protecting the normal functioning of the national economic system. International legal standards for combating money laundering indicate typical approaches to solve the issue, taking into account both the general laws of countering this phenomenon, the characteristics of each state and the need of ensuring protection from crimes of a transnational nature. Following international standards, the state, however, cannot fail to take into account the specifics of their implementation, on the basis of the national legal system and specific socio-economic conditions. All of these aspects determine the direction of solving a complex issue, finding a balance between compliance with international standards and considering national interests.

Studies of the theory, legislative and law enforcement practice allow us to conclude that, despite the high degree of public danger of money laundering, the practice of applying Article 243 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan still does not meet the real scale of this crime.

To this end, the article substantiates the need to analyze the theory and practice of foreign countries in bringing legal entities to justice for laundering the revenue received from criminal activities; based on the analysis of legal literature, it is determined that the simultaneous use of the terms “laundering” and “legalization” of criminal revenue in the title of the article is possible.

The study confirms the need to develop comprehensive measures to counteract the legalization of income received from criminal activities by adopting annual programs for interdepartmental coordination of measures to counteract the legalization of revenue received from criminal activities.

The author proposes to continue a periodical summary of the judicial practice considering the cases of money laundering,

as well as on the basis of the materials obtained to conduct analytical work on effective prevention and control of this delinquency. In addition, it is proposed to organize the publication of collections of depersonalized cases on the investigation of crimes in this area, thereby opening access to legal and financial information.

The Law of the Republic of Uzbekistan 660-II “On countering the legalization of revenue received from criminal activities, the financing of terrorism and the financing of the proliferation of weapons of mass destruction” of 26.08.2004 shall be further improved, taking into account the requirements of international law, in particular, the Recommendations of the Financial Action Task Force on Money Laundering (FATF). For instance, it should include issues related to virtual assets, financial investigations, and others.

Taking into account all of the above, it can be concluded that the issues of countering the legalization of revenue received from criminal activities are so large-scale that they require further research within the framework of other research works.

## REFERENCES

1. Rustambaev M.H. Kurs ugolovnogo prava Respubliki Uzbekistan [Course on criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Special part. Tashkent, Publ. of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2016.
2. Pavlov V.G. Subyekt prestupleniya [The subject of the crime]. St. Petersburg, Legal Center Press Publ., 2001, p. 270.
3. Abdurasulova K.A. Jinoyatning maxsus subyekti [Special Subject of the Crime]. Tashkent, TSIL, 2005, p. 110.
4. Kabulov R., Otajonov A.A., Sattiev I.A. et al. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish [Qualification of crimes]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs, 2012, p. 87.
5. Criminal Code of Kazakhstan. Available at: [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=31575252#pos=3051;-60/](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252#pos=3051;-60/).
6. Criminal Code of the Russian Federation. Available at [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_10699/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/).



7. Criminal Code of the Republic of Moldova Information system. Available at: <http://lex.justice.md/ru/331268/>.
8. Criminal Code of the Netherlands. Available at: <http://law.edu.ru/>.
9. Otajonov A.A. Xorijiy davlatlar qonunchiligida yuridik shaxslar jinoiy javobgarligining tartibga solinishi va milliy qonunchilikda ular javobgarligini belgilash masalalari [Regulation of criminal liability of legal entities in foreign legislation and issues of establishing liability in national legislation]. *Bulletin of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*, 2018, no. 2, 2018, p. 9.
10. Naumov A.V. Rossiyskoye ugovnoye pravo [Russian Criminal Law]. General part. Moscow, Yuridicheskaya literatura Publ., 2007, vol. 1, p. 98.
11. Usmonaliev M. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2005.
12. Kabulov R., Otazhonov A.A. et al. Jinoyat huquqi [Criminal law]. 2nd ed., add. and reprint. Taskent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2012.
13. Matmuratov B.J. Jinoyatni sub'ektiv tomoni bo'yicha kvalifikaliya qilishning ayrim masalalari masalalari [Some questions on the subjective side of the qualification of crimes]. *Bulletin of the Academy of MIA of the Republic of Uzbekistan*, 2018, no. 3, p. 3.
14. Rarog A.I. Subyektivnaya storona i kvalifikatsiya prestupleniy [Subjective side and qualification of crimes]. Moscow, 2001, p. 15.
15. Antonyan Y.M., Baranovsky N.A., Dagal P.S., Dubovik O.L. et al. Mekhanizm prestupnogo povedeniya [The mechanism of criminal behavior]. Ed. V.N. Kudryavtsev. Moscow, 1981, p. 227.
16. Gilyazev F.G. Vina i kriminogennoye povedeniye lichnosti (ugolovno-pravovyye, kriminologicheskiye i sotsial'no-psixologicheskiye cherty) [Guilt and criminogenic behavior of the individual (criminal law, criminological and socio-psychological traits)]. Moscow, VZPI Publ., 1991, p. 45.
17. Dagal P.S., Kotov D. P. Subyektivnaya storona prestupleniya i ee ustanovleniye [The subjective side of the crime and its establishment]. Voronezh, 1974.
18. Electronic fund of legal and information and technical information. Available at: <http://docs.cntd.ru/document/901856751/>.
19. National Legal Internet Portal of the Republic of Belarus. Available at: <http://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275/>.
20. The Model Legislation on Money Laundering and the Financing of Terrorism, prepared by the United Nations Office on Drugs and Crime in conjunction with the International Monetary Fund. 2003. Available at: [https://www.imolin.org/pdf/imolin/MLawRussian\\_IMoLIN.pdf/](https://www.imolin.org/pdf/imolin/MLawRussian_IMoLIN.pdf/).
21. United Nations Convention against Transnational Organized Crime. Available at: [http://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/orgcrime.shtml/](http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/orgcrime.shtml/).
22. Benitsky A.S., Rozovsky B.G., Yakimov O.Y. Otvetstvennost' za legalizatsyyu prestupno-priobretennykh dokhodov v ugovnom zakonodatel'stve Ukrainy i Rossiyskoy Federatsii [Liability for the legalization of criminally acquired revenue in the criminal legislation of Ukraine and the Russian Federation]. Kiev, Ministry of Internal Affairs of Ukraine, 2008, 496 p.
23. Brilliantov A.V. Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation. Prospect, 2015, vol. 1. SPS Consultant Plus.

UDC: 341(045)(575.1)

## ETNIK OZCHILIKLAR HOLATINI TARTIBGA SOLUVCHI XALQARO HUQUQIY UNIVERSAL VA MINTAQAVIY HUJJATLAR TIZIMI RIVOJLANISHI

**Xayrullayeva Dilbar Abdusamatovna,**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0000-0002-2567-1084

e-mail: dilbar.khayrullaeva@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada etnik ozchiliklar holatini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy universal va mintaqaviy hujjatlar tizimi rivojlanishi, bu borada BMT, YUNESKO, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, YXHT, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi aktlarining o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Izlanish natijasida etnik ozchiliklar holatini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy universal hujjatlar tizimida 1992-yil 18-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan universal hujjat Milliy yoki etnik, diniy va tilga oid ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya alohida o'ringa egaligi asoslantiriladi. Etnik ozchiliklar holatini batafsil va keng qamrovli tartibga soluvchi xalqaro huquqiy mintaqaviy hujjatlar tizimini YXHT doirasida qabul qilingan milliy ozchilikka mansub shaxslarning ijtimoiy hayotning turli sohalarida ishtirokiga ko'maklashuvchi Milliy ozchiliklarning ta'limga bo'lgan huquqlari to'g'risidagi Haaga tavsiyalari (1996-yil oktabr), Milliy ozchiliklarning til borasidagi huquqlari to'g'risidagi Oslo tavsiyalari (1998-yil fevral), Ozchiliklar va ularning odil sudlovga ega bo'lishi to'g'risida Grats tavsiyalari (2017-yil oktabr), Ozchiliklar va raqamli dunyoda OAV Tallin tavsiyalari (2019-yil mart) kabi hujjatlar kirishi asoslantirildi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro huquqiy universal, mintaqaviy hujjatlar, etnik ozchiliklar, huquqlar, tartibga solish.

### РАЗВИТИЕ УНИВЕРСАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ, РЕГУЛИРУЮЩИХ ПОЛОЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ МЕНЬШИНСТВ

**Хайруллаева Дилбар Абдусаматовна,**

самостоятельный соискатель

Университета мировой экономики и дипломатии

**Аннотация.** В статье анализируется развитие системы универсальных и региональных международно-правовых актов, регулирующих положение этнических меньшинств, роль и значение в этом отношении актов ООН, ЮНЕСКО, Международной организации труда, ОБСЕ, Содружества Независимых Государств. В результате исследований обосновывается, что в системе универсальных международно-правовых актов, регулирующих положение этнических меньшинств, особое место занимает универсальный документ – Декларация о правах лиц, принадлежащих к национальным или этническим, религиозным и языковым меньшинствам, принятая Генеральной Ассамблеей ООН 18 декабря 1992 года. Систему региональных международно-правовых актов, детально и всесторонне регламентирующих положение этнических меньшинств, составляют принятые в рамках ОБСЕ Гаагские рекомендации

«О правах национальных меньшинств на образование, способствующие участию лиц национальных меньшинств в различных сферах общественной жизни» (октябрь 1996 года), Рекомендации Осло «О языковых правах национальных меньшинств» (февраль 1998 года), Грацские рекомендации по меньшинствам и их правосудию (октябрь 2017 года), Грацские рекомендации по меньшинствам и СМИ в цифровом мире (март 2019 года).

**Ключевые слова:** универсальные международно-правовые, региональные документы, этнические меньшинства, права, регулирование.

## DEVELOPMENT OF A SYSTEM OF INTERNATIONAL LEGAL UNIVERSAL AND REGIONAL DOCUMENTS REGULATING THE STATE OF ETHNIC MINORITIES

**Khayrullaeva Dilbar Abdusamatovna,**  
Independent Researcher,  
University of World Economy and Diplomacy

**Abstract.** The article analyzes the development of the system of international legal universal and regional documents regulating the status of ethnic minorities, the role, and the importance of acts of the UN, UNESCO, International Labor Organization, OSCE, and Commonwealth of Independent States in this regard. As a result of the research, it has been justified that in the system of international legal universal documents regulating the status of ethnic minorities, the universal document "On the rights of persons belonging to national or ethnic, religious and linguistic minorities" adopted by the UN General Assembly on December 18, 1992, Hague Recommendations on the Rights of National Minorities to Education (October 1996), Oslo Recommendations on the Linguistic Rights of National Minorities (February 1998), Graz Recommendations on Minorities and Their Access to Justice (October 2017), Tallinn Recommendations on Minorities and the Media in a Digital World Access" (March 2019) have a special place.

**Keywords:** international, legal, universal, regional documents, ethnic minorities, rights, regulation.

### Kirish

Bugungi kundagi ozchiliklar holatini tartibga soluvchi xalqaro, huquqiy, universal va mintaqaviy hujjatlar tizimi rivojlanishi BMT tashkil etilishi bilan bevosita bog'liq. 1945-yilda imzolangan BMTning nizomi "... inson huquqlariga va barchaning irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar asosiy erkinliklariga hurmatni rag'batlantirish..."ni maqsad qilib belgiladi [1, 6-b.]. Mazkur davrda BMT tizimi inson huquqlariga nisbatan individual yondashuvga asoslanib, insonning individual huquqlari va asosiy erkinliklari hamda kamsitmaslik tamoyillarini rivojlantirishga qaratildi.

### Material va usullar

O'rganish jarayonida universal va mintaqaviy hujjatlar tizimi rivojlanishi tahlil qilindi. Tadqiqotda tarixiy, qiyosiy, analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

### Tadqiqot natijalari

Etnik ozchiliklar huquqlarini himoyalash konsepsiyasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida rivojlantirilib, inson huquqlari hech bir kamsitishlarsiz umum tan olindi, biroq ozchiliklar huquqlari borasida norma kiritilmadi [2, 39–40-b.]. Uning moddalarini tahlili ozchiliklarga nisbatan individual yondashuvni hamda ozchilikka mansub shaxslarning madaniy, diniy va ta'lim sohasidagi huquqlarini ifoda etadi. BMTning ozchiliklar taqdiri-ga befarq qola olmasligi 1948-yil 10-dekabr-dagi Ozchiliklar taqdiri to'g'risidagi maxsus rezolyutsiyada e'tirof etilib, Inson huquqlari bo'yicha komissiya tomonidan ozchiliklar muammolarini tadqiq etish va komissiyaga tavsiyalar tayyorlash maqsadida kamsitishlarning oldini olish va ozchiliklar himoya-

si bo'yicha maxsus komissiya tashkil etildi [3]. 1970-yillarning o'rtalariga kelib, maxsus komissiya ozchiliklar muammosi borasida yetarli izlanishlar natijasini taqdim etgan bo'lsa-da, BMT organlaridan kutilgan natijaga erishmadi [4, 869-b.].

Deklaratsiyada e'lon qilingan teng huquqlilik va kamsitmaslik tamoyillari BMT doirasida qabul qilingan barcha hujjatlarda rivojlantirildi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 9-dekabrda qabul qilingan Genotsid jinoyatining oldini olish va bunday jinoyat uchun jazo to'g'risidagi konvensiyada milliy, irqiy yoxud diniy guruhlarining yashash huquqi mustahkamlanib, ularni butunlay yoki qisman yo'q qilish maqsadida sodir etiladigan faoliyat genotsid deb topildi. Konvensiyada belgilangan huquqlarni amalga oshirish borasida nazorat mexanizmi belgilanib, genotsid jinoyatini sodir etganlik uchun jazoning muqarrarligi mustahkamlandi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1965-yil 21-dekabrda qabul qilingan Irqiy kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiyada "irqiy kamsitish" irqi, terisining rangi, irqiy, milliy yoki etnik kelib chiqishi belgilariga asoslanib, ijtimoiy hayotning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki boshqa sohalarda tenglik asnosida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini yo'q qilish yoki tan olinishini kamsitish, foydalanish yoki amalga oshirish maqsadida yoki oqibatida har qanday farqlash, istisno qilish, chegaralash yoki afzal ko'rish deb ta'riflandi (1-m., 1-q.).

Konvensiya irqiy guruh yoki ularga mansub shaxslarning rivojlanishi va himoyasini ta'minlash maqsadida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda choralar ko'rish (2-m, 2-q), irqiy kamsitishning barcha shakllarini taqiqlash va bartaraf etish hamda irqi, terisining rangi, milliy yoki etnik kelib chiqishidagi farqlardan qat'i nazar har bir insonning qonun oldida teng huquqliligini ta'minlash, har bir insonga hech bir farqlarsiz e'tiqod erkinligi, siyosiy hayotda

ishtirok etish, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta'minlash borasida a'zo davlatlarga majburiyat yukladi (5-m).

### **Tadqiqot natijalari**

Ispaniyalik olim A.M. de Zayasning fikriga ko'ra, Ozchiliklar holatini huquqiy tartibga solish borasida umum tan olingan va majburiy bo'lgan qoida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 27-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, "diniy va til jihatdan ozchiliklar mavjud bo'lgan davlatlarda mazkur ozchiliklarga mansub shaxslarning mazkur guruh boshqa a'zolari bilan birgalikda o'z madaniyatidan foydalanish, o'z diniga e'tiqod qilish va marosimlarini bajarish, shuningdek, ona tilidan foydalanish huquqlarida rad etilishi mumkin emas" [5, 247-b.].

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt a'zo davlatlarga unda e'lon qilingan huquqlar irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilganlik yoki boshqa holatlardan qat'i nazar hech bir kamsitishlarsiz amalga oshirishini kafolatlash majburiyatini yukladi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1973-yil 30-noyabrda qabul qilingan Aparteid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi konvensiyada aparteid, irqiy segregatsiya, kamsitish siyosati va amaliyotining oqibati bo'lmish g'ayriinsoniy xatti-harakatlar xalqaro huquq hamda BMT nizomi tamoyillarini buzuvchi va xalqaro tinchlik va xavfsizlikka jiddiy xavf tug'diruvchi jinoyat sifatida talqin etilib, a'zo davlatlarga aparteid jinoyatini har qanday rag'batlantirishning oldini olish maqsadida zarur choralar ko'rish majburiyati yuklatildi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1981-yil 25-noyabrda qabul qilingan Toqatsizlikning barcha shakllariga va din yoki e'tiqod asosida kamsitishga barham berish to'g'risi-



dagi deklaratsiya har bir insonning diniy sohadagi erkinliklarini (6-m.), shuningdek, barcha davlatlarning inson huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish, ro'yobga chiqarish va amalga oshirishda din yoki e'tiqod asosida kamsitishning oldini olish va unga barham berish maqsadida samarali choralar ko'rishi lozimligini (4-m.) e'lon qildi [6].

Ozchiliklarning til borasidagi huquqlari bir qator tavsiyanomalarda ko'rib o'tilgan, jumladan, 1976-yil 22-noyabrda qabul qilingan Radio va televideniye sohasida statistikaning xalqaro klassifikatsiyasi to'g'risidagi tavsiyanomada ozchiliklar tillarida uzatiladigan dasturlarni hisobga olish uchun statistik ma'lumotlarni klassifikatsiya qilish tavsiya etiladi [7, 38-b.].

1976-yil 26-noyabrda qabul qilingan Xalq ommasining madaniy hayotdagi ishtiroki va hissasi to'g'risidagi tavsiyanomada a'zo davlatlarga milliy ozchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda ular madaniyati tengligini kafolatlash, uni kamsitishlarsiz rivojlantirish, shuningdek, ozchiliklar madaniy o'ziga xosligini saqlab qolish huquqini kafolatlagan holda ular yashayotgan davlatlar madaniy hayotini boyitishda samarali ishtirokini ta'minlash tavsiya etildi. 1978-yil 27-noyabrda qabul qilingan Irg va irqiy xurofotlar to'g'risidagi deklaratsiya insonlarning o'z qadr-qimmatini hamda huquqlar borasida teng bo'lib tug'ilishini, barcha insonlar va insonlar guruhlarining bir-biridan farqlanish, o'zlarini shu xislatda ko'rish va shunday hisoblanish huquqlariga ega ekanligini (1-m.), irqi, terisining rangi yoki milliy kelib chiqishi yoxud diniy toqatsizlik belgilariga asoslangan turli farqlashlar, istisnolar yoki afzal ko'rishlar inson huquqlari hurmatini kafolatlovchi odil xalqaro tartibotning talablariga muvofiq kelmasligini e'lon qildi (3-m.). 1995-yil 16-noyabrda qabul qilingan Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida a'zo davlatlarning e'tibori inson huquqlari va asosiy erkinliklarini irqiy, jinsiy, til, milliy, diniy mansubligidan qat'i nazar barcha uchun rivojlantirish,

hurmatini ta'minlash hamda murosasizlik ko'rinishlariga qarshi kurashish majburiyatiga qaratildi. Ta'kidlash joizki, ozchiliklarning mavjudligi, yashash huquqi hamda o'z huquqlarida rad etilishi mumkin emasligi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 9-dekabrda qabul qilingan Genotsid jinoyatining oldini olish va bunday jinoyat uchun jazo to'g'risidagi konvensiya hamda 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda belgilandi [8, 793–803-b.].

Tenglik va kamsitmaslik tamoyillariga asoslangan xalqaro huquqiy hujjatlar ozchiliklarga mansub shaxslarning huquqlarini ta'minlash va himoyalashga yetarli deb hisoblangan bo'lsa-da, 90-yillarga kelib, ozchiliklar o'ziga xosligini saqlab qolish va alohida huquqlarini mustahkamlovchi hujjatlar qabul qilish zarurati tug'ildi.

1992-yil 18-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan dastlabki universal hujjat sobiq maxsus komissiya tomonidan ishlab chiqilgan Milliy yoki etnik, diniy va tilga oid ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya qabul qilingan bo'lsa-da, ozchiliklar himoyasi borasida yuridik majburlov kuchiga ega universal hujjat ishlab chiqilmadi. BMTning maqsadlaridan biri bo'lgan hech bir kamsitishlarsiz inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni rag'batlantirish va rivojlantirishga erishishda barcha a'zo davlatlar BMT bilan hamkorlikda va mustaqil faoliyat yuritish majburiyatini oldi. O'z navbatida mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham teng huquqlilik va kamsitmaslik tamoyillariga asoslangan huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 1969-yil 22-noyabrda qabul qilingan Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasi, 1981-yil 26-iyunda qabul qilingan Inson va xalqlar huquqlari Afrika xartiyasi, 1988-yil 15-fevralda qabul qilingan Indivud va xalqlarning inson huquqlari Osiyo–Tinch okean deklaratsiyasi, 1988-yil 3-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari va xalqlar huquqlari to'g'risi-

dagi Tunis deklaratsiyasi inson huquqlarining kamsitishlarsiz hurmat qilinishi va teng huquqliligini belgiladi [9, 867–887, 887–899, 857–867].

Fransiyalik Fernand De Varennes asosli ta’kidlaganidek, “Ozchiliklar huquqlarini xalqaro darajada mustahkamlagan dastlabki universal hujjat BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 47/135-sonli rezolyutsiya va 1992-yil 18-dekabrda qabul qilingan Milliy yoki etnik, diniy va tilga oid ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlari to’g’risidagi deklaratsiya [10, 158–161-b.] hisoblanadi” [11].

Deklaratsiya ozchiliklarga mansub shaxslarning erkin va aralashuvlarsiz yoki qanday shaklda bo’lmasin, kamsitishlarsiz o’z madaniyati boyliklaridan foydalanish kabi masalalarini qamrab oladi.

1993-yil 25-iyunda Venada bo’lib o’tgan BMTning Inson huquqlari bo’yicha umumjahon konferensiyasida qabul qilingan Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturi BMTning yuqorida keltirilgan deklaratsiyasiga muvofiq davlatlar va jahon hamjamiyatini milliy yoki etnik, diniy va tilga oid ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlarini rag’batlantirish va himoya qilishga da’vat etib, ozchiliklarning deklaratsiyada e’lon qilingan huquqlarini va davlatlarning majburiyatlarini yana bir bor tasdiqladi [12, 78–93-b.].

2001-yil 2-noyabrda qabul qilingan YUNESKOning Madaniy turli-tumanlik to’g’risidagi umumjahon deklaratsiyasi muqaddimasida madaniyatlarning turli-tumanligini hurmat qilish, ishonch va o’zaro tushunish sharoitida bag’rikenglik, muloqot va hamkorlik tinchlik va xalqaro xavfsizlikning eng yaxshi garovi ekanligi tasdiqlanib, deklaratsiyaning 4-moddasi madaniy turli-tumanlikning inson huquqlari va asosiy erkinliklarini, ayniqsa, milliy ozchiliklarga mansub shaxslar va tub xalqlarning huquqlarini hurmat qilishni nazarda tutishini e’lon qildi (4-m.) [13, 226–227-b.].

Xalqaro Mehnat Tashkiloti bosh konferensiyasi tomonidan 1964-yil 9-iyulda qabul

qilingan Bandlik sohasida siyosat to’g’risidagi konvensiyaga muvofiq, bandlik sohasida siyosat irqi, terisining rangi, jinsi, dini, siyosiy qarashlari, ajnabiy va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, har bir mehnatkashning u yaroqli bo’lgan ishni bajarish uchun tayyorgarlik o’tash hamda o’z ko’nikma va qobiliyatini qo’llash uchun bandlikni tanlash erkinligi hamda eng keng imkoniyatlar mavjud bo’lishini ta’minlash maqsadiga ega (1-m., 2-q., “s” b.) [14, 368–369-b.]. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1989-yil 7-iyunda qabul qilingan Mustaqil davlatlarda tub xalqlar va qabilaviy hayot tarzini olib boruvchi xalqlar to’g’risidagi 169-sonli konvensiya a’zo davlatlarga mazkur xalqlarga mansub shaxslarning milliy qonunchilikka ko’ra davlatning qolgan aholisiga taqdim etiladigan huquq va imkoniyatlardan tenglik asosida foydalanishini ta’minlash majburiyatini yukladi [15, 118–130-b.].

Amerikalik olim Hurst Hannum e’tirof etganidek, teng huquqlilik va kamsitmaslik tamoyillari mintaqaviy huquqiy hujjatlarining ham asosiga aylandi. Inson huquqlari va erkinliklarining irqi, tili, dini, siyosiy va boshqa e’tiqodi, milliy va ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, tug’ilganlik va boshqa ijtimoiy sharoitlarga ko’ra kamsitishlarsiz hurmat qilinishi majburiyati 1969-yil 22-noyabrda qabul qilingan Inson huquqlari to’g’risidagi Amerika konvensiyasida mustahkamlandi (1-m.) [16, 55–56-b.].

Yevropa mintaqasida bu borada 1950-yil 4-noyabrda qabul qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to’g’risidagi Yevropa konvensiyasi, 2000-yil 7-dekabrda qabul qilingan Yevropa Ittifoqining asosiy huquqlar to’g’risidagi xartiyasi shular jumlasidan. Ayniqsa, ozchiliklar himoyasi borasida xalqaro huquq ijodkorligi jarayoni jadallashdi.

50-yillardan boshlab Yevropa Kengashi doirasida va rahbarligida ozchiliklar huquqlari himoyasi to’g’risida Yevropa uchun mo’ljallangan maxsus ko’p tomonlama va yuridik majburlov xarakteriga ega shartnoma-

ni ishlab chiqish ishlari olib borilib, 1995-yil 1-fevralda kengashning 21 nafar a'zo davlatlari Milliy ozchiliklar himoyasi to'g'risidagi konvensiyani imzoladilar [17, 111-b.].

Ozchiliklar huquqlarini ta'minlash choralari Yevropa Kengashining 1992-yil 5-noyabrda qabul qilingan Mintaqaviy tillar va ozchiliklar tillari to'g'risida Yevropa xartiyasida ham ko'rib chiqildi [18, 594-b.].

Yevropa Kengashi doirasida 1950-yil 4-noyabrda qabul qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 14-moddasida unda tan olingan huquq va erkinliklardan foydalanish jinsi, irqi, terisining rangi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, milliy ozchilikka mansubligi, mulkiy ahvoli, tug'ilganligi yoki boshqa belgilarga ko'ra kamsitilishlarsiz ta'minlanishi lozimligi belgilangan bo'lsa-da, milliy ozchiliklar huquqlarini belgilovchi normani o'z ichiga olmagan.

Milliy ozchiliklar huquqiy holatini tartibga solishga samarali urinishlar Yevropa Kengashi tomonidan ham amalga oshirilgan bo'lib, 1992-yil 5-noyabrda qabul qilingan Mintaqaviy tillar va ozchiliklar tillari to'g'risidagi Yevropa xartiyasi mintaqaviy tillar va ozchiliklar tillarining tan olinishi va ulardan ijtimoiy hayotda (xususan, ta'lim, odil sudlov, hukumatning ma'muriy organlari va davlat xizmati, ommaviy axborot vositalari, madaniy faoliyat sohasida) foydalanish choralari belgiladi [19, 711–724-b.]. Yevropa Kengashi tomonidan 1995-yil 1-fevralda Strasburgda (Fransiya) qabul qilingan va 1998-yil fevralda kuchga kirgan Milliy ozchiliklar himoyasi to'g'risidagi konvensiya ozchiliklar himoyasi borasida mintaqaviy darajada qabul qilingan maxsus hujjat bo'lib, ozchiliklarning jamoaviy emas, balki an'anaviy bo'lgan individual huquqlarining tan olinganini, shuningdek, mazkur huquqlar ularni ta'minlash borasida a'zo davlatlarning "muayyan shartlar asosida" choralari ko'rish majburiyati kontekstida ifoda etilganini belgilaydi.

L.N. Shestakovning fikricha, Milliy ozchiliklar himoyasi to'g'risidagi konvensiya asosan davlat ichki qonunchiligida rivojlantirilishi lozim bo'lgan dasturiy xarakterdagi qoidalaridan iborat [20, 95–99-b.].

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Ozchiliklar himoyasi va ular huquqlarini ta'minlash choralari ko'pgina nufuzli mintaqaviy tashkilotlar, xususan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (1994-yildan YXHT) deyarli barcha konferensiyalari va hujjatlarida ko'rida boshlandi. 1975-yil 1-avgustda Helsinki shahrida imzolangan YXHTning yakuniy hujjati hududida milliy ozchiliklar mavjud bo'lgan a'zo davlatlarning mazkur ozchilikka mansub shaxslarning qonun oldida tenglik huquqini hurmat qilish, inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan haqqoniy foydalanishning to'la imkoniyatlarini taqdim etish hamda ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish majburiyatini belgiladi [21, 754-b.].

Mazkur majburiyat 1980-yil 6-sentabrda imzolangan YXHTning Madrid uchrashuvi yakuniy hujjatida yana bir bor ta'kidlandi [22, 760-b.]. 1986-yil 15-yanvarda imzolangan YXHTning Vena uchrashuvi yakuniy hujjati milliy ozchiliklarning jamoaviy huquqlari tan olingan dastlabki xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, ularning hamjamiyat sifatida mavjudligini ta'minlovchi omillar belgilandi. Shu jumladan, milliy ozchiliklar vakili sifatida so'zlashish erkinligi, etnik, madaniy, til va diniy o'ziga xosligini saqlab qolish va rivojlantirish, madaniy jamiyatlar, ma'rifiy va diniy tashkilotlar tashkil etish borasida individual huquqlari ilk bor tan olindi. A'zo davlatlarning esa ular hududida milliy ozchiliklarga mansub shaxslarning inson huquqlari va asosiy erkinliklari himoyasini ta'minlash borasida qonunchilik, ma'muriy, huquqiy va boshqa zarur choralari ko'rish, teng huquqliligini hurmat qilish, etnik, madaniy, til va diniy o'ziga xosligini himoya qilish va rag'batlantirish, mazkur shaxslarga nisbatan kamsitishlardan tiyilib turish kabi majburiyatlari mustahkamlandi [23, 764–768-b.].

Milliy ozchiliklar huquqiy holati 1990-yil 29-iyunda imzolangan YXHTning insoniylik mezoni bo'yicha konferensiyasi Kopengagen kengashi hujjatining IV bo'limida mustahkamlangan bo'lib, umum tan olingan inson huquqlarning bir qismi sifatida ozchiliklarga mansub shaxslarning huquqlarini hurmat qilish a'zo davlatlarda tinchlik, adolat, barqarorlik va demokratiyaning muhim omili ekanligi tasdiqlandi. Ozchiliklar huquqlarini ta'minlash borasida a'zo davlatlarning o'z hududida milliy ozchiliklarning etnik, madaniy, til va diniy o'ziga xosligini himoya qilish va mazkur o'ziga xoslikni rag'batlantirish borasida sharoit yaratish, milliy ozchiliklarga mansub shaxslarning davlat ishlarida samarali ishtiroki huquqini hurmat qilish majburiyatlari belgilandi [24, 779–783-b.]. A'zo davlatlarning milliy ozchiliklar holatini bundan keyin ham yaxshilash majburiyati 1990-yil 21-noyabrda Parijda imzolangan Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasida mustahkamlangan bo'lib, Kopengagen hujjati prinsiplari yana bir bor tasdiqlandi [25, 785–786-b.]. 1991-yil 1–19-iyul kunlari Jenevada bo'lib o'tgan milliy ozchiliklar masalalari borasida ekspertlar kengashi hisobotida mazkur shaxslarga nisbatan xalqaro majburiyatlarga rioya qilish faqatgina davlatlarning ichki ishi emasligi belgilanib, ozchiliklar holatining yaxshilanishiga ko'maklashuvchi demokratik amaliyot umumlashtirildi. Ta'kidlash joizki, mazkur hujjat milliy ozchiliklarga mansub shaxslarning til va ta'lim borasida huquqlarini o'z ichiga olmagan bo'lib, ular huquqlari himoyasi mexanizmi aniq belgilanmagan [26, 359–367, 211–218-b.].

YXHTning insoniylik mezoni konferensiyasi Moskva kengashi hujjati (1991-y. 3-oktabr), yuqori darajadagi Helsinki uchrashuvi deklaratsiyasi (1992-y. 10-iyul) va Budapesht sammiti qarori (1994-y. 6-dekabr)da a'zo davlatlar YXHTning barcha hujjatlarida ifodalangan milliy ozchiliklar muammolari va ularga mansub shaxslar huquqlariga tegishli qoida va majburiyatlarni tasdiqladilar.

2004-yil 9-iyulda qabul qilingan YXHT Parlament assambleyasi Edinburg deklaratsiyasida a'zo davlatlarga milliy ozchiliklar uchun ta'lim dasturlarini ona tillarida ham qo'llab-quvvatlash, milliy o'quv dasturlariga turli din va madaniyatlarni o'rganishni kiritish tavsiya etilib, maktab ma'muriyatlari, politsiya va mahalliy boshqaruv organlari kabi tegishli muassasalarda milliy ozchiliklarning teng taqdim etilishini ta'minlash taklif etildi [27].

Shuningdek, YXHT doirasida milliy ozchilikka mansub shaxslarning ijtimoiy hayotning turli sohalarida ishtirokiga ko'maklashuvchi tavsiyalar ishlab chiqilib, unda ko'p sonli munozaralar natijalari, shuningdek, shu sohadagi ekspertlar nuqtayi nazarini hisobga olingan, xususan, Milliy ozchiliklarning ta'limiga bo'lgan huquqlari to'g'risidagi Haaga tavsiyalari (1996-yil oktabr), Milliy ozchiliklarning til borasidagi huquqlari to'g'risidagi Oslo tavsiyalari (1998 yil fevral), Ommaviy-siyosiy hayotda milliy ozchiliklarning samarali ishtiroki to'g'risidagi Lund tavsiyalari (1999-yil sentabr), Saylov jarayonida milliy ozchiliklarning ishtirokiga ko'maklashuvchi Varshava tavsiyalari (2001-yil yanvar), Teleradio eshittirishlarda ozchiliklar tillaridan foydalanish to'g'risidagi tavsiyalari (2003-yil oktabr), Ko'p millatli jamiyatda politsiya faoliyati masalalari borasidagi tavsiyalari (2006-yil fevral), Davlatlararo munosabatlarda milliy ozchiliklar to'g'risidagi Boltsan tavsiyalari (2008-yil iyun), Turli hamjamiyatlarni integratsiya etish Lyublyana tavsiyalari (2012-yil mart), Ozchiliklar va ularning odil sudlovga ega bo'lishi to'g'risida Grats tavsiyalari (2017-yil oktabr), Ozchiliklar va raqamli dunyoda OAV Tallin tavsiyalari (2019-yil mart) kabi bir qator hujjatlar shular jumlasidan [28].

Teng huquqlilik va kamsitmaslik tamoyillari MDH doirasida qabul qilingan Olmaota deklaratsiyasi (1991-yil 21-dekabr) [29], MDH doirasida hamkorlik tamoyillariga amal qilish to'g'risidagi deklaratsiya (1992-yil 14-fevral), MDHning inson hu-



quqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi konvensiyasi hujjatlarida ham ifodalangan (1995-yil 26-may) [30, 857–867-b.]. Ta'kidlash joizki, MDH doirasida 1992-yildan boshlab, ozchiliklar huquqlari himoyasiga e'tibor kuchayishi Sovet Ittifoqining parchalanishi bilan bog'liq. Ozchiliklar himoyasiga bevosita yoki bilvosita taalluqli bo'lgan bir necha huquqiy hujjat, xususan, Chiqarib yuborilgan shaxslar, milliy ozchiliklar va xalqlar huquqlarini tiklash bilan bog'liq masalalar bo'yicha kelishuv (1992-yil 9-oktabr), Milliy ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlarini ta'minlash to'g'risidagi konvensiya (1994-yil 21-oktabr) qabul qilindi [31, 852–857-b.].

Bundan tashqari, davlatlararo munosabatlarda ozchiliklar huquqlari masalalari ikki va ko'p tomonlama shartnomalar hamda milliy qonunchilik hujjatlari predmetiga aylandi. Rossiyalik tadqiqotchi S.S. Yurev asosli ta'kidlaganidek, 1994-yil 21-oktabrda Minskda qabul qilingan Milliy ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlarini ta'minlash to'g'risidagi konvensiya milliy ozchiliklarga mansub shaxslar tushunchasiga ta'rif keltirilgan dastlabki xalqaro huquqiy hujjatdir. Milliy ozchiliklarga mansublik manfaatdor shaxsning individual tanloviga bog'liq ekanligi va bu tanlov mazkur shaxs uchun hech qanday salbiy oqibatlar tug'dirmasligi, shuningdek, a'zo davlatlar tomonidan mazkur shaxslarning inson huquqlari borasida umum tan olingan xalqaro andozalar va milliy qonunchilikka binoan fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy huquq va erkinliklarining kafolatlanishi belgilandi [32, 334-b.]. Bu borada ta'kidlash kerakki, O'zbekiston mazkur konvensiyaga a'zo emas. O'ylaymizki, O'zbekistonning MDHning Milliy ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlarini ta'minlash to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilishi mintaqada doirasida ozchiliklar huquqlarini ta'minlash tizimini mustahkamlashga hamda milliy darajada ularning manfaatlarini yanada kengroq ta'minlashga ko'maklashadi.

## Xulosalar

Yuqorida keltirilgan xalqaro huquqiy hujjatlar tahliliga ko'ra:

1. Etnik ozchiliklar huquqlari, dastlab, inson huquqlari umumiy tizimida BMT nizomida mustahkamlangan xalqlarning teng huquqliligi va kamsitmaslik tamoyillari kontekstida universal va mintaqaviy huquqiy hujjatlarda umumiy jihatdan ta'minlangan bo'lib, ozchiliklar jamoa sifatida emas, balki "ozchiliklarga mansub shaxslar" sifatida qabul qilinib, individual huquqlari mustahkamlandi.

2. O'tgan asrning 80–90-yillardan boshlab, ozchiliklar huquqlari maxsus ravishda universal va mintaqaviy huquqiy hujjatlarda hamda ikki va ko'p tomonlama shartnomalarda mustahkamlana boshladi. Mazkur huquqiy hujjatlarda ozchiliklar jamoa sifatida qabul qilinib, ularning jamoaviy huquqlari mustahkamlana boshladi.

3. Bugungi kunda ozchiliklar huquqlari universal darajada BMT tizimida mutahkamlanib, ozchiliklar huquqiy holati va maqomini belgilash, ularning asosiy huquqlarini kafolatlash, turli ko'rinishlarda kamsitmaslikka yo'l qo'ymaslik, himoyalash mexanizmini yaratish kabi masalalarga qaratilgan.

4. BMT tizimida ozchiliklar huquqiy holatini belgilash va himoyalash mexanizmi inson huquqlarini kafolatlashga qaratilgan konvensiyaviy mexanizmlar hamda Xalqaro Mehnat Tashkiloti va YUNESKO doirasida shakllangan vositalar orqali amalga oshiriladi. Mazkur tizimning asosini BMTning 1992-yil 18-dekabrda qabul qilingan Milliy yoki etnik, diniy va tilga oid ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya tashkil etadi.

5. Bugungi kunda mintaqaviy darajada ozchiliklar huquqiy holatini belgilash va himoyalash mexanizmlari Yevropa Kengashi, YXHT, MDH, Afrika Kengashi doirasida tashkil etilgan. Ularni 1995-yil 1-fevraldagi Milliy ozchiliklar himoyasi to'g'risidagi Strasburg konvensiyasi, 1994-yil 21-oktabrdagi Milliy

ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlarini ta'minlash to'g'risidagi Minsk konvensiyasi hamda YXHT doirasida qabul qilingan siyosiy va tavsiyaviy ahamiyatga ega 10 dan ortiq tavsiyalar tashkil etadi.

6. BMT doirasida ozchiliklar huquq va erkinliklarini ta'minlash mexanizmini 1965-yilda joriy etilgan Irtiy kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mita hamda 2005-yilda joriy etilgan Ozchiliklar masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachi ta'minlaydi.

7. Yevropa Kengashi doirasida ozchiliklar huquq va erkinliklarini ta'minlash mexanizmini Yevropa Vazirlar Mahkamasining maslahat qo'mitasi tashkil etadi.

8. YXHT doirasida ozchiliklar huquq va erkinliklarini ta'minlash mexanizmini 1992-yilda joriy etilgan ozchiliklar ishlari bo'yicha oliy komissar ta'minlaydi.

9. Ozchiliklar kamsitilishining oldini olish maqsadida YXHTning 2017-yilgi Ozchiliklar va ularning odil sudlovga ega bo'lishi to'g'risida Grats tavsiyalaridan kelib chiqib, "Sudlar to'g'risida"gi qonunning sudyalari deb nomlangan 58-moddasi quyidagi tahrirdagi 5-qism bilan to'ldirilishi taklif etiladi: "Sudlar tarkibi aholining xilma-xilligini aks ettirishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak".

Shu mazmundagi normalar "Prokuratura to'g'risida"gi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi, "Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi,

"Milliy gvardiya to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlarga kiritilishi taklif etiladi.

10. YXHTning 2019-yilgi Ozchiliklar va raqamli dunyoda OAV Tallin tavsiyalarining (2019-y. mart) 22-bandiga asosan, "Davlatlar mintaqaviy yoki mahalliy darajada, shu jumladan, ozchiliklar yashaydigan geografik hududlarda va/yoki ularning tillarida turli xil ommaviy axborot vositalarining mustaqil va barqaror ishlashini ta'minlashga qaratilgan aniq qonunchilik va boshqa qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rishlari kerak". Ammo mazkur masala milliy qonunchilik darajasida o'z aksini topmagan. Shundan kelib chiqib, 2007-yil 15-yanvardagi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunning ommaviy axborot vositalarining erkinligi deb nomlangan 5-moddasini quyidagi 4-qism bilan to'ldirish taklif etiladi: "Ommaviy axborot vositalari mintaqaviy yoki mahalliy darajada, shu jumladan, ozchiliklar yashaydigan jug'rofiy hududlarda va/yoki ularning tillarida turli xil ommaviy axborot vositalarining mustaqil va barqaror ishlashini qo'llab-quvvatlash va ta'minlashga qaratilgan choralarini ko'rishga intilishadi".

Bundan tashqari, O'zbekistonning MDHning Milliy ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlarini ta'minlash to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilishi kun tartibida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

## REFERENCES

1. UN Charter and international judicial statute. 2002, 4 p.
2. Universal Declaration of Human Rights. International human rights instruments. Moscow, Norma, 1999, pp. 39–40.
3. UN Doc. 217 C (III), 10 Dec. 1948.
4. Humphrey J.P. The United Nations Sub-Commission on the Prevention of Discrimination and Protection of Minorities. AJIL, 1988, p. 869.
5. De Zayas A.M. The international judicial protection of peoples and minorities. Eds. C. Brolmann et al. Peoples and minorities in international law. Dordrecht, Martinus Nijhoff Publ., 1993, p. 247.

6. Leading Principles on the subject of law of religious churches and churches that adhere to certain beliefs. Ed. A. Saidov. Trans. G. Mirzo. Warsaw, Poligrfaus Jacek Adamiak, 2019, p. 71.
7. Definition and Classification of Minorities. Memorandum Submitted by the Secretary General. UN Doc. E/CN. 4/Sub. 2/85. 27 Dec. 1949, p. 38.
8. International Covenant on Civil and Political Rights. Convention on the Prevention and Punishment of the Crime of Genocide. Comp. Yu.M. Kolosov, E.S. Krivchikova. Current international law. Moscow, 2002, pp. 793–803.
9. Current international law. Comp. Yu.M. Kolosov, E.S. Krivchikov. Moscow, Publ. House of the Moscow Independent Institute of International Law, 1997, vol. 2, pp.190–201.
10. International acts on human rights. Comp. V.A. Kartashkin, E.A. Lukasheva. 2nd ed., supplement. Moscow, Norma, 2002, pp. 857–899,
11. Charter of Fundamental Rights of the European Union. Charter of the European Union on Fundamental Rights (commentary). Moscow, Jurisprudence, 2001, pp. 158–161.
12. Official Documents System of the United Nations. Available at: <https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N93/076/57/IMG/N9307657.pdf?OpenElement/>.
13. De Varennes F. Special Rapporteur on minority issues. Available at: <https://www.ohchr.org/en/special-procedures/sr-minority-issues/fernand-de-varennnes/>.
14. Vienna Declaration and Programme of Action. International human rights instruments. Moscow, Norma, 2002, pp. 78–93.
15. YuNESKOning Madaniy xilma-xillik umumjahon deklaratsiyasi [UNESCO's Universal Declaration on Cultural Diversity]. Ed. L. Saidova. Tashkent, Adolat Publ., 2004, pp. 226–227.
16. Convention on Employment Policy. International human rights instruments. Moscow, Norma, 2002, pp. 368–369.
17. ILO Convention No. 169 on Indigenous and Tribal Peoples in Independent Countries. International human rights instruments. Moscow, Norma, 2002, pp. 118–130.
18. Hurst Hannum Autonomy, sovereignty and self-determination. The accommodation of conflicting rights. Philadelphia, University of Pennsylvania Press, 1990, pp. 55–56.
19. Tuzmukhamedov R.A. National minorities under the protection of international law. *State and Law*, 1996, no. 2. p. 111.
20. Capotorti F. Study on the rights of persons belonging to ethic, religions and linguistic minorities. UN Doc. E/CN.4/Sub.2/384/Rev.1.
21. Gerber. Kulturautonomie als Eigenart minderheitenrechtlicher Ordnung und ihre Verwirldichung nach der estnischen Verfassung [Cultural autonomy as a peculiarity of minority legal order and its implementation according to the Estonian constitution]. Berlin, 1926.
22. European Charter on Regional and Minority Languages. International Acts on Human Rights. Sat. doc. Moscow, Norma, 2002, pp. 711–724.
23. Bulletin of the Moscow University. Ser. 11, Law, 1996, no. 6. pp. 95–99.
24. Final Act of the Conference on Security and Cooperation in Europe of August 1, 1975. International Acts on Human Rights. Moscow, Norma, 2002, p. 754.
25. The final document of the Madrid meeting of 1980 of representatives of the CSCE participating States. International Acts on Human Rights. Moscow, Norma, 2002, p. 760.
26. Final Document of the 1986 Vienna Meeting of Representatives of the Participating States Final Act of the Conference on Security and Cooperation in Europe. International Acts on Human Rights. Moscow, Norma, 2002, pp. 764–768.
27. Document of the Copenhagen Meeting of the CSCE Conference on the Human Dimension of June 29, 1990. International Acts on Human Rights. Moscow, Norma, 2002, pp. 779–783.
28. The Charter of Paris for a New Europe (Final Document of the Conference on Security and Cooperation in Europe, held in Paris) of November 21, 1990. International Acts on Human Rights. Moscow, Norma, 2002, pp. 785–786.

29. Report of the CSCE Expert Meeting on National Minorities in Geneva on July 19, 1991. International cooperation in the field of human rights. Report of the CSCE Expert Meeting on National Minorities in Geneva on July 19, 1991. International cooperation in the field of human rights: Documents and Materials. Moscow, 1993, pp. 359–367.
30. The Edinburgh Declaration of the OSCE Parliamentary Assembly and the Assembly Resolutions adopted at the ninth Annual Session on July 9, 2004.
31. Li X. Protection and realization of the rights of ethnic minorities in the State national policy of the People's Republic of China. Abstract of PhD thesis. Kazan, Kazan Federal University, 25 p.
32. Alma-Ata Declaration of the CIS of December 21, 1991.
33. Pallek M. Minderheiten in Deutschland – Der Versuch einer Juristischen Begriffsbestimmung [Minorities in Germany - An attempt at a legal definition]. Public law archive. Mohr Siebek, 2000, vol. 125, p. 594.
34. Lamey B. Die Minderheiten in Lettland [Minorities in Latvia]. Riga-Berlin, 1931. Noel-Buxton, National minorities to-day, London, 1931.
35. Widmer P. Le defi des minorites nationales en Europe. Paris, La Trimestre du Monde, 1992, pp. 211–218.



# **Babakulov Zafar Kurbonnazarovichning “Tovar belgilarining fuqarolik-huquqiy maqomini takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi (DSc) dissertatsiyasiga XULOSA**

TDYU mustaqil izlanuvchisi Z.K. Babakulovning “Tovar belgilarining fuqarolik-huquqiy maqomini takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi (DSc) doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yuridik fanlar doktori, professor O. Okyulovning bevosita ilmiy maslahatchiligi asosida tayyorlangan va u intellektual mulkning ijtimoiy muomalada eng keng tarqalgan obyektlaridan tovar belgilarining fuqarolik-huquqiy maqomini takomillashtirishga qaratilgan. Ta’kidlash lozim, mazkur dissertatsiya tadqiqotchining 2018-yilda “Tovar belgilaridan foydalanish va muhofaza qilishni fuqarolik-huquqiy tartibga solish” mavzusida “12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq” ixtisosligi bo‘yicha himoya qilingan dissertatsiyaning (PhD) mantiqiy davomidir.

Dissertatsiyada tovar belgilarining huquqiy maqomini takomillashtirish bilan bog‘liq bir qancha masalalar o‘rganilgan, tahlil qilingan, ilmiy nazariy xulosalar hamda qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflar berilgan. Mazkur ilmiy ishni yozishda tadqiqotchi AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning sohaga oid qonunchiligi, tovar belgilariga oid xalqaro konvensiya va bitimlarni o‘rgangan va ulardan milliy qonunchilikni takomillashtirishda foydalangan.

Dissertatsiyada mutlaq huquqlarga oid ilmiy doktrinalar mazmun; tovar belgisiga doir huquqni ro‘yxatdan o‘tkazish; tovar belgisiga nisbatan huquqlar va ularni amalga oshirish bo‘yicha fuqarolik-huquqiy qoidalari; intellektual mulkning boshqa obyektlari bilan tovar belgisining o‘zaro nisbati; tovar belgisiga doir huquqni bekor qilishga nisbatan manfaatdor shaxsning talablari; tovar belgisidan litsenziya, garov shartnomalarida foydalanish hamda tovar belgisiga nisbatan huquqni tasarruf etishning fuqarolik-huquqiy tartib-taomillari; tovar belgisidan insofsiz raqobatda foydalanish va uning huquqiy oqibatlari; marketpleyslarda tovar belgilaridan foydalanishning fuqarolik-huquqiy talablariga doir shu va boshqa masalalar o‘rganilgan va ilmiy xulosalar qilingan.

Tadqiqotchi tovar belgisining fuqarolik-huquqiy maqomi borasida “kiberhimoya” doktrinasini o‘rgangan va asoslagan bo‘lib, ushbu doktrina mutlaq huquqlarga oid “shartnoma” doktrinasiga nisbatan kvazi doktrina sifatida huquqiy baho bergan. Shu bilan birga, ilmiy ishda tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazishga nisbatan AQSh amaliyoti asosida tovar belgisini asosiy va qo‘shimcha ro‘yxatdan o‘tkazish (the mark is in use in commerce); hammaga ma’lum tovar belgilarini Parij konvensiyasining 6-bis-moddasi asosida to‘g‘ridan to‘g‘ri tan olish amaliyotini joriy qilish; garchi tovar belgilari bilan bir xil firma nomi va domen nomiga nisbatan huquq dastlab ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa-da, tovar belgisiga nisbatan huquqlarni ularga nisbatan ustuvor deb tan olish kabi shu va boshqa holatlar atroflicha tahlil qilingan va ilmiy xulosalar chiqarilgan.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

6 / 2022

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
y. f. d., dotsent

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ikrom Ergashev**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent

**Mas'ul muharrir:** D. Xudoynazarov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, Y. Mahmudov,  
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**E-mail:** [tn.tdyu@mail.ru](mailto:tn.tdyu@mail.ru)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 18,83 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 178.

TDYU tipografiyasida chop etildi.